O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

KOGNITIV PEDAGOGIKAGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR

Toshkent 2023

R.G.Safarova. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. Science and innovation. 2023 – 190bet.

Ushbu monografiyada kognitiv pedagogika, uning tadqiqot ob'ekti va predmeti, asosiy yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari o'rganilayotgan muammolarning ko'lami haqida fikr yuritilgan. Kognitiv pedagogika doirasida o'quvchi hamda talabalarni madaniy, ma'naviy, aqliy intellektual, axloqiy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi qarashlar, yondashuvlar bayon qilingan. Ma'lumki kognitiv pedagogika pedagogika fanining nisbatan yangi tarmog'i bo'lib, ta'lim oluvchilarning bilish strukturasi va instrumentariysi hamda bilish faolligini ta'minlash metodologiyasi, ushbu yo'nalishdagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Insonning fikrlash instrumentini faollashtirish asosida ta'lim oluvchilarning mantiqiy, mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash faoliyatini bosqichma bosqich rivojlantirish, ularning bilish instrumentlarini faollashtirishda ajdodlarimiz tomonidan asoslangan aqliy tarbiya konsepsiyasiga tayanish imkoniyatlari haqidagi nazariy yondashuvlar ta'limiy fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, shaxs fikrlash faoliyatining pedagogik, didaktik xususiyatlari ochib berilgan. Shunga ko'ra ushbu monografiya ilmiy pedagogik jamoatchilik, professor-o'qituvchilar, dastur va darsliklarning mualliflari, pedagogika nazariyotchilari, talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Muallif: **R.G.Safarova**

Mas'ul muharrir: **X.Ibraimov - p.f.d., prof.**

Taqrizchilar: **B.Ma'murov - p.f.d., prof.**
X.Tojiboyeva - p.f.d., katta ilmiy xodim

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2023-yil 28-noyabrdagi 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Abstract

The monograph discusses cognitive pedagogy, its object and subject of research, main directions, features, and range of problems studied. Within the framework of cognitive pedagogy, views and approaches are outlined about the possibilities of cultural, spiritual, mental-intellectual, moral development of students. It is known that cognitive pedagogy is a relatively new branch of the science of pedagogy, which is engaged in the development of theoretical and practical foundations for improving the cognitive structure and tools of students, as well as a methodology for ensuring cognitive activity and pedagogical processes in this direction. Theoretical approaches and educational views on the gradual development of logical, independent, critical and creative thinking of students based on the activation of the human thinking tool, on the possibility of relying on the concept of mental education, justified by our ancestors, when activating their cognitive tool are outlined. The pedagogical and didactic features of the individual's thinking are also revealed. Accordingly, this monograph serves as a guide for the scientific and pedagogical community, teachers-professors, authors of programs and textbooks, pedagogical theorists, students, teachers and young researchers.

Introduction

The term cognitive pedagogy has been used since the second half of the 20th century. Today there is an urgent need for the development of cognitive pedagogy. Cognitive pedagogy, being the youngest promising branch of pedagogy, has its own history of formation, development and improvement trends. Cognitive pedagogy is based on cognitive psychology. Cognitive pedagogy studies problems of cognitive learning. In the Encyclopedia of Pedagogy, the concepts of "cognitive" and "cognitive education" are defined as follows: cognitive is a term that expresses a person's independent creative thought process. Cognitive education is one of the areas of psychological research and pedagogy, education to expand the range of knowledge about the environment, the formation of differentiating thinking, and the development of cognitive needs.

It is the basis for the formation and regular development of knowledge in the thinking and memory of students. The cognitive activity formed in each person is the basis of his logical, critical, creative thinking and creative activity. For, cognitive pedagogy manifests itself as pedagogy that absorbs all the knowledge inherent in human activity.

One of the leading methods of cognitive pedagogy is the method of retrospective analysis. After all, cognitive pedagogy analyzes and studies human cognitive activity. Human cognitive activity is a systematic manifestation of mental processes. This is reflected in the perception, retention, memorization, processing and interpretation of knowledge by students. Productive ways and methods that activate these processes in education were systematically studied by specialists at the end of the last century. In cognitive pedagogy, the activation of students and the formation of their creative attitude towards learning activities becomes one of the main issues.

Today in cognitive pedagogy, special attention is paid to the scientific substantiation of the following areas. This:

- developing the technologies for the improvement of cognitive processes of students;

- identifying opportunities for activating students' personal cognitive processes, thereby developing their creative abilities;
- theoretical justification that the views, worldview and cognitive sphere of students are a factor in their independent development.

In the process of cognitive learning, the following methods are prior:

1. Reproductive;
2. Heuristic, stimulating curiosity;
3. Creative.

It seems that cognitive pedagogy allows us to open a new area of research. In cognitive pedagogy, there is an increasing need to use cognitive technologies that serve to expand human creative capabilities.

Аннотация

В монографии обсуждаются когнитивная педагогика, ее объект и предмет исследования, основные направления, особенности, круг изучаемых проблем. В рамках когнитивной педагогики изложены взгляды и подходы о возможностях культурного, духовного, умственно-интеллектуального, нравственного развития учащихся и студентов. Известно, что когнитивная педагогика – сравнительно новая отрасль науки педагогики, занимающаяся разработкой теоретических и практических основ совершенствования познавательной структуры и инструментария обучающихся, а также методологии обеспечения познавательной активности, педагогических процессов в этом направлении. Изложены теоретические подходы, образовательные взгляды на поэтапное развитие логического, самостоятельного, критического и креативного мышления обучающихся на основе активации инструмента мышления человека, на возможности опоры на концепцию умственного воспитания, обоснованную нашими предками, при активации их познавательного инструмента. Также раскрываются педагогические и дидактические особенности мышления личности. Соответственно, данная монография служит руководством для научно-педагогической общественности, преподавателей-профессоров, авторов программ и учебников, теоретиков педагогики, студентов, учителей и молодых исследователей.

Введение

Термин когнитивная педагогика используется со второй половины 20 века. Сегодня существует острая потребность в развитии когнитивной педагогики. Когнитивная педагогика, являясь самой молодой перспективной отраслью педагогики, имеет свою историю становления, развития и тенденции совершенствования. Когнитивная педагогика опирается на когнитивную психологию. Когнитивная педагогика изучает проблемы когнитивного обучения. В энциклопедии педагогики понятия «когнитивный» и «когнитивное образование» определяются следующим образом: когнитивный — термин, выражающий самостоятельный творческий мыслительный процесс человека. Когнитивное образование – одно из направлений психологических исследований и педагогики, образование по расширению круга знаний об окружающем, формированию дифференцирующего мышления, развитию познавательных потребностей.

Является основой формирования и регулярного развития знаний в мышлении и памяти обучающихся. Сформированная у каждого человека когнитивная деятельность является основой его логического, критического, креативного мышления и творческой деятельности. Ибо, когнитивная педагогика проявляется как педагогика, вбирающая в себя все знания, присущие деятельности человека.

Одним из ведущих методов когнитивной педагогики является метод ретроспективного анализа. Ведь, когнитивная педагогика анализирует и исследует познавательную деятельность человека. Познавательная деятельность человека представляет собой систематическое проявление психических процессов. Это отражается на восприятии, сохранении, запоминании, обработке и интерпретации знаний учащимися. Продуктивные способы и методы, активизирующие эти процессы в образовании, систематически изучались специалистами еще в конце прошлого века. В когнитивной педагогике

активизация обучающихся, формирование у них творческого отношения к учебной деятельности становится одним из главных вопросов.

Сегодня в когнитивной педагогике особое внимание уделяется научному обоснованию следующих направлений. Это:

- разработка технологий развития когнитивных процессов обучающихся;
- определение возможностей активизации личностных когнитивных процессов обучающихся, тем самым развивая их творческие способности;
- теоретическое обоснование того, что взгляды, мировоззрение и когнитивная сфера обучающихся являются фактором их самостоятельного развития.

В процессе когнитивного обучения приоритетными являются следующие методы:

1. Репродуктивный;
2. Эвристический, побуждающий любопытство;
3. Креативный.

Представляется, что когнитивная педагогика позволяет открыть новую область исследований. В когнитивной педагогике возрастает необходимость использования когнитивных технологий, служащих расширению творческих возможностей человека.

MUQADDIMA

Kognitiv pedagogika atamasi o‘tgan XX-asrning ikkinchi yarmidan qo‘llanila boshlandi. Bugungi kunda kognitiv pedagogikani rivojlantirishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Kognitiv pedagogik pedagogikaning eng yosh istiqboli tarmog‘i bo‘lganligi uchun ham o‘zining shakllanish, rivojlanish tarixi va takomillashish tendensiyalariga ega. Kognitiv pedagogika kognitiv psixologiyaga tayanadi. Kognitiv pedagogika kognitiv o‘qitish muammolarini o‘rganadi. Pedagogika ensiklopediyasida “kognitiv”, “kognitiv ta’lim” tushunchalariga quyidagicha ta’rif berilgan: kognitiv – shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash jarayonini ifodalovchi atama. Kognitiv ta’lim – atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiallovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarni rivojlantirish ta’limi, psixologik tadqiqot sohalaridan hamda pedagogikaning yo‘nalishlaridan biri.

Ta’lim oluvchilarning tafakkuri va xotirasida bilimlarning shakllanishi va muntazam rivojlanishiga asos bo‘ladi. Har bir shaxsda shakllantiriladigan kognitiv faoliyat uning mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi va ijodiy faoliyat ko‘rstishiga asos bo‘ladi. Chunki kognitiv pedagogika shaxs faoliyatiga xos bo‘lgan barcha bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan pedagogika sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kognitiv pedagogikaning etakchi metodlaridan biri retrospektiv tahlil metodidir. Chunki kognitiv pedagogika shaxsning bilish faoliyatini tahlil va tadqiq qiladi. Insonning bilish faoliyati esa psixik jarayonlarning tizimli tarzda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Bu ta’lim oluvchilarning bilimlarni idrok etishi, xotirasida saqlab qolishi, eslab qolishi, qayta ishlashi, interpretatsiyalashida o‘z ifodasini topadi. Ta’limda mazkur jarayonlarni faollashtiruvchi, mahsuldor usullar va metodlar o‘tgan asrning oxirlaridayoq mutaxassisilar tomonidan tizimli tarzda o‘rganila boshlangan. Kognitiv pedagogikada ta’lim oluvchilarni faollashtirish, ularda o‘quv faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatni shakllantirish asosiy masalalardan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda kognitiv pedagogikada quyidagi yo‘nalishlarni ilmiy asoslashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ular:

- Ta’lim oluvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta’lim oluvchilarning shaxsiy kognitiv jarayonlarini faollashtirish imkoniyatlarini aniqlash, orqali ularda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchilarning nuqtai nazarlari, dunyoqarashlari, kognitiv sohalari o‘z-o‘zlarini mustaqil rivojlantirish omili ekanligini nazariy jihatdan asoslash kabilar.

Kognitiv ta’lim jarayonida quyidagi metodlar ustuvor o‘rin egallaydi:

1. Reproduktiv;
2. Izlanuvchanlikka undovchi evristik;
3. Kreativ metodlar.

Ko‘rinib turibdiki, kognitiv pedagogika tadqiqotlarning yangi sohasini kashf etish imkonini beradi. Kognitiv pedagogikada shaxsning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan kognitiv texnologiyalardan foydalanish zaruriyati kuchaymoqda.

I-BO‘LIM. KOGNITIV PEDAGOGIKANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA MAZMUN MOHIYATI

1.1. Kognitiv pedagogika: uning funksiyalari va prinsiplari

Bugugi kunda pedagoglar va psixologlar ta’lim jarayonining metodik jihatlari, instrumentariysi sifatida ko‘plab innovatsion g‘oyalarni ilgari surmoqdalar. Chunki ta’lim vositalari, metodlari va texnologiyalari uning sifatini ta’minlashda etakchi ahamiyat kasb etadi. Ularning muayyan shart-sharotlarida qo‘llanilishi, pedagogik samaradorlikka egaligini baholash, har bir metod yoki texnologiyaning afzal jihatlari, kamchiliklari ta’lim sifatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunday yondashuvlar nafaqat o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, balki o‘quvchi uchun ham bilish faoliyatini rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda didaktik vositalar, metodlar va texnologiyalar o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlarini rivojlantiruvchi asosiy instrumentariy sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki mazkur instrumentariyning sifati ta’lim sifatini belgilaydi. Bugungi kunda o‘quvchilarga bilish instrumentariylarning foydalanuvchilari sifatida yondashish an’anaviy pedagogika uchun noodatiy hol hisoblanadi.

Pedagogika fanining bugungi taraqqiyoti o‘quv jarayoniga innovatsion nuqtai nazardan yondashish hamda ta’lim oluvchilarning kognitiv va shaxsiy tarkibini yangicha tushunishni taqozo etmoqda. Shu ma’noda pedagogikaning yangi tarmog‘i kognitiv pedagogika nazariyasi vujudga keldi va o‘zining rivojlanish bosqichiga kirdi. Kognitiv pedagogikada pedagogik psixologiyaga tayangan holda insonni biluvchi tizim sifatida talqin etish g‘oyasiga ustuvor o‘rin ajratilmoqda. Kognitiv pedagogika ta’lim oluvchilar olamni qanday va nima vositasida tadqiq etishlari, o‘z faoliyatlarini tashkil qilish hamda o‘z hayot tarzini amalga oshirishi haqidagi ilmiy yondashuvlarni ilgari surmoqda.

Kognitiv pedagogika mumtoz instrumental pedagogikadan shaxsning bilish faoliyati tarkibiga alohida e’tibor qaratilishi hamda inson instrumentariysi va uning rivojlanishi, xulq-atvor yo‘nalishlari, an’anaviy maktabning o‘ziga xos jihatlariga

e’tibor qaratilishi bilan farqlanadi. Bu jarayon shaxs va uning mahsuldor jihatlariga e’tibor qaratilishi bilan tavsiflanadi. O‘quv topshiriqlarni bajarishning muayyan natijalari qanday bo‘lishiga qarab jarayonning rivojlanishi baholandi. Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jihatlardan biri, ta’lim oluvchilar imtihon topshiriqlarni echish jarayonida o‘zlari egallagan kompetensiyalarni namoyon qila olishlaridadir. Bunday yondashuv so‘ngi yillarda pedagogik jamoatchilik tomonidan kam samara beradigan usul sifatida tanqid qilinmoqda. Mazkur usul maktab ta’limi uchun sarflanadigan mablag‘ni oqlamayapti degan qarashlar ham mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, an’anaviy pedagogikadagi instrumental yondashuv pedagogik bixeviorizmning rivojlangan varianti bo‘lib, stimul-reaksiya prinsipini amalga oshirishga xizmat qilib kelmoqda. U ta’lim oluvchilar shaxsining deformatsiyasiga sabab bo‘lib, ularning mustaqilligi va faolligin pasaytirishga asos bo‘ladi. O‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlash uchun o‘quvchi faoliyatini kognitiv tashkil etishning instrumental jihatlarini chuqur anglash talab qilinadi. Ta’lim oluvchilar muayyan topshiriqlarni turli usullar yordamida echishga muvaffaq bo‘ladilar. Bunda muhim jihatlardan biri tashqi instrumentning namoyon bo‘lishi emas, balki ichki instrument sifatida axborotlarni qayta ishlashning struktura ko‘rinishida ifodalanishidadir. Har bir ta’lim oluvchiga mazkur o‘ziga xos usullardan foydalanish topshiriqlarni echishda turlicha samaradorlikka ega bo‘lish imkonini beradi.

Kognitiv pedagogika nuqtai nazaridan yondashganda nafaqat ta’limning mazmun bilan bog‘liq jihati, balki uning axborotli qirralari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim oluvchilarning o‘z maqsadlariga erishishlari uchun qaysi instrumentariyning tanlashlari ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu muammo ko‘plab pedagogik texnologiyalar doirasida echilsada, ularning metodik asoslarida namoyon bo‘lishi bilan bir qatorda ta’lim oluvchilar foydalaniladigan metodik instrumentariyga etarlicha e’tibor qaratilmaydi. Shuning uchun ham shaxs bilish faoliyatining instrumentariysi sifatida baholash mummosi vujudga keldi. Haqli bir savol tug‘iladi ta’lim oluvchilar qaysi vositalar yordamida atrof-muhitni bilib o‘zlashtiradilar?

Yechimi kutilayotgan muammolar uchun qo‘llaniladigan metod samarali bo‘lmasligi ham mumkin.

Har bir shaxs o‘zining kognitiv tarkibi bilan farqlanadi. Ular insonni aql-zakovati, layoqatlaridir. Mazkur birliklar inson faoliyatining turli natijalarida namoyon bo‘ladi. Shaxsning kognitiv tarkibini takomillashtirishga bo‘lgan intilish rivojlanish tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u rijojlanish pedagogikasida amalga oshiriladi. Bu zamonaviy pedagogik tafakkurning samarali yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish ta’limni shaxs ruhiy shakllanishining etukligi va samarasini ta’minlash asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu o‘z navbatida madaniy tarixiy jarayon sifatida talqin etiladi.

Kognitiv yo‘nalishdagi pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘sh boshqariladigan jarayonlarni o‘rganish va takomillashtirish pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarning kognitiv shakllanishini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchi va o‘qituvchining kommunikativ jihatdan rivojlanishi, ularning shaxsiyati pedagogik jarayonning markaziga qo‘yiladi. Ta’lim oluvchilarning rivojlanishi va o‘z o‘zini rivojlantirish g‘oyasi rivojlanish pedagogikasida aksariyat hollarda ikkinchi planga o‘tib qoladi. Ushbu masala ta’lim oluvchilar tomonidan foydalaniladigan bilish intsrumenti sifatida ularning konstruksiyalashgan faolligi darajasida muhim ahamiyat kasb etishi lozim.

Kognitiv psixologiyaga oid g‘oyalar hamda ularning amalga oshirilishi pedagogikada kompetensiyaviy yondashuv sifatida o‘z ifodasini topdi. Talab qilingan darajada o‘quvchilarning kognitiv instrumentlari hamda ularning ta’lim va shaxs rivojlanishi bosqichlariga mos tarzda takomillashtirilishini taqozo etadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchilarning muayyan hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishlarini talab qiladi. Shu bilan bir qatorda samarali faoliyat ko‘rsatish imkonini beradigan turli ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari ham nazarda tutiladi. Mazkur bilim va ko‘nikmalar ta’lim oluvchilarning turli hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali

harakatlanishlariga imkon beradi. Bu testologik yondashuv shakli bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘z kognitiv instrumentlarini turli shakllarda egallashlariga sharoit yaratadigan muhim empirik dalil hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchilarning topshiriqlarni echishning eng samarali usullardan foydalanishlarini ta’minlaydi. Biroq bu pedagogik nazariya bilan amaliyotni o‘zaro qarama qarshi qo‘yyuvchi eng bo‘sh, etarlicha asoslanmagan dalillardan biri hisoblanadi. Kognitiv yondashuv pedagogik muhitning instrumental jihatlariga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Kognitiv yondashuv doirasida ta’limning nafaqat jismoniy balki ijtimoiy omillari ham tushuniladi. Ta’lim oluvchilarning ichki faolligi esa topshiriqlarning echishi metainstrumentariysi hisoblanadi. Metainstrumentlar esa dinamik, psixik struktura hisoblanadi. U shaxsning muayyan vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan psixofiziologik strukturasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular universal, barqaror xarakterdagi kognitiv instrumentlar bilan uyg‘unlashishi lozim. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, metainstrumentlar inson instrumentining u yoki bu kognitiv layoqatini ifodalaydi. Bunda har bir daqiqada inson instrumentini baholash jarayoni amalga oshadi. Uning ommalashuvi hamda taraqqiyotining keyingi bosqichlarini tanlash samarasiz variantlaridan voz kechishni ta’mnlaydi.

Bugungi kunda pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biri ta’lim oluvchilarning samarali kognitiv shakllanishini ta’minlashdan iborat. Ta’lim oluvchilar oldiga qo‘yilgan hayotiy muammolarni echish uchun kognitiv pedagogikaning universal instrumentlarini yoritish va nazariy jihatdan asoslash talab qilinadi. Ushbu maqsad inson organizmining makro darajadagi psixofiziologik tizimi maqsadalariga mos keladi. O‘quv jarayoni davomida individual shakllarda sinergetik samaradorlik vujudga keladi. Ko‘rinib turibdiki kognitiv shakllanish, inson bilish tizimining yaxlit tarzda ifodalanishidir. U o‘zida shaxs ruhiyatining nafaqat insrumenti, balki mazmunga asoslangan tarkibiy qismlarini ham mujassamlashtiradi, insonning bilimi, uning mustaqil shakllanishiga yo‘naltiriladi. Ayni bir topshiriqni har bir ta’lim oluvchi turli

usullar yordamida bajaradi, natijada esa turlicha samaradorlikka erishiladi. Kuzatilgan hodisalarni tushuntirish uchun jozibali bo‘lgan modellar intellekt va layoqat tushunchalari bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Shu bilan bir qatorda ushbu tushunchalar ta’kidlovchilik xarakteriga ham ega. U o‘quvchilar erishgan natijalarni ifodalaydi, biroq ta’lim oluvchilar ushbu natijalarga qanday nima yordamida erishganliklari noaniqligicha qoladi. Bilish instrumentini tanlash va baholash, ushbu instrumentning samarali shakllaridan foydalanish masalasi pedagogika va kognitiv pedagogikada etarlicha asoslanmagan yo‘nalishlardan biridir.

Psixologiya kognitiv pedagogikaga ushbu muammolarni echishning bir necha variantlarini taqdim etadi. Bunda ishlab chiqilgan metodlar va yondashuvlardan foydalanish nazarda tutiladi. Ta’lim oluvchilar bilish instrumentining foydalanuvchilari hisoblanadilar. Ular bilish instrumentidan o‘zaro birgalikda harakatlanish usullarini qo‘llagan holda foydalanadilar. Ta’lim oluvchilar birgalikda topshiriqlarni bajaradilar, bu jarayonda moddiy borliq bilan bevosita aloqaga kirishadilar, bunga ta’lim oluvchilarning ongi hamda ular tomonidan qo‘llaniladigan kognitiv tashkil etiluvchilar aloqador bo‘ladi. Ushbu o‘rinda bilish instrumentining o‘ziga xosligi hamda uning foydalanuvchilariga munosabati, ya’ni bilish sub’ektlarining o‘zaro munosabati haqida ham fikr yuritamiz. Bu jarayonda sifatni ifodalovchi beshta komponentni ko‘rsatish mumkin: o‘zlashtirganlik, samaradorlik, esda saqlash, layoqatlilik, qoniqish hissiga egalik. Ko‘rinib turibdiki ko‘rsatib o‘tilgan komponentlar ta’lim oluvchilar foydalanadigan har qanday insturmentni qo‘llash uchun qulay hisoblanadi. Bu faqat ta’lim oluvchilarga aloqador bo‘lgan tashqi instrumentga xos emas, balki o‘qitish muhitining ichki instrumentiga ham xosdir.

Ta’limiy muhitning tashqi vositalari predmetli hamda axborotli jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ular ta’lim oluvchilar ongida ifodalanadi. Ta’lim vositalari tasnifida noodatiy turli tumanlik kuzatiladi. Ularning har biri tasniflovchi mualliflarining didaktik nuqtai nazarini o‘zida mujassamlashtiradi. Har bir o‘quv faniga xos bo‘lgan didaktik vositalarning turli yo‘nalishdagi tasniflarini amalga oshirish

mumkin. Didaktik vositalarning ishlab chiqilishi o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda taqdim etiladigan didaktik vositalarni baholash mexanizmlarini ham ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Ularning boshqa didaktik vositalar bilan o‘xshash jihatlari, ta’lim oluvchilar tanlovining o‘ziga xosligi, natijalarga ishlov berish usullari, baholash metodlari, qo‘llaniladigan instrumentlarning o‘ziga xos jihatlari, bu jarayonda yo‘l qo‘yiladigan xatolar ham aniqlanishi kerak. Ko‘rinib turibdiki an’anaviy pedagogikada shaxsga ta’lim-tarbiya berishga oid nazariy intepretatsiya va tushunchalardan foydalaniladi. Bu yondashuvlar metoforik ko‘rinishlarga ega.

Mazkur pedagogikada ta’lim jarayoni kompleks shakldagi maxsus ta’sirlarga o‘quvchining yaxlit tizimli reaksiyasi, o‘quv jarayoni ishtirokchilari tomonidan kommunikatsiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatadigan stimuli, talab qilingan yo‘nalishlarda ta’lim oluvchilarning psixofiziologik hamda shaxsiy strukturasida vujudga keladigan etakchi o‘zgarishlar muhim o‘rin egallaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarga bilimlarni taqdim etadi, ta’lim oluvchilar uni o‘zlashtiradilar. O‘quvchilarga ta’limiy muhitda o‘quv yuklamalari beriladi. Bularning barchasi shaxsning kognitiv aparatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda shaxsning individual rivojlanishini hisobga olmagan holda amalga oshriladi. Mazkur holat ta’lim oluvchilarning ruhiy-ijtimoiy shakllanishi bilan bog‘liq. Metaforik pedagogikaning tushunchaviy tarkibi sog‘lom fikr pedagogikasi sifatida pedagogik jamoatchilik tomonidan oson idrok etiladi. Shu bilan bir qatorda mazkur pedagogika ta’limning real jarayonlarini qisqartiradi. Natijada o‘quv jarayoniga nisbatan sohta nuqtai nazarni vujudga keltiradi. Bu esa nazariy hamda amaliy pedagogikaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Mumtoz pedagogikaning kognitiv yo‘nalishi klassik, amaliy pedagogika, uning tuzilishi va mazmuni hamda metodologiyasi bilimdon shaxsni shakllantirishga materialistik nuqtai nazardan yondashishga yo‘naltirilgan. Mazkur pedagogika o‘quvchiga bevosita hamda bilvosita ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi bilan

xarakterlidir. Shuning uchun ham ta’lim muhiti vujudga kelgan tizim asosida tashkil etiladi. Ta’limiy muhitning tashqi qismi ob’ektiv borliqni takibiy qism sifatida o‘zida mujassamlashtiradi. Fizik yaxlitlik maxsus tashkil etilan ta’lim vositalari va metodlari sifatida, ichki tomonidan esa o‘qituvchi va o‘quvchilarning shaxsiy tajribalarini ifodalaydi. o‘quv jarayoni algoritmini amalga oshirish asosida pedagogik ta’sirning muvofiq keladigan shakllari va vositalari hamda uning natijalarini baholash mexanizmlari qo‘llaniladi. Ta’limiy muhitning tizimli yaxlitligi va mantiqiy jihatdan yakunlanganligi doimiy tarzda uning yaratuvchilari interpretatsiyasini amalga oshirish imkonini beradi. Ta’limning asosiy elementlari va funksiyalarini diskurs shaklida tasvirlashga asos bo‘ladi, bular aniq o‘quv vaziyatida vujudga keladi. Mazkur konstruksiyaning sub’ektiv xarakter kasb etishini asoslashga ko‘maklashadi. Ko‘pgina pedagoglar ta’lim muhitini ob’ektiv borliqning tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlaydilar. Shuning uchun ham ta’lim oluvchilar barcha harakatlarini ob’ektiv olam bilan analogiya tarzida amalga oshirishlari mumkin.

Ta’limiy muhit klassik nuqtai nazardan yondashganda bilimlarning vujudga kelish o‘rni va vositasi hisoblanadi, uning doirasida shaxs bilish faolligining natijalari tushuniladi. Ushbu natijalar o‘zlashtirilgan tushunchalar, qonunlar va prinsiplar shaklida namoyon bo‘ladi. Tarixiy nuqtai nazardan bilimlarni tushuntirishning uchta asosiy yo‘nalishi mavjud.

1. Ob’ektivlik. Bilimlar tashqi kelib chiqishiga ko‘ra, faqatgina tajriba va hissiy idrok hamda ratsional tafakkur orqali bilib olinadi, ya’ni o‘zlashtiriladi.
2. Pragmatiklik. Bilimlar model yoki ichki tasavvur orqali tushuntiriladi.
3. Interpretativlik. Bilimlar ichki jihatdan shakllanadi va vujudga keladi. Biroq tashqaridan etib keladigan o‘quv axborotlari ta’sirida rivojlanadi.

Bu yo‘nalishlar o‘qitishning pedagogik metodlariga asoslanadi hamda ularning mazmunini aniqlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’limning instrumental jihatlari haqida ko‘plab yondashuvlar ilgari surilmoqda. Bunda didaktik vositalar, o‘qitish metodlari va texnologiyalari

tushunchalaridan foydalanilmoqda. Shu bilan bir qatorda ularning muayyan sharoitlarda qo‘llanilishiga oid fikrlar va qarashlar ilgari surilmoqda. Mazkur vositalar, metodlar va texnologiyalarning pedagogik jihatdan samaradorligi baholanmoqda hamda afzalliklari va kamchiliklari muhokama qilinmoqda.

Kognitiv pedagogikaning turli paradigmalari ta’lim oluvchilarni biluvchi tizim sifatida baholab, uzluksiz tarzda vujudga keladigan va modifikatsiya qilinadigan tizim ekanligini e’tirof etadi. Ta’lim oluvchilarning kognitiv hamda shaxsiy-insoniy imkoniyatlarini muntazam kengaytiruvchi va rivojlantiruvchi hodisa sifatida kognitiv pedagogika vujudga keldi.

Kognitiv pedagogika ta’lim oluvchilar shaxsiga olamni bilishga intiluvchi, o‘zaro munosabatga kirishuvchi, maxsus tashkil etilgan va tashkil etiladigan kognitiv tizim sifatida yondashish g‘oyasiga tayanadi. U kognitiv psixologiya nazariyasi, metodologiyasi va instrumentariysiga asoslanadi. Uning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarni ijtimoiy, pedagogik jihatdan moslashtirish, o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlashdan iborat. Ushbu tizimda o‘qituvchining roli ta’lim oluvchilarning rivojlanishi, ularda alohida kognitiv layoqatlarning tarkib topishi hamda bilish instrumentariysining takomillashuvi uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kognitiv pedagogikaning axborotli modeli bugungi kunda o‘quv muhitining jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu bevosita axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Kognitiv pedagogikaning shakllanishi bir necha bosqichlarda amalga oshmoqda: klassik, klassik bo‘lmagan va post-klassik bo‘lmagan. Ularning har birida ilmiy ratsionallikning turli shakllari va tizimli modellardan foydalaniladi. Bunda asosan o‘qish, o‘rganish va tarbiyalash jarayonlarining ilmiy asoslari yoritiladi. So‘ngi yillarda klassik hamda post-klassik bo‘lmagan bosqichlarning metodologiyasi ta’lim jarayonini yangicha talqin etish, o‘quvchining kognitiv hamda shaxsiy tarkibini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratishga olib keldi. Shu bilan bir qatorda post-klassik bo‘lmagan bosqichning asosiy tarmog‘i sifatida kognitiv pedagogika vujudga kelib

rivojlanmoqda. Unda klassik xarakterdagi kognitiv pedagogika bilan o‘xshash tarzda ta’lim oluvchilar olamni biluvchi tizim sifatida talqin etilmoqda. Biroq klassik bo‘lmagan tasavvur doirasida mazkur tizim olamni biluvchi tizim sifatida, post-klassik bo‘lmagan yondashuv doirasida avtopoetik tipdagi o‘z o‘zini rivojlantiruvchi tarixiy tizim sifatida, kommunikatsiya tomonidan sinaluvchi, yo‘naltiruvchi, ta’lim muhitida vujudga keluvchi hamda mustaqil tashkil etuvchilik xususiyatini namoyon qiluvchi birlikdir.

Kognitiv pedagogikada o‘z echimini topadigan asosiy masalalar sirasiga nima yordamida ta’lim oluvchilar olamni samarali o‘zlashtirishi, o‘z faoliyatini tashkil etishi, o‘z hayotining munosib tarixini amalga oshiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Ta’lim oluvchilarning samarali kognitiv tizimini qanday qilib rivojlantirish mumkinligini aniqlash kognitiv pedagogikaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Kognitiv pedagogika doirasida o‘quv jarayonining asosiy vazifasi ta’lim oluvchilarning bilish layoqatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish hamda ularning kognitiv jihatdan o‘z faoliyatini samarali tashkil etishi, hayotiy vazifalarni echish uchun zarur bo‘lgan instrumentini yoritishdan iborat. Kognitiv pedagogikada xulq-atvor yo‘nalishidan farqli tarzda ta’lim oluvchilarning bilish strukturasi, uning instrumentiga e’tibor qaratiladi. Ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish va ularni rivojlantirish kommunikatsiya vositasida amalga oshiriladi. Kognitiv pedagogikaning mavjud variantlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning barchasi muayyan darajada deklarativ xarakterga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilar faoliyatini kognitiv tashkil etishga oid klassik nuqtai nazarlar va jarayonlarni o‘rganishdan iborat. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarning psixik srukturasi rivojlanishi haqidagi biologik hamda fiziologik tasavvurlar bilan bevosita bog‘liq. Bunday yondashuvlarda kommunikatsiya jarayonida o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar orasidagi turli tuman xarakterdagi birgalikdagi harakatlarning samaradorligi hisobga olinmagan.

Ta’lim nazariyasi uchun shaxsning rivojlanishi va o‘z o‘zini rivojlantirishi g‘oyasining katta samardorlikka egaligiga qaramasdan, rivojlanish pedagogikasining

klassik, ya’ni kognitiv variantlarida ta’lim oluvchilarning ijodiy konstruksiyalovchilik faoliyati e’tibordan chetda qolgan. Kognitiv yondashuv pedagogik muhitning instrumental sohasiga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Bu nafaqat ta’limning jismoniy hamda ijtimoiy omillari, balki o‘quvchilarning ta’lim muhitida vujudga keladigan ichki faolliklari bilan bog‘liq. Bu o‘quv topshiriqlarni bajarish jarayonida vujudga keladigan maqsadlar va metainsrumentlarni o‘z ichiga oladi.

Metainstrument tushunchasi ostida ta’lim oluvchilarning dinamik, psixik shakllanishi tushunilib, u aniq topshiriqlarni bajarish jarayonida shaxsning psixofiziologik strukturasida vujudga keladi. Ular bosqichma bosqich rivojlanish jarayonida ko‘proq universal insturment sifatida namoyon bo‘ladi. Metainstrument muayyan darajadagi kognitiv layoqatlarning rivojlanish bosqichi bo‘lib, ta’lim oluvchilar bilish tizimining instrumental tavsifini anglatadi. Bu jarayonda muayyan vaziyatda instrumentni baholash imkoniyati vujudga keladi. Bunda avtopoetik tizimlarning bir biriga o‘zaro ta’siri amalga oshadi. O‘quv jarayonini kuzatish asosida ta’limiy muhitning manzarasi shakllanadi. Bu murakkab tarzda tashkil topgan o‘qitish tizimi bo‘lib pedagogikaning ob’ekti hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki kognitiv jarayonlar ta’lim oluvchilar bilish faoliyatining yaxlit tarzda shakllanishini anglatadi. U o‘zida inson psixikasining instrumental hamda mazmun bilan bog‘liq qismlarini mujassamlashtirib, shaxsni shakllanishi va o‘z o‘zini shakllantirishi bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni qo‘llashni talab qiladi.

Kognitiv pedagogika oliy pedagogik ta’lim jarayoni uchun samarali bo‘lib, shaxs kognitiv strukturasini shakllantirishning alohida qismlarini korreksiyalash imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda kognitiv pedagogika talabalarning o‘z faoliyatini tashkil etishi bilan bog‘liq individual imkoniyatlarini va instrumentlarini faollashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayoni talabalarning kognitiv shakllanishini ta’minlovchi o‘ziga xos xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning hayotiy va kasbiy tajribalarini ifodalaydi.

Kognitiv pedagogika doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

1. Talabalar uchun o‘z rivojlanishlari va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishlari etakchi ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ular o‘quv predmetini tanlashda tashabbus ko‘rsatish, o‘quv vaqti va sharoitlarini tanlash, ta’lim dasturlarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Talabalar hayotiy, ijtimoiy, maishiy, kasbiy tajribalarni o‘zlashtiradilar. Bu o‘z navbatida ulardan ta’limning muhim manbai sifatida foydlanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar hamda hulq-atvor, idrok stereotiplariga ega bo‘ladilar.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilar hayotiy kasbiy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallash maqsadida o‘quv faoliyatiga kirishadilar. Bunda ular aniq maqsadlarga erishishni nazarda tutadilar, ular o‘quv maqsadlarini aniq tasavvur qilgan holda pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni egallashga intiladilar.

4. Talabalar o‘quv jarayonida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalari va kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llashga harakat qiladilar.

5. Talabalarning o‘quv faoliyatlari muayyan darajada makon va zamon, maishiy, kasbiy, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda chegaralanadi yoki ta’lim jarayonini faollashtirishga yo‘naltiriladi.

6. Talabalar mustaqil tarzda o‘quv jarayoni va unda erishilgan natijalarni baholaydilar, shu asosda uni takomillashtirish va rivojlantirish haqida takliflar kiritadilar.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida har bir talabaning imkoniyatlarini safarbar etish alohida ahamiyatga ega. Chunonchi: o‘quv jarayonida erishgan shaxsiy muvaffaqiyatlarini his eta olishlari; o‘zlarining individual xususiyatlarini o‘rganish va uni istiqbodagi kasbiy imidjlarini namoyon etadigan model bilan qiyoslay olishlari; ta’lim maussasasida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotchilik faoliyati, madaniy tadbirlar hamda ijtimoiy faoliyatga faol ishtirok etishlari nazarda tutiladi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining tashkil etishning asosiy prinsiplari:

A) mustaqil bilim olishning istiqbolliligi prinsipi. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quv dasturlarini tahlil qilish va tuzishga o‘rgatiladi, o‘quv materiallarini tanlashga oid ko‘nikmalari shakllantiriladi, ta’lim jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan atamalar, tushunchalar, tasniflar, ularni amalga oshirish jarayonlari va texnologiyalariga oid bilimlari rivojlantiriladi.

B) talabalarning mavjud tajribalaridan foydalanish pinsipi hamda ta’lim jarayoni natijalari va amaliy faoliyat ko‘rsatkichlariga talabchanlik bilan yondashish prinsipi. Ushbu prinsip talabalarda amaliy faoliyat ko‘rsatish va bilimlarni qo‘llash ehtiyojining vujudga kelishi bilan bog‘liq.

V) eskirgan bilim va tajribalar hamda kasbiy faoliyatni egallashga to‘sqinlik qiladigan holatlarni korreksiyalash hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish prinsipi. Ushbu prinsip ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar, suhbatlar, eskirgan bilimlardan foydalanish imkonsizligiga talabalarni ishontirish, yangi nuqtai nazarlarni namoyish etish va istiqbolli modellarni taqdimot qilish orqali amalga oshiriladi.

G) talabalarning shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘quv jarayoniga individual yondashish prinsipi. Mazkur prinsip talaba shaxsining ijtimoiy psixologik tavsifi, faoliyati, bo‘sh vaqtning mavjudligi, moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Talabalarga individual yondashishning asosini uning xarkterli jihatlari, fikrlash darajasi, egallagan kasbiy bilimlari va kompetensiyalarining tahlili, talabalar jamoasiga bo‘lgan munosabatning ijtimoiy xususiyatlari tashkil etadi.

D) o‘quv jarayoninig samaradorligini ta’minlash prinsipi. Ushbu prinsip talabalarga maqsadlarni mustaqil tanlash, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, o‘quv jarayoni shakllari, metodlari, manbalari, vositalari, vaqtdan foydalanish, o‘quv faoliyati natijalarini baholashda mustaqillik berish orqali amalga oshiriladi.

Ye) ta’limning tizimliligi prinsipi. Mazkur prinsip ta’lim mazmuni, maqsadi, shakllari, metodlari, vositalari hamda natijalarini baholashni nazarda tutadi.

Yo) ta’lim natijalarini dolzarblashtirish prinsipi. Dasturni o‘zlashtirish maqsadiga erishish, bu eng qisqa vaqt va natijalarni amaliyotda qo‘llashga erishishni nazarda tutish orqali ta’minlanadi.

J) Ta’lim oluvchilarni rivojlantirish prinsipi mustaqil bilim olish, amaliy faoliyat jarayonida yangi natijalarga erishish, o‘z o‘zini namoyon etish, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Shu tariqa ta’lim oluvchilarning idroki va bilimlarni qabul qilishga yo‘naltirilgan pedagogik muhit sub’ektiv reallikning tashkillashtirilgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu murakab xarakterdagi sinergetik jarayondir. Shunga ko‘ra kognitiv jihatdan shakllanish ta’lim oluvchilar bilish faoliyatining yaxlit tarzdagi tarkibini ifodalaydi. U o‘zida shaxs ruhiyatining instrumental hamda mazmunga asoslangan elementlarini mujassamlashtirib, uning bilimlarini o‘z faoliyatida qo‘llashga yo‘naltiradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shuni ta’kidlash kerakki kognitiv pedagogikaning post-klassik bo‘lmagan metodologiyasi o‘quv jarayonida didaktik jihatdan samarali vaziyatlarni tashkil etish imkonini beradi.

1.2. Bo‘lajak o‘qituvchilar bilish jarayonlari va uning instrumentariysini rivojlantirishda kognitiv pedagogikaning imkoniyatlari

Ta’lim tizimi samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etish asosida yangi bilimlarni egallash va metodologiyasini boyitish ustuvor yo‘nalishi doirasida bugungi kunda yuqori sifat va samaradorlikka erishish imkonini beradigan ta’lim mazmuni, o‘qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish, shaxsni kasbiy-madaniy jihatdan shakllantirishga oid falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik bilimlarni uyg‘unlashtirish zaruriyati kuchaymoqda. Bu so‘nggi yillarda Respublikamizda qabul qilingan oliy ta’limni rivojlantirishga oid huquqiy-me’yoriy asoslarda ham o‘z ifodasini topdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda qabul

qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarori, 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi PF-6097-son Farmonlarining ijrosini ta’minlash alohida dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun birinchi navbatda mazkur hujjatlarni amaliyotga joriy etishga xizmat qiladigan nazariy fundamental masalalarni tadqiq etish taqozo qilinadi.

Pedagogik ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning dolzarbligi ta’lim-tarbiya jarayonida an’anaviy yondashuvlar, qarashlar, shablonlarning hamon ustuvor o‘rin egallayotganligi bilan izohlanadi. Shu ma’noda yangi yondashuvlar bilan an’anaviy qarashlar orasida ziddiyatlar mavjud. Chunki an’anaviy ta’lim talablariga ko‘ra ta’lim oluvchilarga hamon jarayon ob’ekti sifatida qaralmoqda. Pedagogik ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda, birinchi navbatda, madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuvga e’tibor qaratish talab etilmoqda.

Kuzatishlarimiz va mavjud o‘quv-metodik majmualarni tahlil qilish, xalqaro tajribalarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunga kelib, pedagogik ta’lim mazmunida ko‘plab eskirgan bilimlar, yondashuvlar, izohlar, o‘zaro muvofiq kelmaydigan tahlillar mavjud. Shuningdek, onlayn didaktika imkoniyatlaridan etarlicha foydalanilmayapti, pedagogika fanidagi so‘nggi yangiliklar, dasturlar, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarda o‘z ifodasini topmagan. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda talaygina eskirib qolgan tushunchalar, ta’riflar uchraydi. Mavjud pedagogik lug‘atlar, ensiklopediyalar bilan o‘quv-metodik majmualardagi ta’riflar, talqinlar, izohlar o‘zaro muvofiq kelmaydi. Pedagogika sohasidagi xalqaro tajribalar,

yondashuvlar, kogritiv pedagogika, falsafiy-pedagogik antropologiya, pedagogik psixologiya, pedagogik sinergetika, pedagogik statistika, ijtimoiy pedagogika, pedagogik prognostika, tashxislash metodikalariga oid ilmiy yondashuvlar pedagogik turkum fanlari mazmunida etarlicha o‘rin egallamagan. Qiyosiy pedagogika hamda pedagogika tarixiga oid bilimlarni boyitish va yangilash ehtiyoji mavjud. Mustaqillik yillarida pedagogika sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari pedagogik ta’lim tizimi uchun yaratilgan o‘quv-metodik majmualar mazmunida etarlicha o‘z ifodasini topmagan. Dasturiy maxsulotlarning nazariy-fundamental asoslari ishlab chiqilmagan. Bularning barchasi pedagogik ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarning yangi loyihalari va maketlarini yaratish, onlayn didaktikaning fundamental asoslarini tadqiq etish, pedagogika turkum fanlari bo‘yicha yaratiladigan dasturiy maxsulotlarning nazariy asoslarini chuqurlashtirish bu sohadagi xalqaro tajribalarni o‘quv-metodik majmualar mazmuniga singdirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bu jarayonda bir qator yondashuvlarning ustivorligiga o‘rin ajratilgan holda pedagogika turkum fanlari mazmuniga yangi bilimlar singdiriladi. Mustaqillik yillarida pedagogika nazariyasi va tarixi sohasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi, yangi metodikalar va texnologiyalar ishlab chiqildi. Biroq ular pedagogika turkum fanlari mazmunida o‘z ifodasini topmay qolmoqda. Pedagogika turkum fanlari mazmunini tanlash prinsiplari, pedagogikaga oid o‘quv materiallarini tizimlashtirishda onlayn didaktikaning imkoniyatlaridan foydalanishda madaniyatshunoslik bilan bir qatorda muayyan yondashuvlarga tayanish nazarda tutilmoqda. Jumladan, madaniy-tarixiy yondashuv ham bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalar ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratilgan madaniy pedagogik qarashlar bilan tanishish, ularni o‘z kasbiy faoliyatlari jarayonida qo‘llashga oid nazariy bilimlar, amaliy tajribalar bilan qurollantiriladilar. Shuningdek, madaniy-tarixiy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning ruhiyatini o‘rganishga oid ko‘nikmalar shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilar xalq

madaniyatini o‘rganish asosida kasbiy ijodkorlik, innovatsiyalarga moyillik, uni qo‘llashga intilish kabi kasbiy sifatlarni ham egallashga muvaffaq bo‘ladilar. Ushbu yondashuv doirasida interiorizatsiya ya’ni, ijtimoiy-madaniy tajribani taqdim etish usullarini o‘zlashtirish mahoratini ham shakllantirish nazarda tutiladi. Bunday faoliyatning natijasi ta’lim oluvchilarga madaniy qadriyatlarni taqdim etishda namoyon bo‘ladi. Bunda psixik jarayonlar madaniylashadi.

Bugungi kunga kelib ta’lim jarayoni madaniy jarayon maqomiga ega bo‘lishi kerak:

- madaniy merosni egallash, ta’limiy qadriyatlarning rivojlanishi va muntazam yangilanishini ta’minlash;
- avlodlar orasidagi aloqadorlikni vujudga keltirish va uning rivojlanishiga erishish, jamiyat hayoti bilan muvofiqlashtirish;
- ta’lim muassasasida shaxs ijtimoiy faoliyatining madaniy sohalarini vujudga keltirish;
- insonning ijtimoiy faoliyati va o‘z-o‘zini namoyon qilishi uchun ta’lim muassasasida madaniy muhit yaratish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarning huquqlarini ta’minlash asosida ta’lim muassasasida shaxsning individualligini ta’minlash uchun qulay sharoit yaratish kabi masalalar pedagogika turkum fanlari mazmunida o‘z ifodasini topadi.

Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- ta’lim maqsadiga erishish uchun milliy madaniyatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ta’lim mazmunida madaniyatshunoslikka asoslangan tarkibiy qismlarni ko‘paytirish;
- pedagogik texnologiyalar doirasida madaniy qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari, madaniyatga oid bilimlarni tizimlashtirishga erishish;
- ta’lim jarayonida madaniyatshunoslikka asoslangan muhit yaratishning didaktik imkoniyatlarini ishlab chiqish;

- ta’lim muassasalarida madaniyatshunoslikka asoslangan muhitni samarali tashkil etish va boshqarish uchun korporativ hamda tashkilotchilik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning axborotlar bilan ishlash funksiyasini rivojlantirish maqsadi madaniyatshunoslikka asoslangan tahlil bilan bevosita bog‘liq. Bu talabalarning madaniy dunyoqarashiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik qadriyatlarning madaniyat bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilishga o‘rgatish nazarda tutiladi. O‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyoti davomida erishgan madaniy yutuqlardan bo‘lajak o‘qituvchilarni xabardor qilishning didaktik imkoniyatlari belgilab beriladi.

Madaniyatshunoslikka asoslangan tahlil ijtimoiy-madaniy axborotlarni izlash va qayta ishlash vositasi bo‘lib, o‘qituvchining shaxsiy informatsion bilimlari ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Pedagogning lug‘at boyligini kengaytirib, moddiy borliq manzarasini boyitishga ko‘maklashadi.

Madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuvning rivojlantiruvchilik funksiyasi talabalarning bilish layoqatlarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu funksiyani rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Ma’lumki, ta’lim oluvchilarning aqliy harakatlarini rivojlantirish natijasidagina, ta’lim rivojlantiruvchi xarakter kasb etadi. Pedagogik ta’lim mazmunida talabalarning aqliy harakatlarini rivojlantiruvchi vositalarga alohida o‘rin ajratiladi.

Madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuv doirasida professor-o‘qituvchilar talabalarning bilishga asoslangan aqliy harakatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jumladan:

- turli madaniy hodisalar, dalillarni bilish va tasniflash;
- ijtimoiy-madaniy hodisalarning umumiy hamda farqli jihatlarini ajratish va o‘zaro qiyoslash;
- madaniyat ob’ektlaridagi axloqiy-estetik holatlarni aniqlash va tasvirlash;

- ijtimoiy-madaniy axborotlarni izlash bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirish;
- ijtimoiy-madaniy muammolarni farqlay olish va baholashga oid o‘quv topshiriqlar taqdim etiladi.

Ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuv didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa muntazam o‘zagaruvchi ijtimoiy-madaniy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarning keng ko‘lamli shaxsiy-kasbiy, ijtimoiy-pedagogik faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun zamin hozirlaydi. Bu jihatdan kognitiv pedagogikaga oid yondashuvlarga tayanish natijasida mavjud imkoniyatlar kengaytiriladi.

Kognitiv pedagogikada qo‘llaniladigan asosiy metodlardan biri kvazi tadqiqotchilik metodidir. Bugungi kunda kvazi metodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar talabaning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini shakllantirishda ushbu metoddan foydalanish alohida samaradorlikka erishish imkonini beradi. Chunki kvazi metodi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy muammolarni echish ko‘nikmalarini faollashtirish, bilimlarni o‘zlashtirish, turli hayotiy vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilish layoqatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kvazi (angl. quasi-exploratory activity) – “izlanish, tadqiqotchilik faoliyati”ni rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsning imkoniyatlarini namoyon etuvchi ta’lim metodi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlashtirgan bilimlari, kasbiy tafakkurlari yordamida bosqichma-bosqich pedagogik muammolarni tadqiq qilish ko‘nikmasini egallaydilar. Bu jarayonda kvazi metodi katta imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda butun dunyoda ta’lim jarayoni va uning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan pedagogik izlanishlarning ko‘lami kengaymoqda. Kognitiv pedagogikaga oid, aksariyat, pedagogik nazariyalar madaniyatshunoslik, aksiologik, akmeologik, faoliyatli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishni nazarda tutgan holda amalga oshirilmoqda. Chunki mazkur yondashuvlar, birinchi

navbatda, insonning ko‘pmadaniyatli jamiyatda yashab faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy bilimlarni egallash maydonini kengaytirish kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayonni tashkil etishda, birinchi navbatda, madaniyatshunoslik va akmeolgik yondashuvga tayanishni talab qiladi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-biluv ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy hamda tayanch kompetensiyalarni egallash motivlarini faollashtirishga alohida e’tibor qaratish, o‘quvchilar hamda kasbdoshlari bilan amalga oshiriladigan dialogik munosabatlarga madaniy jarayon sifatida yondashishlari uchun stimul hosil qilishga e’tibor qaratish talab qilinmoqda. Kasbiy bilimlarning shaxs taraqqiyotini ta’minlashi natijasida bo‘lajak mutaxassislar kasbiy mahorat – akme hamda pedagogik madaniyat me’yorlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilarki, ushbu bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarda o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy tajribasi mujassamlashgan bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahorat – akme va kasbiy madaniyat sirlarini o‘rganishlariga ta’sir ko‘rsatadigan omillar, shart-sharoitlar mavjud. Bular sirasiga

- ko‘p asrlik madaniy pedagogik tajribalar;
- jahon miqyosida sinovdan o‘tgan va amaliyotda o‘zini oqlagan xalqaro pedagogik tadqiqotlarning natijalari;
- kognitiv texnologiyalar va yondashuvlarni ko‘rsatish mumkin.

Madaniyatshunoslik va akmeologik yondashuvlar doirasida, birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy tafakkur rivojlantiriladi. Chunki kasbiy tafakkur pedagogning barcha harakatlari, g‘oyalari, bilimlarini rivojlantiruvchi, tartibga soluvchi va kompetensiyasi sifatida namoyon qiluvchi, madaniy pedagogik faoliyatga turtki beruvchi xodisadir.

Insoniyat o‘zining butun ongli faoliyati davomida o‘qituvchning pedagogik tafakkurini rivojlantirishning fundamental asoslarini yaratishga harakat qilgan. Mazkur fundamental asoslarning ilk ildizlari eramizdan oldingi yunon faylasuflari tomonidan

yaratilgan bo‘lsa, Avesto, Qur’oni Karim, Hadislar va Sharq pedagogik tafakkurining ifodasi bo‘lgan durdona asarlarda mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan muayyan darajada rivojlantirilgan. Zero, shaxsning kasbiy kamoloti, uning fikrlash darajasi, ya’ni, kasbiy tafakkurida o‘z ifodasini topadi. Bugungi kunga kelib jahondagi kasbiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda kasbiy pedagogik tafakkurning taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadigan kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayon sifatida qarab, uni takomillashtirishga harakat qilinmoqda.

Pedagogik tafakkur rivojlangan ilg‘or mamlakatlarning ta’lim tizimi yangi paradigmalarga o‘tganligi bilan xarakteralanadi. Shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkuri yangi madaniy-pedagogik jarayonda rivojlanadi, mazkur jarayonda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy mahorat – akmeni egallashi uchun qulay ta’limiy muhit va pedagogik jarayonni tashkil etish talab qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik tafakkurini rivojlantirish konsepsiyasini yaratish g‘oyasini amalga oshirish zaruriyati kuchaymoqda. Shaxsning kasbiy taraqqiyoti, ya’ni, pedagogik akmeni egallashi, unda kasbiy tafakkurning rivojlanishi va pedagogik bilimlar yordamida dinamik ravishda takomillashuvi bilan bevosita bog‘liq.

Kasbiy pedagogik tafakkur pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini belgilaydi. Mazkur faoliyatning uzluksiz tarzda rivojlanishi bir qator pedagogik omillarga bog‘liq. Ushbu omillar va pedagogik shart-sharoitlar:

- bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy tafakkurining zamonaviy bilimlar, yondashuvlar yordamida rivojlantirilishi;

- bo‘lajak o‘qituvchi bilish harakatlari, usullaridan foydalanishining qo‘llab-quvvatlanishi;

- raqamli pedagogik vositalarning o‘quv jarayoniga samarali tatbiq etilishi;

- boy ma’naviy pedagogik arsenalidan o‘quv jarayonida maqsadga muvofiq tarzda foydalanalishi;

- kasbiy pedagogik bilimlarning bo‘lajak o‘qituvchi ijtimoiy pedagogik ongiga singdirilishiga erishilishini ta’minlash maqsadining madaniy xarakterga ega bo‘lgan amaliy-akmeologik xarakterga ega bo‘lgan pedagogik muhitning yaratilishi kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tafakkuri o‘zining rivojlanish darajalariga egaligi bilan harakterlanadi. Shuning uchun ham talabalar o‘zlarini qiziqtirgan kasbiy bilimlarini evristik metodlar, raqamli pedagogik texnologiyalar yordamida izlab topish, o‘zlashtirish va kasbiy kompetensiyalar shaklida namoyon qilishga erishadilar. Kasbiy qiziqishlar va ehtiyojlar pedagogik tafakkur yordamida kasbiy rivojlanish motivlariga aylanadi. Mazkur motivlar bo‘lajak o‘qituvchning kasbiy faoliyat tajribasini egallash asosida uzluksiz rivojlanishga undaydi. Agar bo‘lajak o‘qituvchida pedagogik tafakkur etarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, kasbiy bilimlar uning ijtimoiy tajribasiga aynamasdan qolib ketadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurning shakllanishida xissiy bilish, intuitsiya, idrok, sezgilar ham alohida ta’sir kuchiga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik hodisalarning mazmun-mohiyati, nazariy asoslari, rivojlanish dinamikasini pedagogik nuqtai nazardan yondashgan holda anglab etishlari uchun xissiy bilish, intuitsiya, idrok va induktiv, deduktiv fikrlash faoliyati yaqindan ko‘maklashadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning etuklik – akmeni egallashlari uchun kasbiy tasavvurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkuri kasbiy bilimlarni ratsional bilish natijasida vujudga keladi. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik tafakkuri nazariy bilimlarni ratsional o‘zlashatrish mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham pedagogik tafakkur huddi mana shu o‘zlashtirilgan kasbiy axborotlar va pedagogik nazariyalarga tayanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar fikriy faollik ko‘rsatishlari natijasida insoniyat tomonidan yaratilgan mahsuldor pedagogik ta’limotlar, nazariyalar, metodlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish, ularni kasbiy faoliyatlari davomida qo‘llashga muvaffaq bo‘ladilar. Buning uchun birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini tizimli tarzda rivojlantirish mexanizmlarini yaratish talab qilinmoqda. Mazkur jarayonda madaniyatshunoslik, akmeologik va kognitiv yondashuvlarga ustuvorlik

berish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar fikriy faollik ko‘rsatish natijasida ta’lim jarayonidagi pedagogik voqelikni refleksiyalash va munosib baholash layoqatiga ega bo‘ladilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish uchun ularni aqliy va hissiy bilish usullaridan muayyan izchillikda foydalanishga tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilish bosqichlarida tadrijiy tarzda amalga oshiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik jarayon mohiyatini anglash darajasi ularda pedagogik tafakkurning qay darajada shakllanganligiga bevosita bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy bilimlarni hissiy qabul qilish natijasida jonli mushohada yuritishga muvaffaq bo‘ladilar. Aqliy bilish faoliyatining rivojlanishi natijasida esa pedagogika turkum fanlari hamda pedagogik psixologiyaga oid ilmiy tushunchalar va nazariy ma’lumotlarni har tomonlama puxta o‘zlashtirishga erishadilar. Umuman olganda bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni tizimli tarzda rivojlantirishda aqliy, hissiy hamda emperik bilishning imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish nazarda tutilishi lozim. Ayniqsa, nazariy bilish, ya’ni, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik tafakkurini boyitish imkoniyatlari kengayadi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar farazlarni ilgari surish, abstraksiyalash layoqatiga ega bo‘ladilar. Aqliy faoliyat operatsiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini chuqurlashtirib pedagogik mahorat – akmeni egallashlarini jaddallashtiradi. Nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat tajribasini uyg‘unlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish imkoniyati vujudga keladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatga oid muayyan ko‘nikmalar tarkib topadi. Talabalar kasbiy bilimlar, ma’lumotlarni mantiqiy tahlil qilib, ularning ahamiyatini anglashga muvaffaq bo‘ladilar.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri innovatsion yondashuvlar va zamonaviy bilimlar, raqamli texnologiyalarni o‘z ichiga olgan o‘quv modullari, kognitiv bloklar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik

tafakkurni shakllantirishdan iborat. Chunki pedagogik tafakkur bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatida hissiy bilish, amaliy faoliyat ko‘rsatish va nazariy fikrlash birligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ma’lumki, pedagogik tafakkur bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tafakkurini turli bosqichlarda o‘ziga xos tarzda rivojlantirish imkoniyatiga ega. Buning uchun, birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilar atrofida mahsuldor ijodiy-intellektual muhit yaratishni nazarda tutish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Turli o‘quv operatsiyalarni bajarish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlarga murojaat qiladilar. Natijada talabalarda pedagogik tafakkur rivojlanishi kuzatilib tahliliy faoliyat ko‘rsatish, farazlarni ilgari surish mantiqiy jihatdan asoslangan kasbiy xulosalar chiqarish faoliyat algoritmlarini qo‘llash pedagogik vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasi jadal rivojlanadi. Bu esa istiqbolda ta’lim jarayonini pedagogik ijodkorlik salohiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar bilan ta’minlash iqtidorli mutaxassislarning “Oltin fondi”ni yaratish imkonini beradi. Buning uchun kreativ pedagogik jarayonlarda bo‘lajak o‘qituvchilar muayyan kasbiy xodisalar mohiyatini chuqur anglagan holda nostandart qarorlar qabul qilish, pedagogik bilimlarni loyihalash, mavjud tajribalarni tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishda dastlab ularning intellektual sohalarini faollashtirishga e’tibor qaratishni nazarda tutish tavsiya etiladi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish motivlarini o‘rganish talab etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishda reflksiyalash faoliyati katta ahamiyatga ega. Talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishda analitik fikrlash faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida professor-o‘qituvchilar talabalarning analitik-tahliliy faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari talab etiladi. Professor-o‘qituvchilar pedagogik jarayonlarda kognitiv, evristik, tashkiliy-faoliyatli, pragmatik, muammoli topshiriqlarni muayyan izchillikda talabalarga taqdim etishlari maqsadga muvofiq. Bunday topshiriqlar talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirib, ularning kasbiy bilimlarini faollashtirishga xizmat

qiladi. Taqdim etilgan pedagogik bilimlar bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy jihatdan rivojlantirish xarakterga ega bo‘lishi uchun kognitiv topshiriqlar va kognitiv texnologiyalardan foydalanish alohida amaliy, estetik, aksiologik ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlar va texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishda ularning kasbiy bilimlarini faollashtirib kompetensiyalarga aylantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishda mustaqil bilim olish hamda pedagogik amaliyot ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan kasbiy bilimlar pedagogik amaliyot davomida faollashadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogik bilimlarni tizimli, rivojlantiruvchi-kognitiv xarakter kasb etishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabat, o‘quvchilar jamoasini shakllantirish, unga rahbarlik qilish, liderlarni, noyob iqtidorlarni kashf etishga yo‘naltirilgan kasbiy tafakkurni shakllantirish ham muhim hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda topshiriqlarni bajarishga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish nihoyatda zaurur hisoblanadi. Professor-o‘qituvchilar har bir talabaning pedagogik tafakkurini rivojlantirish traektoriyasini aniq belgilab berishlari muhim. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish traektoriyasini belgilashda professor-o‘qituvchilar ulardagi o‘quv-biluv faolligining mavjud darajasini aniq hisobga olishlari talab etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy bilimlarni mustaqil izlab topish, o‘zlashtirish va qo‘llash faolligini shakllantirish uchun, avvalambor, ulardagi o‘quv-biluv motivlarini rivojlantirish talab etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilardagi kasbiy bilimlarni faollashtirish motivlarini rivojlantirish uchun ularda qat’iyatlilik, hozirjavoblik, qo‘yilgan maqsad sari intilish kabi sifatlarni shakllantirish, buning uchun professor-o‘qituvchilar talabalarni faollashtirish, tushuntirish, zarur ma’lumotlarni qidirib topishga o‘rgatish kabi metodlardan o‘z o‘rnida foydalanishlari kerak. Professor-o‘qituvchilar talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan motivlarni rivojlantirishda ular uchun qiziqirli mavzularda evristik suhbatlar

tashkil etish, kasbiy ijodiy faoliyat tajribasini namoyon qilishlari uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutishlari muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar mahsuldor, birinchi navbatda o‘z pedagogik faoliyatlari mohiyatlarini chuqur anglab etishlari lozim. Shundagina bo‘lajak o‘qituvchilar mahsuldor evristik, refleksiv faoliyat tajribasiga ega bo‘ladilar. Refleksiv faoliyat tajribasiga ega bo‘lish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv, emotsional, irodaviy, motivli sohasini rivojlantirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Buning uchun pedagogik jarayonlarni pedagogik psixologiyaga oid yangi yondashuvlarni qo‘llagan holda tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy, pedagogik tafakkurni rivojlantirishda kvazi-metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kundagi ijtimoiy-madaniy rivojlanish ta’lim jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va ijtimoiylashtirishda ham madaniyatshunoslik hamda kognitiv yondashuvga ustivorlik berish zaruriyati kuchaymoqda. Ma’lumki butun dunyodagi ilmiy pedagogik jamoatchilik texnologiyalar taraqqiyotining to‘rtinchi davrini boshlab berishga muvaffaq bo‘ldi. Bunday vaziyatda ilm-fan va inson kapitali hamda ta’lim jarayoni alohida ahamiyatga ega bo‘lgan rivojlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa O‘zbekiston jamiyatining madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy qiyofasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda kreativ xarakterdagi ijobiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Ta’lim tizimi bunday muhitda samarali faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassislarni tayyorlashda etakchi o‘rin egallaydi. Bu dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda turli darajada vujudga kelayotgan madaniy-gumanitar, ijtimoiy, texnik va texnologik o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bugungi kunda dunyoda vujudga kelayotgan, aksariyat, madaniy-ijtimoiy, texnologik o‘zgarishlar innovatsion xarakterga ega bo‘lib, ularning analogi mavjud emas. Shu bilan bir qatorda ushbu o‘zgarishlar shaxsning ijtimoiylashuvi va qadriyatlarni egallash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda mazkur

o‘zgarishlarni hisobga olish talab qilinmoqda. Biz quyida ijtimoiy-madaniy, ilmiy, texnologik innovatsiyalar va trendlarni bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga ko‘rsatadigan ta’siri ustida imkon qadar batafsil fikr yuritishga harakat qildik.

1. Ta’lim jarayonining ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiyalar, internet bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minlash va ushbu vositalarning bo‘lajak o‘qituvchilar madaniy-ijtimoiy, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga ko‘rsatadigan ta’sirini aniq hisobga olish. Chunki ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda talabalar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, qo‘rquv soladigan axborotlar bilan to‘la. Shuningdek, “ommaviy madaniyat” va “margonal madaniyat” avvalo o‘quvchi hamda talaba-yoshlarni nishonga olmoqda. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z madaniy-ijtimoiy faoliyatini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirishga bo‘lgan intilishi dolzarblashmoqda. Chunki bunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo madaniy munosabatga kirishish, jamiyatda uchraydigan salbiy holatlar va ommaviy madaniy xurujlarga qarshi murosasizlik, bir birini qo‘llab quvvatlash va ishchan muloqot ko‘nikmalarini tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv talabalar xulq-atvorida ijobiy xarakterdagi sifatlar, madaniy xatti-harakatlarning ko‘proq darajada namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu o‘rinda ta’lim jarayoni va ilm-fan talabalarning qaysi madaniy modellar, konsepsiyalar va qadriyatlarga tayanishi lozimligini ko‘rsatib berishi talab etiladi. U ta’lim oluvchilar faoliyatidagi madaniy bo‘shliqlarni to‘ldirish, kasbiy mahorart – akmeni shakllantirish hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanish imkoniyatlarini taqdim etish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aynan ushbu mexanizm orqali bo‘lajak pedagoglar o‘zlari uchun yaqin bo‘lgan refleksiv muhitni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Chunki ilm-fan va ta’lim mexanizm sifatida talabalarning bilimlarini kengaytirib, bilish jarayonlarini jadallashtiradi. Ularning maxsuldor rejalari, orzu-umidlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham ta’limning asosiy funksiyasi ilmiy jihatdan asoslangan va tanlangan mexanizmlar, texnologiyalar yordamida talabalarni

nostantdart qarorlar qabul qilishga o‘rgatishdan iborat. Ular sifatli ta’lim olish natijasida o‘z rejalari va intilishlarini turli darajalarda amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladilar.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ilmiy g‘oyalardan va nazariy yondashuvlardan real madaniy muhitda kreativ faoliyat tajribasini shakllantirishga o‘tish zaruriyati bugungi kunda har qachongidan ham kuchaymoqda. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kognitiv va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Madaniyatshunoslik yonndashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarda 21 asr ko‘nikmalarini shakllantirishda tayanch asos vazifasini o‘taydi. Bugungi yoshlarning ko‘pkina harakatlari, intilishlari madaniy modellar va konsepsiyalar bilan bog‘liq holda vujudga kelmoqda. Aksariyat, hollarda bu jarayonga “ommaviy madaniyat” va “margonal madaniyat” hurujlari o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilar sog‘lom madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgandagina o‘quvchilarni ushbu hurujlardan muvaffaqiyatli himoya qilish kompetensiyasini namoyon eta oladilar. Chunki “ommaviy madaniyat” yosh avlodda ommaviy ongni shakllantirishga asos bo‘lmoqda. Yengil-yelpi asarlar, san’at namunalari, shou-biznes namoyondalari yoshlarda ommaviy ongni shakllantirishga hissa qo‘shmoqdalar. Bu esa ularda o‘tmishga nisbatan bepisandlik, haqiqiy madaniyat namunalarini mensimaslik, ularga loqaydlik bilan qarash kabi sifatlarning shakllanishiga asos bo‘lmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilar yosh avlodda yaratuvchilik kayfiyatini shakllantirish mexanizmlarini puxta o‘zlashtirishlari kerak. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar STEM-ta’lim, raqamli texnologiyalar, rabototexnika bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashlari, o‘quvchilarni ham ularga qiziqtirishga oid bilimlar bilan qurollangan bo‘lishlari talab etiladi. O‘quvchi-yoshlarni texnika va texnologiyalarga qiziqtirish bilan bir qatorda ularda shaxsiy sifatlar, kreativlikni shakllantirish, jamoa bo‘lib ishlash, liderlik, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish metodlarini ham o‘zlashtirishlari alohida ahamiyatga ega. Fanlararo va sohalararo ko‘nikmalarni shakllantirishga oid

yondashuvlar STEM-ta’lim, ta’limiy rabotatexnika oliy pedagogik ta’lim mazmunida o‘ziga xos o‘rin egallashi kerak. Oliy pedagogik ta’lim sohasidagi xalqaro hamda milliy, tarixiy tajribalar o‘quv jarayoniga yangi yondashuvlar va yo‘nalishlarni tatbiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Buning uchun birinchi navbatda o‘quv hamda ijtimoiy tarbiya jarayonlarini samarali uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fanlar va sohalararo aloqadorlikni ta’minlash, o‘quv loyihalari va startaplarni muvaffaqiyatli integratsiyalash, talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish oliy pedagogik ta’lim jarayoniga evristikani keng ko‘lamda tatbiq etish natijasida uning sifatini ta’minlash mumkin. Bu o‘z navbatida oliy pedagogik ta’lim muassasalariga mikrosotsium hamda umumiy o‘rta ta’lim, professional ta’lim muassasalari bilan samarali hamkorlik o‘rnatish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar esa o‘z navbatida yuqori sifatli kasbiy ta’lim olish hamda shaxsiy rivojlanishga muvaffaq bo‘ladilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi bunday integratsiya talabalarga nafaqat kasbiy ta’lim olish balki, har tomonlama o‘qib o‘rganish ko‘p qirrali ijtimoiy hamda kasbiy tajribani o‘zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Innovatsion maktablar uchun o‘qituvchilar tayyorlashga ixtisoslashgan ta’lim modeli raqamli transformatsiyalar sharoitida aynan ta’lim jarayonining o‘ziga xos innovatsiya sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlamoqda. Ushbu model ta’lim-tadqiqot-loyihalar-innovatsiyalarni kreativ o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday oliy pedagogik ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy sohalar va fanlararo hayotiy ko‘nikmalar va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Ushbu kompetensiyalar o‘z tarkibiga bir tomondan moddiy borliq, raqamli texnologiyalar, milliy va umuminsoniy madaniyat, odam va olam haqidagi fundamental bilimlar, ikkinchi tomondan esa talabalar tafakkurining moslashuvchanligi, tanqidiy xarakterga egaligi, kreativligi, yangi bilimlarni generatsiyalash layoqatining rivojlanishi, mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladigan kognitiv bilimlarni o‘z ichiga

oladi. Bo‘lajak o‘qituvchida shakllantiriladigan ushbu sifatlar madaniy, ma’naviy yuksalish sharoitida ularning raqobatbardoshliligini ta’minlaydi.

Internet va sun’iy intellektning rivojlanishi shaxsning mustaqilligi va tabiyligiga ma’lum darajada putur etkazmoqda. Axborotlar oqimi tobora kuchayayotgan hozrigi sharoitda talabalarning ongli tanlovni amalga oshirishlari uchun ularda mantiqiy, mustaqil, tanqidiy fikrlash, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olish, xatti-harakatlarni amalga oshirishda madaniy modellar va konsepsiyalarga tayanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish, milliy mintalitetimizga xos bo‘lgan sifatlarni namoyon etish ko‘nikmasini o‘zlashtirish alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, talabalarning tanqidiy fikrlash asosida tanlovlarni amalga oshirishlari raqamli texnologiyalar, texnik, texnologik taraqqiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gumanitar-texnologik revolyusiyalar ro‘y berayotgan hozirgi sharoitda talabalarning istiqbolli qadriyatlar va ilmiy yondashuvlarni tanlashlari, ularning individual o‘ziga xos sifatlar, ichki mustaqillikka ega bo‘lishlari, mahsuldor xulq-atvor modellarini egallashlari O‘zbekiston jamiyatining madaniy-ma’naviy qiyofasini namoyon etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan bog‘liq holda oliy pedagogik ta’lim tizimida amalga oshiriladigan o‘quv jarayoni ta’lim oluvchilarda nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar balki, XXI-asr ko‘nikmalari, hayotiy komptensiyalar, yangi sharoitlarda hayotiy faoliyatni amalga oshirishga ko‘maklashadigan layoqatlarni ham talab qilmoqda. Bunday kompetensiyalar sirasiga tanqidiy tafakkur, kreativ, refliksiv, emotsioanl ko‘nikmalarni kiritish mumkin. Ular o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning mikrosotsioumda munosib o‘rin egallashlariga ko‘makalashadi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kognitiv va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida tashkil etishda o‘qitish metodlari qo‘yilgan vazifalarga muvofiq kelishini ta’minlash zarur hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ta’lim sohalari va o‘quv predmetlari orasidagi integratsiya ham barqaror rivojlanish g‘oyasini amalga oshirishning muhim shartidir. Chunki bunday integratsiya natijasida talabalarda XXI- asr ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar oliy ta’lim muassasasini

bitirish arafasida kompetensiyalar majmuini egallashlari nazarda tutiladi. Ularda ta’lim sohalari va o‘quv predmetlariaro hamda kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida murakkab, tizimli xarakterga ega bo‘lgan pedagogik muammolarni echish ko‘nikmalari tarkib topadi. Buning uchun talabalar pedagogik bilimlar bilan bir qatorda jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirishlari lozim. Jumladan, madaniy modellarni qiyoslash va farqlash, jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan shaxslararo munosabatlarni sog‘lomlashtiruvchi prinsiplar, mazkur munosabatlarni madaniy darajaga ko‘tarishga xizmat qiladigan ilmiy ma’lumotlar, jamiyatning uzoq va yaqin istiqboldagi taraqqiyotini ta’minlovchi bilimlar, ularni tatbiq etishga oid amaliy harakatlar, tamoyillar va yondashuvlarni puxta o‘zlashtirishlari lozim. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning murakkab tizimli tafakkuri, istiqboldagi mahsuldor pedagogik faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltirilishini ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta’lim sohasida muayyan yutuqlarga erishilayotganligiga qaramasdan bir qator muammolar ham mavjudligini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Oliy pedagogik ta’lim mazmuni hamon akademik xarakterga ega bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va real pedagogik muhitdan bir qadar uzilib qolganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan bir qatorda o‘quv materiallari mazmunida pedagogik ta’riflar, qoidalar, formulalar hamon ustivorlik qilmoqda. Ularni talabalar faoliyatiga singdirish mexanizmi esa etarlicha ishlab chiqilmagan. Talabalarning sohalar va fanlararo bilimlari etarli emas. Buning asosiy sabablaridan biri har bir o‘quv fanining mazmuni yopiq xarakterga ega. Talabalar darslarda amalga oshiradigan o‘quv harakatlari real voqelik bilan bog‘lanmagan. Ular aniq muammolarni o‘zlarida mavjud bo‘lgan, etarlicha shakllanmagan va nazariy ma’lumotlar bilan boyitilmagan tajribalarga tayangan holda echishga harakat qiladilar. Chunki talabalarning oliy pedagogik ta’lim jarayonida egallagan bilimlari bilan hayotiy tajribalari etarlicha uyg‘unlashmagan. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta’lim jarayonini real pedagogik

voqelik bilan bog‘lash zarurati kuchaymoqda. Bu sohada 4+2 modeli asosida dastlabki mahsuldor qadam qo‘yildi. Boshqa bir tomondan esa kompleks xarakterdagi kasbiy bilimlar o‘quv rejasi tarkibiga kirgan alohida o‘quv fanlari tarkibida qismlarga bo‘lingan holda talabalarga taqdim etiladi. Pedagogik bilimlar orasidagi aloqadorlik kamdan-kam holatlarda o‘quv predmetlari tarkibidan tashqarida amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta’lim jarayonida aloqadorlik hamda integratsiyani ta’minlash bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bugungi kunda ta’lim iqtisodiy, rivojlanish, ijtimoiy, madaniy barqarorlik, ma’naviy intellektual yuksalish, fuqarolik jamiyati hamda yoshlarda pozitiv dunyoqarashning rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida oliy pedagogik ta’lim oldiga bir qator maqsadlar belgilab qo‘yildi. Chunonchi, “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalari tashkiliy boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash” nazarda tutilgan.

Bu o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni bilimga asoslagan mikrosotsiumda munosib faoliyat ko‘rsatishga tayyorlash imkonini beradi. Yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlashda oliy pedagogik ta’lim muassasalari muhim o‘rin egallaydi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalari va professor-o‘qituvchilari turli ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilib pedagogik amaliyot orqali o‘zlashtirgan kasbiy bilimlari va kompetensiyalarini sinovdan o‘tkazadilar. Professor-o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalovchi asosiy sub’ekt sifatida o‘quv tarbiya jarayoniga kognitiv xarakterdagi innovatsion mexanizmlar va modellarni tatbiq etadilar, aksariyat, hollarda esa ularni ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ladilar. Professor-o‘qituvchilar va talabalar birgalikda oliy pedagogik ta’lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladigan innovatsiyalar ustida izlanishlarni amalga oshrishlari taqozo etilmoqda. Ular ta’lim-tarbiyaga oid yangi bilimlarni izlab topadilar, boyitadilar, shu asosda innovatsion xarakterdagi ta’lim amaliyotini vujudga keltiradilar. Oliy pedagogik

ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni uchun innovatsion pedagogik amaliyotga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi yanada dolzarblashmoqda. Oliy pedagogik ta’lim taraqqiyotiga bir qator omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday omillar sirasiga birinchi navbatda, madaniy hamda iqtisodiy omillarni ko‘rsatish mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda jamiyat ehtiyojlarga asoslangan ijtimoiy buyurtmani hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda pedagogik ta’lim jarayonida har bir shaxsning betakrorligi, o‘ziga xos iqtidorga egaligini tan olish talab etilmoqda. Bunday sifatga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar jamiyat va uning a’zolari taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishga tayyor bo‘ladilar. Bu shuni anglatadiki, pedagogik ta’limni yaxlit tarzda kognitiv hamda qadriyatli yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi shunday sifatlarga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida kasbiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning innovatsion xarakterdagi dasturlarni ishlab chiqish ehtiyoji tobora kuchaymoqda. Ushbu dasturlar o‘zida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning makro hamda mikro mazmunini mujassamlashtirishi lozim. Bunda asosiy e’tibor bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini mobillashtirish, ular tarkibiga XXI-asr ko‘nikmalarini tizimli tarzda singdirishga qaratiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashdan asosiy maqsad ularning kasbiy tafakkuri va kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari tushunchasi doirasiga kasbiy muammolar va kasbiy vazifalarni echish imkonini beradigan integral bilimlar, XXI-asr ko‘nikmalari kasbiy mahorat – akmeni namoyon etadigan malakalar va amaliy tajribalarni o‘zida mujassamlashtirgan pedagogik hodisa tushuniladi. Shu bilan bir qatorda kasbiy kompetensiya, bilimlar, kasbiy tajribalar, qadriyatlar va motivlardan zarur vaziyatlarda foydalanishni ham anglatadi. Mazkur kontekstda layoqatlar ko‘nikma sifatida namoyon bo‘ladi va anglanadi. Bu bo‘lajak o‘qituvchining muayyan kasbiy vazifani bajara olish va bajarish layoqatini ko‘rsatadi.

Layoqatlar – individual psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, shaxsning sifatlari va o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Bu esa pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Mutaxassisning kompetentliligi, uning amaliy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi esa pedagogik vazifalarni echa olish darajasida namoyon bo‘la oladi. Buning uchun o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni namoyon bo‘ilishini ta’minlaydigan pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish talab etiladi. Kasbiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchiing o‘zlashtirigan qadriyatlari bilan uyg‘un tarzda ifodalanadi. Kasbiy kompetensiyalar bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy rivojlanishidan manfaatdor bo‘lganda, unda kasbiy rivojlanish motivlari shakllangandagina namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash maqsadlaridan kelib chiqqan holda kasbiy rivojlanish jarayonlarida o‘qituvchilik faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilimlar va faoliyat usullarini o‘zlashtirish zaruriyati kuchaymoqda. Kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar kelajakda o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirish, kasbiy mahorat cho‘qqisi – akmeni egallashga intiladi. U istiqboldagi o‘zgarishlarni ko‘rish, mustaqil bilim olish imkoniyatlarini izlashga muvaffaq bo‘ladi. Kasbiy kompetensiyalar mavjud pedagogik jarayonda shakllantirilib istiqbolda qo‘llashga yo‘naltiriladi. Kasbiy kompetensiyalar o‘z tarkibiga tayanch, asosiy hamda maxsus kompetensiyalarni mujassamlashtiradi.

Tayanch kompetensiyalar har qanday faoliyat uchun zarur bo‘lib, talabalarning jadal rivojlanayotgan ijtimoiy madaniy muhitga osongina moslashishlari va samarali faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlaydi. Tayanch kompetensiyalar insonning rivojlanishida alohida ahamiyaga ega. Ular birinchi navbatda, axborotlar, kommunikatsiya, fuqarolik jamiyatida shaxsning faol harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy huquqiy bilimlarga tayangan holda pedagogik topshiriqlarni bajarishlari jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Asosiy kompetensiyalar o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlshaga ko‘maklashadi. Kasbiy pedagogik faoliyat uchun asosiy kompetensiyalar

jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmani bajarish uchun zarur bo‘lgan pedagogik faoliyat tajribasini amalga oshirish imkonini beradi.

Maxsus kompetensiyalar esa muayyan o‘quv predmeti yoki undan tashqaridagi pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Maxsus kompetensiyalar muayyan o‘quv predmetini o‘qitish doirasida o‘qituvchining tayanch hamda asosiy kompetensiyalarini faollashtirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, kasbiy pedagogik faoliyatning muayyan sohasi bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Kasbiy kompetensiyaning har uchala turi ayni bir vaqtda o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Bu, esa o‘z navbatida pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllanitirib, integral xarakterdagi o‘qituvchi shaxsining kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Tayanch, asosiy va maxsus kompetensiyalar o‘zaro uyg‘unlashib turli murakkablikdagi pedagogik vazifalarning samarali echimini ta’minlaydi. Uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash bilan bog‘liq holda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi asosiy vazifalarning echimini ta’minlash zarurati vujudga keldi. Ushbu vazifalarning echimi bo‘lajak o‘qituvchilarning asosiy kompetensiyalarini tizimli tarzda rivojlantirishga qulay sharoit yaratadi:

1. O‘quvchini madaniyatshunoslikka asoslangan ta’lim jarayonida to‘laqonli ravishda ko‘ra olish va uning intellektual ma’naviy, axloqiy taraqqiyotini tasavvur eta olish.

2. Madaniyatshunoslikka asoslangan ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, tashkil etish, bunda o‘quv jarayonining muayyan bosqichlarini hisobga olgan holda harakatlarni yo‘naltirish.

3. Ta’lim jarayonining barcha sub’ektlari bilan o‘zaro hamkorlikka kirishish mexanizmlarini o‘zlashtirish.

4. Pedagogik maqsadlardan kelib chiqqan holda kognitiv xarakterdagi madaniyatshunoslikka asoslangan ta’lim muhitida pedagogik faoliyat ko‘rsatish texnologiyalarini egallash.

5. O‘z o‘zini kasbiy jihatdan rivojlantirish jarayonini loyihalash va bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Kasbiy pedagogik vazifalarni tasniflash, ularning echimini izlash, bunda o‘zida mavjud bo‘lgan kreativ faoliyat tajribasidan unumli foydalanish o‘qituvchilarga quyidagi kasbiy vazifalarni echish imkonini beradi:

- o‘quv jarayonini madaniyatshunoslik yondashashuviga tayangan holda modernizatsiyalash;

- o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantiruvchi o‘quv jarayonini tashkil etish;

- o‘quvchilarning ijtimoiy shaxsiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan muammolarga echim izlashga o‘rgatish, bunda ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat usullari va topshiriqlarni tabaqalashtirish;

- faoliyatning yangi turlarini o‘zlashtirishga o‘quvchilarni undash, ularda kreativ faoliyat motivlarini hosil qilish;

- har bir o‘quvchining betakrorligi o‘z o‘zini rivojlantirish imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni qo‘llab quvvatlashga oid nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni o‘zlashtirish talab qilinmoqda.

Madaniyatshunoslikka asoslangan oliy pedagogik ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuvga tayangan holda loyihalash uchun didaktik birliklarni kasbiy vazifalardan kelib chiqqan holda tanlash talab qilinmoqda. Kasbiy vazifalar majmui pedagogik ta’lim mazmunining asosiy negizini tashkil qiladi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari esa uning mazmunini tizimlashtirish mantiqini tashkil etadi. Oliy pedagogik ta’lim mazmunini tanlashning etakchi prinsipi sifatida ijtimoiy madaniyatshunoslik hamda amaliy yo‘nalganlik prinsiplarini ko‘rsatish mumkin. Bunda kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida vujudga kelgan

vaziyatlar va ijtimoiy buyurtmani hisobga olish, O‘zbekiston davlati va jamiyati oliy pedagogik ta’lim oldiga qo‘yayotgan vazifalarni bajarishga ustuvorlik berish, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar, bunda o‘qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan qonun-qoidalar, shuningdek mezomuhit, ya’ni ta’lim jarayoni bilan tashqi muhitning o‘zaro aloqadorligi, o‘zbek xalqining madaniy-tarixiy an’analari, respublika hududlaridagi demografik o‘ziga xoslikning aniq hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ilm-fanning o‘ziga xosligi, kognitiv psixologiya hamda kognitiv pedagogika oid bilimlarning uyg‘unlashuvi, insoniyat oldida turgan global madaniy hamda ijtimoiy muammolar ustida fikrlash imkonini beradigan yondashuvlar, texnologiyalar, jamiyat hayoti hamda ta’lim tizimidagi mavjud muammolarni qiyosiy o‘rganish, ular orasidagi munosabatlar va aloqadorliklarni aniqlash, nazariy pedagogik bilimlar internalizatsiyasini amalga oshirish, chunonchi tashqi ya’ni ijtimoiy madaniy modellarni o‘zlashtirish natijasida ularni ichki, pedagogik jarayon boshqaruvchisi (regulyatorlari)ga aylanishini ta’minlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarga ish beruvchi asosiy institut sifatida pedagogik xodimlarning kasbiy tajribasiga ta’sir ko‘rsatib, mazkur tajribaning muntazam tarzda yangilanishi va boyitilishini talab qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi umumiy o‘rta ta’lim tizimining umumiy tavsifi uni yangilash bilan bog‘liq vazifalar, mavjud ziddiyat va muammolar, rivojlanish istiqbollari va taqdim etilgan modellar hamda yo‘nalishlar, amalga oshirilishi nazarda tutilayotgan tajriba-sinov faoliyati, o‘quv jarayonidagi an’anaviy hamda innovatsion texnologiyalarning o‘zaro munosabatiga oid nazariy bilimlar, amaliy tajribalar, oliy pedagogik ta’lim mazmunidan o‘ziga xos tarzda o‘rin olishi, o‘quv modullari mazmuniga singdirilishi lozim. O‘quvchini madaniy, ma’naviy, intellektual rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladigan pedagogik chora-tadbirlar, o‘zaro qarama-qarshi ijtimoiy vaziyatlarning rivojlanishi, milliy, madaniy modellar va qadriyatlarni o‘zlashtirishning o‘ziga xos jihatlari, o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish mexanizmlari va

ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirishga oid nazariy yondashuvlar, ulg‘ayish bosqichlari va yosh bilan bog‘liq bosimlar va to‘siqlar, inqirozlarni bartaraf etish yo‘llariga oid nazariy bilimlar bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni qurollantirish, ta’limni mikro hamda makro mazmuniga mos tarzda nazarda tutilishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashni yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan prinsiplari etakchilik xarakteriga ega bo‘lishi bilan bir qatorda oliy pedagogik ta’lim mazmunini tanlashda tayanishi zarur bo‘lgan ko‘plab prinsiplar hamda yondashuvlar ham mavjud.

Pedagogik ta’lim mazmunini tanlashda pedagogik prinsiplar majmui bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning sifati va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. U o‘z tarkibiga, birinchi navbatda, ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, talabalarning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z o‘zini tarbiyalash va o‘z o‘zini rivojlantirish, o‘quv materiallarining dialogik xarakterga ega bo‘lishi, talabalarni turli nuqtai nazarlarni qiyoslashga yo‘naltirish, o‘zlarining kasbiy pozitsiyalari va konsepsiyalarga ega bo‘lishlariga erishishni qamrab oladi. Ikkinchidan, insonshunoslikning nazariy asoslarini chuqur anglash insonparavarlashtirish va integratsiya prinsiplariga amal qilgan holda kognitiv pedagogika, kognitiv psixologiya, madaniyatshunoslik, falsafiy pedagogik, kasbiy yuksalish ya’ni akmeologiya, aksiologiyaga oid yondashuvlarni o‘z faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Uchinchidan, oliy pedagogik ta’lim mazmunini fundamental bilimlar negizida tanlash, o‘quv materiallarini muvofiqlashtirish, ya’ni konsentrizm prinsipiga tayanish, ilm-fanga oid innovatsion tushunchalarni o‘quv materiallari mazmuniga singdirish, ularni o‘zlashtirishning pedagogik vazifalarni echish uchun zarurligini anglab etish dolzarblashtiriladi. To‘rtinchidan, o‘quv materiallarni tanlashda tarixiy-madaniy yondashuv prinsipiga tayanish, tadqiq etilayotgan jarayonlarning tarixiy-madaniy nuqtai nazardan ob’ektiv tarzda amalga oshirilishini ta’minlash, retrospektiv hamda perespektiv yondashuvlarning uyg‘unlashuviga erishish, ushbu yo‘nalishlar ta’lim mazmunini prognozlashga asoslanganligini ta’minlashga erishish, fan-texnika rivojlanishining mavjud holatini hisobga olgan holda o‘quv jarayoni maqsadlarini

belgilash shular jumlasidandir. Beshinchidan, muntazam to‘ldiruvchanlik prinsipi, ushbu prinsip ta’lim mazmunini ochiqligidan kelib chiqqan holda uni yangi bilimlar, yondashuvlar bilan muntazam boyitilishini anglatadi. Bunda integrativ xarakterdagi bilimlar, pedagogik nazariyalar hamda amaliy xarakterdagi tushunchalarni ta’lim mazmuni va o‘quv modullariga bosqichma-bosqich singdirib borishga asoslaniladi.

Ma’lumki o‘quv fanining mazmuni o‘quv dasturida oydinlashadi. Unda o‘quv fani doirasida o‘rganiladigan mavzular o‘quv modullari tarkibida mantiqiy izchillikda taqdim etiladi. O‘quv mavzularni mantiqiy izchillikda o‘rganish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari tizimli tarzda rivojlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikning bu tarzda rivojlanishi o‘quv dasturining modulli-konsentirizm prinsipi asosida tuzilshini anglatadi.

O‘quv fanining dastlabki bloki istiqboldagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni bo‘lajak o‘qituvchilarga tizimli tarzda taqdim etishga xizmat qiladi. Ikkinchi blok esa talabalarni kasbiy vazifalarni bajarishga yo‘naltirish, kasbiy faoliyat usullarini egallashlari uchun qulay vaziyatlarni yaratish, tayanch kompetensiyalar asosida asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutish imkonini beradi. Uchinchi blokdagi o‘quv fanlari talabalarda tayanch kompetensiyalar negizida maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bunday o‘quv dasturlari tayanch xususiy xarakterga ega bo‘lgan dasturlar hisoblanadi. Uning asosini bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonini imkon qadar individuallashtirishga qaratilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘quv dasturlarining yangicha tarkibiy tuzilishida namoyon bo‘lishi uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Bunday dasturlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning istiqbolli yo‘nalishlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur yo‘nalishlar sirasiga: o‘quv mavzularni kompetensiyaviy yondashuvga asoslagan holda tanlanishini ta’minlovchi dasturlar, bunday dasturlarda kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanish usullari taqdim etiladi, buning uchun

zarur bo‘lgan axborotlar tanlanadi, ushbu axborotlar aniq o‘quv topshiriqlarni echish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Agar o‘quv dasturida kasbiy vazifalar muayyan izchillikda o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, uning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar aks etadi: a) talabalarni pedagogik faoliyat mazmuniga kontekstli asosda jalb etish; b) talabalarning hukm chiqarish, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muloqot vaziyatlarini vujudga keltirish imkonini beradi.

Yangi xarakterdagi o‘quv dasturining tuzilishi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish prinsipiga tayanishi lozim. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilar bilimlarni kompleks tarzda anglashdan, ularni kasbiy faoliyatga oid topshiriqlarni bajarish jarayonida qo‘llashga o‘tish, o‘z pedagogik bilimlari haqidagi tushunchalarini erkin bayon etish va topshiriqlarni bajarish, o‘z kasbiy qiziqishlari doirasida innovatsion topshiriqlarni bajarish usullarini qo‘llashga o‘tishlari nazarda tutiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar yangi avlod darsliklarida o‘z echimini topishi lozim. Shuning uchun mazkur dasturlarda ta’lim mazmunining istiqbolli yo‘nalishlarini aniq belgilab olish talab etiladi. Ushbu dasturlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning istiqbolli yo‘nalishlarini o‘zida ifodalashi bilan bir qatorda kognitiv xarakterda pedagogik jarayonga qo‘yiladigan talablarni ham o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim. Jumladan, 1) o‘quv fanlari mazmunini predmetli o‘qitishdan integrativ yondashuv asosda tayanch bilimlarni taqdim etishga o‘tkazish; 2) o‘quv fani mazmunini anglash, uni nutqda va kasbiy faoliyatida ifodalash. Chunki bilimlarni ma’lumotlar majmui sifatida o‘zlashtirish va bu jarayonda aniq metodlardan foydalanish zaruriyati kuchaymoqda.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar sifatida loyihalash strategiyasini ko‘rsatish mumkin. Ushbu strategiya amaliyotga yo‘naltirilgan modulli o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi. Shuningdek, keyslar, qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgan vaziyatlar, pedagogik hamkorlik asosida o‘qitish

orqali amalga oshiriladi. Kompetensiyaviy yondashuv oliy pedagogik ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilarining yangi nuqtai nazarga ega bo‘lishlarini taqozo qiladi. Talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida professor-o‘qituvchilardan quyidagilar talab qilinadi:

Pedagog-maslahatchi. Taklif qilinayotgan modelning o‘ziga xos jihati shundaki, professor o‘qituvchilar o‘quv materiallarini an’anaviy bayon qilish usulidan voz kechib talabalarga maslahat beruvchi vazifasini bajaradilar. Ular tomonidan beriladigan maslahatlar muayyan topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiriladi. Talabalar esa professor-o‘qituvchilar tomonidan beriladigan maslahatlar asosida topshiriqlarni bajarish, bilimlarni mustaqil egallash usullarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Ushbu modelni qo‘llashdan asosiy maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarni bilimlarni mustaqil o‘qib o‘rganishga yo‘naltirishdan iborat.

Pedagog-moderator mavqeida professor-o‘qituvchilar talabalarning layoqatlarini namoyon etishlari uchun qulay sharoit yaratadilar. Modellashtirish negizida maxsus texnologiyalardan foydalanish mahorati namoyon bo‘ladi. Ushbu texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilar uchun erkin muloqot jarayonlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Professor-o‘qituvchilar esa mazkur jarayonlarda talabalarning o‘zaro fikr almashinishlari uchun qulay vaziyatlarni vujudga keltirib, ularni ichki imkoniyatlari, iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishga muvaffaq bo‘ladilar.

Modellashtirish talabalarning ichki imkoniyatlarini namoyon etishlari, yashirin iqtidorlarini ochish va amalda qo‘llaniladigan ko‘nikmalarini qo‘llashlari uchun sharoit yaratishga yo‘naltirilgan. Pedagog-moderator tomonidan quyidagi asosiy metodlar qo‘llaniladi: talabalarni pedagogik faoliyatga undash ularning imkoniyatlarini faollashtirish, ularda mavjud bo‘lgan muammolar va xohish istaklarini aniqlash, bahs-munozalarni tashkil etish, do‘stona hamkorlik muhitini yaratish, shu bilan bir qatorda pedagog-moderator talabalar orasida shaxslararo munosabatalarni tashkil etish va barqarorlashtish vazifasini ham bajaradi.

Pedagog-tyutor talabalarning kundalik faoliyati, madaniy-ma’naviy rivojlanish jarayonida ularga hamrohlik qiladi. U talabalar guruhiga mo‘ljallangan topshiriqlarni ishlab chiqadi, muammolarni guruh bo‘lib muhokama qilishga bo‘lajak o‘qituvchilarni yo‘naltiradi. Pedagog-tyuterning faoliyati bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy tajribasini boyitishga qaratilganligi bilan alohida pedagogik ahamiyatga ega. Professor-o‘qituvchilar talabalarning bilish faoliyatlari, shaxsiy qiziqishlari, rejalari, ehtiyojlarini o‘rganadilar, tahlil qiladilar, rivojlantiradilar. Shu maqsadda alohida topshiriqlar va mashqlar to‘plamini ishlab chiqadilar. Ushbu jarayonda zamonaviy kommunikativ metodlarga tayanadilar, bo‘lajak o‘qituvchilarni alohida-alohida va guruhli faoliyat jarayonida qo‘llab quvvatlaydilar, ularning yutuqlarini hisobga olish va o‘qib o‘rganish motivatsiyasini hosil qilish imkoniyatlarini izlab topadilar, loyiha faoliyatining yo‘nalishlarini ishlab chiqadilar. Talabalarning tyuterlar bilan muloqoti o‘ziga xos tarzda amalga oshadi. Ular: kundalik seminarlar, o‘zaro yordam guruhlari, raqamli texnologiyalar vositasida tashkil etiladigan konferensiyalar, davra suhbatlari shular jumlasidandir. Shunga ko‘ra oliy pedagogik ta’lim tashkilotlarida ishlaydigan professor-o‘qituvchilarning ko‘pqirrali faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: talabalarni pedagogik faoliyat mazmuniga olib kirish, ularga hamroxlik qilish, qo‘llab quvvatlash kabilar. Bu jarayonda ular har bir talabaga yordam ko‘rsatish, uning imkoniyatlari doirasini anglash, o‘qituvchilik kasbiga xos bo‘lgan madaniyatni egallashlariga ko‘maklashish, o‘z hayot yo‘llarini tanlashlari uchun zarur maslahatlar berishdan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentlik darajalarini baholashning asosiy instrumentariysi evristik, kognitiv va pragmatik topshiriqlar bo‘lib, muammoli vaziyatlar sifatida shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy faoliyat sub’ekti sifatida unga xos bo‘lgan ishchanlik, tashabbuskorlik sifatlarini egallashlari lozim. Bu sifatlar ular tomonidan bajariladigan faoliyat orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda ular turli operatsiyalarni amalga oshiradilar, kasbiy harakatlarni bajaradilar. Ushbu harakatlar ularnnng atrofdagilar va

o‘quvchilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydi. Natijada baholovchi hukmlar, mantiqiy xulosalar, dalillar bilan boyitilgan qarorlar, tanlov vaziyatlarini amalga oshirish, hamkorlik va dialog vaziyatlariga kirishish ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu ko‘nikmalar XXI-asr ko‘nikmalari bilan boyitilgan holda bo‘lajak o‘qituvchining 4K kompetensiyasi tarkibiga kiradi. XXI-asr ko‘nikmalari jahon iqtisodiy forumida taklif qilingan bo‘lib, 3 turga bo‘linadi.

1. Asosiy savodxonlik tushunchalari: til va raqamli transformatsiyalar, tabiiy fanlar, AKT savodxonligi moliyaviy savodxonlik, fuqarolik va madaniy faoliyat ko‘nikmalari.

2. Asosiy savodxonlik: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikatsiya, hamkorlik.

3. Asosiy savodxonlik turlari: qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, moslashuvchanlik, betakrorlik, ijtimoiy-madaniy xabardorlik.

4K kompetensiyalarining konseptual asoslari va ularning ta’limning zamonaviy strategiyalaridagi o‘rni muhim bo‘lib, u pedagogning shaxsiy sifatlarida aks etadi.

Istiqbolli ko‘nikma malakalar: kognitiv va metokognitiv ko‘nikmalar, tadqiqotchilik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘rganish.

Ijtimoiy emotsional ko‘nikmalar: empatiya, o‘zini o‘zi boshqarish, hamkorlik, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish, amaliy, jismoniy rivojlanish, turli materiallar bilan ishlash, jismoniy kuch, epchillik kabilarni qamrab oladi.

XXI-asr ko‘nikmalari to‘rt usutunga ajaratilganligi bilan xarakterli bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Ular: muloqot, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik.

4K kompetensiyalari o‘quv modullari tarkibida shakllantiriladi. Buning uchun talabalarga yangi mazmundagi o‘quv materiallari hamda muammoli, evristik, kognitiv, pragmatik topshiriqlar o‘quv jarayonning barcha bosqichlarida tizimli tarzda taqdim etilishi lozim.

1.3. Kognitiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish parametrlari

Bugungi kunda butun dunyoda ta’lim jarayoni va uning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan kognitiv xarakterdagi pedagogik izlanishlarning ko‘lami kengaymoqda. Kognitiv pedagogikaga oid aksariyat nazariyalar madaniyatshunoslik, aksiologik, akmeologik, faoliyatli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishni nazarda tutgan holda amalga oshirilmoqda. Chunki mazkur yondashuvlar, birinchi navbatda, insonning ko‘pmadaniyatli jamiyatda yashab faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy bilimlarni egallash maydonini kengaytirish pedagogik jarayonni tashkil etishda, birinchi navbatda, madaniyatshunoslik va akmeolgik yondashuvga tayanishni talab qiladi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-biluv ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy hamda tayanch kompetensiyalarni egallash motivlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, o‘quvchilar hamda kasbdoshlari bilan amalga oshiriladigan dialogik munosabatlariga madaniy jarayon sifatida yondashishlari uchun stimul hosil qilishga e’tibor qaratish talab qilinmoqda. Kasbiy bilimlarning shaxs taraqqiyotini ta’minlashi natijasida bo‘lajak mutaxassislar kasbiy mahorat – akme hamda pedagogik madaniyat me’yorlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilarki, ushbu bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarda o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy tajribasi mujassamlashgan bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahorat – akme va kasbiy madaniyat sirlarini o‘rganishlariga ta’sir ko‘rsatadigan omillar, shart-sharoitlar mavjud. Bular sirasiga

- ko‘p asrlik madaniy pedagogik tajribalar;
- jahon miqyosida sinovdan o‘tgan va amaliyotda o‘zini oqlagan xalqaro pedagogik tadqiqotlarning natijalari;
- innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni ko‘rsatish mumkin.

Madaniyatshunoslik va akmeologik yondashuvlar doirasida, birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy tafakkur rivojlantiriladi. Chunki kasbiy tafakkur pedagogning barcha harakatlari, g‘oyalari, bilimlarini rivojlantiruvchi, tartibga soluvchi va kompetensiyasi sifatida namoyon qiluvchi madaniy pedagogik faoliyatga turtki beruvchi xodisadir.

Insoniyat o‘zining butun ongli faoliyati davomida o‘qituvchining pedagogik tafakkurini rivojlantirishning fundamental asoslarini yaratishga harakat qilgan. Mazkur fundamental asoslarning ilk ildizlari eramizdan oldingi yunon faylasuflari tomonidan yaratilgan bo‘lsa, Avesto, Qur’oni Karim, Hadislar va Sharq pedagogik tafakkurining ifodasi bo‘lgan durdona asarlarda mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan muayyan darajada rivojlantirilgan. Jumladan, Aflotun, ta’lim-tarbiya jarayonida tafakkurning ahamiyati haqida quyidagi hikmatli fikrlarni bayon qiladi: “Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga, mashqqa”. Bu o‘rinda o‘qituvchining mantiqiy fikrlash layoqatiga egaligiga alohida e’tibor qaratilgan.

Farobiy esa o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotining ahamiyati kasbiy mahoratning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni haqida fikr yuritib quyidagilarni bayon qilgan: “Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo‘ladi”.

Beruniy esa ilm dargohiga kirgan talabaning sog‘lom tafakkur yuritishga qalb pokligiga erishishga da’vat qilgan: “Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko‘zlikni quli bo‘lishdan ozod bo‘lmog‘i darkor”.

Zero, shaxsning kasbiy kamoloti, uning fikrlash darajasi, ya’ni, kasbiy tafakkurida o‘z ifodasini topadi. Bugungi kunga kelib jahondagi kasbiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda kasbiy pedagogik tafakkurning taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadigan pedagogik jarayon sifatida qarab, uni takomillashtirishga harakat qilinmoqda.

Pedagogik tafakkur rivojlangan ilg‘or mamlakatlarning ta’lim tizimi yangi paradigmalarga o‘tganligi bilan xarakterlanadi. Shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkuri yangi madaniy-pedagogik jarayonda rivojlanadi, mazkur jarayonda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy mahorat – akmeni egallashi uchun qulay ta’limiy muhit va pedagogik jarayonni tashkil etish talab qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik tafakkurini rivojlantirish konsepsiyasini yaratish g‘oyasini amalga oshirish zaruriyati kuchaymoqda. Shaxsning kasbiy taraqqiyoti, ya’ni, pedagogik akmeni egallashi, unda kasbiy tafakkurning rivojlanishi va pedagogik bilimlar yordamida dinamik ravishda takomillashuvi bilan bevosita bog‘liq.

Kasbiy pedagogik tafakkur pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini belgilaydi. Mazkur faoliyatning uzluksiz tarzda rivojlanishi bir qator pedagogik omillarga bog‘liq. Ushbu omillar va pedagogik shart-sharoitlar:

- bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy tafakkurining zamonaviy bilimlar, yondashuvlar yordamida rivojlantirilishi;

- bo‘lajak o‘qituvchi bilish harakatlari, usullaridan foydalanishining qo‘llab-quvvatlanishi;

- raqamli pedagogik vositalarning o‘quv jarayoniga samarali tatbiq etilishi;

- boy ma’naviy pedagogik arsenaldan o‘quv jarayonida maqsadli muvofiq tarzda foydalanalishi;

- kasbiy pedagogik bilimlarning bo‘lajak o‘qituvchi ijtimoiy pedagogik tajribasiga singdirilishga erishilishini ta’minlash, amaliy, akmeologik xarakterga ega bo‘lgan maqsadlarning qo‘yilishi va unga erishilishi, buning uchun zarur bo‘lgan kognitiv xarakterdagi pedagogik muhitning yaratilishi kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tafakkuri o‘zining rivojlanish darajalariga egaligi bilan harakterlanadi. Shuning uchun ham talabalar o‘zlarini qiziqtirgan kasbiy bilimlarini evristik metodlar, raqamli pedagogik texnologiyalar yordamida izlab topish, o‘zlashtirish va kasbiy kompetensiyalar shaklida namoyon qilishga erishadilar. Kasbiy qiziqishlar va ehtiyojlar pedagogik tafakkur yordamida kasbiy rivojlanish motivlariga

aylanadi. Mazkur motivlar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyat tajribasini egallashi asosida uzluksiz rivojlanishga undaydi. Agar bo‘lajak o‘qituvchida pedagogik tafakkur etarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, kasbiy bilimlar uning ijtimoiy tajribasiga aylanmasdan qolib ketadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurning shakllanishida xissiy bilish, intuitsiya, idrok, sezgilar ham alohida ta’sir kuchiga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik xodisalarning mazmun-mohiyati, nazariy asoslari, rivojlanish dinamikasini pedagogik nuqtai nazardan yondashgan holda anglab etishlari uchun xissiy bilish, intuitsiya, idrok va induktiv, deduktiv fikrlash faoliyati yaqindan ko‘maklashadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning etuklik – akmeni egallashlari uchun kasbiy tasavvurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkuri kasbiy bilimlarni ratsional bilish natijasida vujudga keladi. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik tafakkuri nazariy bilimlarni ratsional o‘zlashatrish mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham pedagogik tafakkur huddi mana shu o‘zlashtirilgan kasbiy axborotlar va pedagogik nazariyalarga tayanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar fikriy faollik ko‘rsatishlari natijasida insoniyat tomonidan yaratilgan mahsuldor pedagogik ta’limotlar, nazariyalar, metodlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish, ularni kasbiy faoliyatlari davomida qo‘llashga muvaffaq bo‘ladilar. Buning uchun birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini tizimli tarzda rivojlantirish mexanizmlarini yaratish talab qilinmoqda. Mazkur jarayonda madaniyatshunoslik va akmeologik yondashuvlarga ustuvorlik berish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar fikriy faollik ko‘rsatish natijasida ta’lim jarayonidagi pedagogik voqelikni refleksiyalash va munosib baholash layoqatiga ega bo‘ladilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish uchun ularni aqliy va hissiy bilish usullaridan muayyan izchillikda foydalanishga tayyorlash alohida ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilish bosqichlarida tadrijiy tarzda amalga oshiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik jarayon mohiyatini anglash darajasi ularda pedagogik tafakkurning qay darajada

shakllanganligiga bevosita bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy bilimlarni hissiy qabul qilish natijasida jonli mushohada yuritishga muvaffaq bo‘ladilar. Aqliy bilish faoliyatining rivojlanishi natijasida esa pedagogika turkum fanlari hamda pedagogik-psixologiyaga oid ilmiy tushunchalar va nazariy ma’lumotlarni har tomonlama puxta o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Umuman olganda bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni tizimli tarzda rivojlantirishda aqliy, hissiy hamda emperik bilishning imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish nazarda tutilishi lozim. Ayniqsa, nazariy bilish, ya’ni, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik tafakkurini boyitish imkoniyatlari kengayadi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar farazlarni ilgari surish, abstraksiyalash layoqatiga ega bo‘ladilar. Aqliy faoliyat operatsiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini chuqurlashtirib pedagogik mahorat – akmeni egallashlarini jaddallashtiradi. Nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat tajribasini uyg‘unlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish imkoniyati vujudga keladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatga oid muayyan ko‘nikmalar tarkib topadi. Talabalar kasbiy ma’lumotlarni mantiqiy tahlil qilib, ularning ahamiyatini anglashga muvaffaq bo‘ladilar.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri innovatsion yondashuvlar va zamonaviy bilimlar, raqamli texnologiyalarni o‘z ichiga olgan o‘quv modullari kognitiv bloklar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni shakllantirishdan iborat. Chunki pedagogik tafakkur bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatida hissiy bilish, amaliy faoliyat ko‘rsatish va nazariy fikrlash birligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ma’lumki, pedagogik tafakkur bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini turli bosqichlarda o‘ziga xos tarzda ta’minlash imkoniyatiga ega. Buning uchun birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilar atrofida mahsuldor ijodiy-intellektual muhit yaratishni nazarda tutish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Turli o‘quv operatsiyalarni bajarish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlarga murojaat qiladilar. Natijada talabalarda pedagogik tafakkur

rivojlanishi kuzatilib tahliliy faoliyat ko‘rsatish, farazlarni ilgari surish mantiqiy jihatdan asoslangan kasbiy xulosalar chiqarish faoliyat algoritmlarini qo‘llash, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasi jadal rivojlanadi. Bu esa istiqbolda ta’lim jarayonini pedagogik ijodkorlik salohiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar bilan ta’minlash, iqtidorli mutaxassislarning “Oltin fondi”ni yaratish imkonini beradi.

O‘zbeksiton Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 11.09.2023 yildagi PF–158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘rsatilgan beshta muhim yo‘nalish doirasida 100 ta maqsad belgilab qo‘yildi. Ushbu maqsadlarning aksariyati uzluksiz ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlidir. Chunonchi oliy pedagogik ta’lim jarayonini rivojlantirish orqali uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini modernizatsiyalashda madaniyatshunoslik yondashuviga ustuvor o‘rin ajratish taqozo qilinmoqda. Bu o‘z navbatida pedagogik ta’lim mazmunini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida takomillashtirishni nazarda tutadi.

Oliy pedagogik ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga oid kognitiv yondashuvlar asosida tashkil etiladigan o‘quv tarbiya jarayonidan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni ikkita asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: pedagogik hamda madaniy-ma’rifiy etuklikka undash yo‘nalishlaridagi o‘quv harakatlarini mujassamlashtiradi. Ushbu yo‘nalishlardagi ta’lim jarayonini amalga oshirishda bir qator pedagogik vazifalarga echim izlanadi. Mazkur vazifalarning echimi bo‘lajak o‘qituvchilarning individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, madaniy rivojlanish ko‘lamini aniqlash imkonini beradi. Falsafiy-pedagogik va madaniyatshunoslik yondashuvlari doirasida madaniyatli shaxs mustaqil, insonparvar, ma’naviyatli, amaliy faoliyat ko‘rsatishga tayyor, yosh avlodni qadriyatlar ruhida tarbiyalashda etakchilik qiluvchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson ta’lim-tarbiya jarayoniga ilk qadam qo‘ygan davrdan boshlab ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, anglash, ko‘plab ijtimoiy rollarni bajarish, o‘zining gender mansubligini his etish ko‘nikmalariga ega bo‘la boshlaydi. Mazkur jarayonda

o‘qituvchilar ularning ta’lim-tarbiyasiga gender yondashuvni tatbiq etadilar. X.Tojiboeva, M.Tilavova, N.M.Medveskaya, L.V.Kolomiychenkolarning tadqiqotlariga ko‘ra ta’lim oluvchilarni gender yondashuv asosida tarbiyalash jarayonida ularga gender farqlar va o‘xshashliklar haqidagi bilimlar, gender rollarning o‘ziga xosligi, pedagogik-psixologik talqinlari haqidagi zarur ma’lumotlar, madaniy-tarixiy qarashlar, milliy urf-odatlar o‘rgatiladi. Natijada ular o‘zlarini muayyan jinsga mansub shaxs sifatida anglaydilar, unga xos funksiyalar va axloqiy stereotiplarni o‘zlashtiradilar. Shu bilan bir qatorda o‘zining jinsiy mansubligidan kelib chiqqan holda xulq-atvor me’yorlari doirasida atrofdagilar bilan muloqot, munosabatga kirishish mexanizmlarini o‘zlashtiradilar. Ayniqsa, talabalarga gender madaniyatning sotsium bilan bog‘liq me’yorlarini taqdim etish zarurati kuchaymoqda. Shunga ko‘ra gender madaniyat jamiyatda mavjud bo‘lgan nuqtai nazarlar, prinsiplar, matritsalarni amalga oshirish, jinsning ijtimoiy madaniy yo‘nalishlarini shakllantiruvchi omillar, jumladan gender rollar, gender stereotiplar hamda oila, nikoh qonun-qoidalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

S.Aboimning ta’biri bilan aytganda gender madaniyatning tiplari shaxsning o‘z o‘zini namoyon qilishi va o‘z faoliyatini amalga oshirishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda gender madaniyat bo‘lajak o‘qituvchining atrof-olam va kasbiy faoliyatga nisbatan munosabatini ham shakllantirishga ko‘maklashadi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida ta’lim jarayonini bo‘lajak mutaxassisning dunyoqarashi va mavjud holatiga muvofiqlashtirish taqozo qilinayotgan hozirgi sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy gender yondashuv va gender madaniyat bilan qurollantirish muammosi o‘z echimini kutmoqda. Chunki bugungi kunga kelib muayyan jinsga mansub yoshlarni gender asosida tarbiyalash zaruriyati tobora kuchaymoqda, zero, ta’lim oluvchilarda o‘zining gender mansubligini anglash, gender madaniyat doirasida harakatlanish, gender rollarni madaniyatshunoslik nuqtai nazardan yondashgan holda bajarish ko‘nikmasi etarlicha shakllanmagan. O‘qituvchilar ham ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda gender madaniyat, gender mansublik hissini singdirishga aksariyat

hollarda e’tibor qaratmayaptilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularda gender yondashuvga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mutaxassislarning e’tiboridan chetda qolmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni gender yondashuvni amalga oshirishga tayyorlash, o‘quvchilarni madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishga shakllantirish ko‘nikmasini hosila qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu, birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki ijtimoiy-madaniy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetenligi tarkibiga kiradi. Ijtimoiy-madaniy kompetenlik shaxsiy ijtimoiy xarakterga ega. Ijtimoiy-madaniy kompetenlik o‘z navbatida gender madaniyat, gender qadriyatlar, o‘g‘il va qiz bolalar orasidagi dialogga asoslangan madaniy muloqot, gender rollarni bajarish layoqati, pozitiv dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy muhitda shaxsiy muammolarni echish ko‘nikmasini o‘zida mujassamlashtiradi. Ko‘p sonli mutaxassislar ijtimoiy madaniy kompetentlik tarkibiga informatsion, motivatsion, texnologik, refleksiv kompetensiyalarni kiritganlar. (A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya). Ijtimoiy-madaniy kompetenlik doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq vaziyatlarni uchta darajasini ko‘rsatish mumkin: tanqidiy, tayanch va dolzarb darajalar.

Pedagogik ta’lim jarayonida shakllantiriladigan ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning o‘ziga xos tavsifi, uning tarkibiy tuzilishi, ko‘rsatkichlari, mezonlari, ijtimoiy-madaniy kompetenensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlashning diagnostik metodikalar orqali namoyon etadi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning tarkibi informatsion, motivsion, texnologik va refleksiv komponentlardan iborat. Ko‘rsatkichlari esa: ijtimoiy-madaniy xarakterdagi bilimlar, shaxsning qiziqishlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, harakatlar, refleksiv ko‘nikmalar. Mezonlariga esa: ijtimoiy-madaniy munosabatlarning ko‘lami, uning dalillanganligi, tizimlilik xarakterga egaligi, ehtiyojlarning barqarorligi, motivlarning

yo‘nalganligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, kreativlik, onglilik, muvofiqlik, prognozlarga asoslanganlik kabilarni kiritish mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlashning diagnostik metodikalar yordamida tekshirish va aniqlash maqsadga muvofiq. Bunday metodikalar sirasiga: bo‘lajak o‘qituvchilarda gender madaniyatning shakllanganligini anketalar yordamida tekshirish, gender mansublik, ya’ni maskullinlik va feminlikni aniqlash, ekspert baholash metodidan foydalangan holda talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini ko‘rsatish nazarda tutiladi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi va ular orasidagi aloqadorlik talabalarda tizimli tarzda taqdim etiladigan tarixiy-madaniy bilimlar, san’at namunalari hamda ijtimoiy voqelik orqali tarkib toptiriladi. Axborotli hamda refleksiv kompetensiyalar doirasida muayyan aloqadorlik mavjud bo‘lib, mazkur aloqadorlik kompetensiyalarning bir biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydi. Kasbiy kompetensiyalar tarkibida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslangan dolzarb muammoning echimiga bag‘ishlanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu muammo bo‘lajak mutaxassisni o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishga tayyorlash bilan bog‘liq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid mavjud yondashuvlarni boyitish tizimli va madaniyatshunoslik yondashuvlari hamda uning tarkibiy qismlari hisoblangan ijtimoiy-madaniy hamda psixologik bilimlarni qamrab oladi. Ushbu yo‘nalishdagi pedagogik faoliyat madaniyatshunoslik yondashuviga tayangan holda amalga oshiriladi.

Ma’lumki, o‘quv jarayonining kamchiliklardan xoli, to‘laqonli tarzda tashkil etilishida o‘quv dasturlari va o‘quv modullari muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturlar o‘quv mavzularning ketma-ketliligi, ularni o‘zlashtirish uchun sarflanadigan vaqtni belgilab beradi, nazorat shakllarini ko‘rsatadi. Integrativ yondashuv doirasida o‘quv

materiallarni tanlash, talabalarning diqqat e’tiborini bir nuqtaga jamlash, muvofiqlashtirish imkonini berishi bilan bir qatorda, ularda ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning rivojlanishini jadalashtiradi. Bu esa o‘z navbatida talabalar bilimi va kompetensiyalarini nazorat qilish jarayonini osonlashtiradi. Madaniyatshunoslik yondashuvi talabalarga olam manzarasini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan yondashganda o‘quv jarayonini madaniyatshunoslik yondashuvi doirasida insonparvarlashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish, ularni ta’lim sub’ektlari orasidagi gender munosabatlarni ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga tayangan holda tartibga solishga tayyorlash imkonini beradi. Haqli bir savol tug‘iladi pedagogika turkum fanlari orasidagi integratsiya va madaniyatshunoslik yondashuvini tatbiq etishning qanday mexanizmlari yaratilishi kerak?

Buning uchun quyidagi shart-sharoitlar taqozo qilinadi:

- tadqiqot ob’ektlarining pedagogika turkum fanlari mazmuniga mos kelishi;
- integrativ xarakterdagi o‘quv predmetlari doirasida amalga oshiriladigan tadqiqot metodlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, ta’minlanishi;
- pedagogika turkum fanlarini integratsiyalash, umumdidaktik qonun-qoidalar va konsepsiyalarga tayangan holda amalga oshirilishi kabilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan shartlarga amal qilish pedagogika turkum fanlarini muvaffaqiyatli integratsiyalash imkonini beradi. Bu jarayonda mavzulararo integratsiya, o‘quv bloklari va o‘quv modullariaro integratsiya amalga oshiriladi. Darsliklarda esa o‘quv materiallarni integratsiyalash asosida kognitiv, evristik, kreativ, pragmatik, faoliyatli-texnologik topshiriqlarni qo‘llash imkoniyatlari kengayadi.

O‘quv fanlarini integratsiyalashda ijobiy omillar bilan bir qatorda pedagogik jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar ham mavjud. Ushbu omillar aksariyat hollarda pedagogik integratsiyaning taktikasini aniqlash imkonini beradi.

Ijobiy omillar sirasiga, birinchi navbatda, pedagogik integratsiya asosida tanlangan o‘quv materiallarining talabalar intellektual taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilishini ko‘rsatish mumkin. Pedagogik integratsiyaning ushbu omilidan an’anaviy pedagogik ta’lim jarayonida etarlicha foydanilmayapti.

Salbiy omillar sirasiga pedagogika turkum fanlari mazmuniga kiritilgan barcha mavzularni ham o‘zaro integratsiyalash imkoniyati mavjud emasligini ko‘rsatish mumkin. Ushbu o‘rinda pedagogik ta’lim mazmuni tarkibiga kirgan ayrim mavzularni madaniy olamning manzarisi bilan bog‘liq holda talqin etish asosida to‘ldirish va boyitish mumkin.

Vujudga keladigan salbiy omillardan yana biri integrativ xarakterdagi o‘quv moduli mazmunini bayon qilish, uni talabalarga taqdim etish metodikasining ayrim qismlari, ayniqsa, mazkur modelning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun tushunarli, qulay va mahsuldor bo‘lishiga erishishning bir qadar murakkabligi bilan izohlanadi.

Pedagogik bilimlar tizimini integratsiyalash o‘quv moduli tarkibida asosiy o‘rinni egallaydi. Pedagogik bilimlar ayni bir vaqtining o‘zida bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kirib, ularning didaktik jarayonlarni yaxlit tasavvur etishlariga ko‘maklashadi. Buning uchun pedagogika turkum fanlari mazmuni bilan ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi boshqa o‘quv fanlari mazmunini ham integratsiyalash imkoniyatlaridan foydalanish, shu asosda talabalarda madaniy-ma’naviy jarayonlar haqida aniq tasavvur hosil qilish, ularda pozitiv dunyoqarash va gender mansublikni shakllantirish, ommaviy madaniyatga qarshi kurashchanlik sifatlarini tarbiyalash, madaniy modellar va konsepsiyalarni to‘liq idrok etishlari uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda samarali pedagogik faoliyat ko‘rsatish imkonini beradigan kompetensiyalar tarkibini XXI- asr ko‘nikmalari hisobiga boyitish alohida ijtimoiy-madaniy hamda pedagogik ahamiyatga ega. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarga umuminsoniy qadriyatlar tinchlikni asrash, mustaqillikni qadriga etish, o‘quvchilarning salomatiligini muhofaza qilish va ular atrofida ijobiy-madaniy muhit yaratish, gender

tenglik va gender farqlarni his etish vazifasi yuklatiladi. Shuning uchun ham pedagogika turkum fanlari bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarini muvaffaqiyatli integratsiyalash, bu jarayonda madaniyatshunoslik yondashuvidan samarali foydalanish pedagogika fani oldida turgan, o‘z echimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu muammoni muvaffaqiyatli echish uchun kognitiv pedagogikaga oid tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish talab qilinmoqda.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixi madaniyati jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan xissasi pedagogik ta’limotlarni rivojlantirishga oid yondashuvlarini o‘rganish asosida bo‘lajak o‘qituvchilar tamoman yangi xarakterdagi madaniy pedagogik modellar bilan tanishadilar. Ularni o‘rganish, o‘zlashtirish va o‘z kasbiy faoliyatlarini tarkibiy qismiga aylantirish ehtiyoji vujudga keladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar mutafakkir ajdodlarimiz o‘z o‘zlarini rivojlantirish kashfiyotlarini amalga oshirish yo‘lida qanday qiyinchiliklarga duch kelganliklari, ularni bartaraf etish yo‘lida amalga oshirgan harakatlarini chuqur idrok etib o‘zlari uchun yangi madaniy modellarni kashf qiladilar va ularning mazmun-mohiyatini anglashga muvaffaq bo‘ladilar.

Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida madaniyatshunoslik yondashuvini qanday qilib qo‘llash mumkinligi ham mutaxassislarning e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Bunda muammoni echishga oid izlanishlarning yo‘nalishlarini ham ishlab chiqish va taklif qilish ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylanmoqda. Buning uchun professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar birgalikda hamkorlik qilishlari izlanishlarning samarali mexanizmlarini aniqlashga intilishlari lozim. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosan yaqin mavzular o‘zaro kesishadigan integrativ xarakteridagi o‘quv fanlarining mazmuni orqali pedagogik jarayonlarga tatbiq etiladi. Mazkur jarayonda madaniy intellektual jihatdan rivojlangan kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli egallagan bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi asosiy natija sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki shaxsni kreativ faoliyatini rivojlantirish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘zining qat’iy nuqtai nazarlari, hayotiy qarashlariga ega

bo‘lgan nostandart qarorlar qabul qila oladigan yoshlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Shu maqsadda barcha oliy ta’lim muassasalarida “kreativ fikrlash” nomli o‘quv fani joriy etilgan. Bu uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida har bir ta’lim oluvchida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va muntazam rivojlantirish zaruriyatining kuchliligidan dalolat beradi. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayoni sub’ektlarini kreativ fikrlashga o‘rgatish vositalarini yangilashga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Bunday ehtiyoj professor-o‘qituvchilar bilan talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini yangicha konetkstda tashkil etishni taqozo qiladi. Talabalarda kreativ fikrlashni shakllantiruvchi didaktik vositalar sirasiga darsliklar, o‘quv adabiyotlar, kompyuter texnologiyalari, o‘qitishning innovatsion usullarini kiritish mumkin. Bu talabaning kreativ fikrlash ko‘rsatkichini ta’minlash, uni frontal topshiriqlardan ozod qilish, mustaqil fikrlashi uchun keng yo‘l ochish, yangiliklar yaratishiga imkoniyat berish, o‘zi uchun individual ta’lim yo‘nalishini tanlashiga ko‘maklashishdan iborat.

Talabaning kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadigan didaktik vositalar sirasiga o‘quv materiallari, savol va topshiriqlar, badiiy asarlarni kiritish mumkin. Bunda pedagogika turkum fanlari qulay imkoniyatlarga ega. Talabalarning kreativ ko‘nikmalarini namoyon qilishini har doim pedagoglar, ota-onalar qo‘llab-quvvatlashi, mazkur ko‘nikmalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Kreativlik talaba shaxsining ijodiy quvvatlari, ichki imkoniyatlarining namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Mutaffakir ajdodlarimiz yoshlarda kreativ fikrlashning shakllanishiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning mazkur yondashuvlarini “Pedagogika tarixi”, “Didaktika” o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida talabalar ongiga etkazish alohida ahamiyatga ega. Chunki ular kreativlikning ruhiy jarayonlar bilan bog‘liq jihatlarini ilmiy asoslashga harakat qilganlar. Ular aqliy bilish, hissiy bilish, emperik bilish, ratsional bilish jarayonlari bilan bog‘liq holda shaxsning kreativligini asoslashga muvaffaq bo‘lganlar.

Inson kreativ fikrlash natijasida o‘z oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadlarga erishadi. Uning qarashlari, e’tiqodlari, farazlari kreativ fikrlash mahsuli hisoblanadi. Kreativ fikrlash o‘z mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli hodisadir. Kreativ fikrlovchi insonlar millat va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xissa qo‘sha oladi. Shaxsning kreativ fikrlash ko‘nikmalari uning turmush tarzini belgilaydi va kundalik ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Yangi ixtirolar, ijod namunalari, kreativ fikrlash mahsuli hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda fikrlash tufayli yangi g‘oyalar va farazlar ilgari suriladi, tadqiqotlar amalga oshadi.

Kreativlik (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va echimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyat.

Shunga ko‘ra kreativlik talabalarning maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy xatti-harakatlari ifodasi bo‘lib, u o‘zida original g‘oyalarni yaratish, jadallik, ishchanlik, atrof-muhitga estetik munosabatda bo‘lish, o‘z-o‘zini anglash, refleksiya kabi shaxsiy sifatlarning majmuini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashi tezkorlik, hozirjavoblik, mobillik, ishchanlik bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish orqali ularning layoqatlari kasbiy layoqatlari, iqtidorlarini namoyon qilish imkoniyati vujudga keladi.

Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatishda dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatishda barcha boshqa vositalar bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetensiyasi muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayonda pedagogika turkum fanlarini o‘qitishda qo‘lllaniladigan evristik topshiriqlardan keng ko‘lamda foydalanish tavsiya etiladi. Evristik topshiriqlar talabalarda kasbiy xarakterdagi kreativ ko‘nikmalarning hosil bo‘lishida muhim o‘rin egallaydi. Chunki ushbu topshiriqlarni echish davomida talabalar ijodiy izlanishga muvaffaq bo‘ladilar. Evristik topshiriqlar talabalarni ijodiy izlanishga va ijodiy faoliyat natijasini namoyon etishga undaydi. Talabalarning kreativ

faoliyatlari natijalarning muntazam nazorat qilish va takomillashtirish professor-o‘qituvchilardan alohida kasbiy mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Milliy ta’lim dasturida talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatishga ustuvor ahamiyat berilgan. Kreativ fikrlash natijasida professor-o‘qituvchilar bilan talabalar orasida ishchan muloqot va o‘quv hamkorligi vujudga keladi. Professor-o‘qituvchilar talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida qulay pedagogik vaziyatlarni yaratishlari lozim. Professor-o‘qituvchilar talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish uchun o‘quv jarayonida bir qator qulay vaziyatlarni tashkil etishlari va bosqichma bosqich kreativ fikrlashga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlarni ko‘paytirib borishlari talab etiladi.

1. Pedagogik hodisalar, ilmiy tushunchalar haqida talabalarga batafsil ma’lumot beradigan o‘quv vaziyatlarini yaratish. Talabalarda o‘quv materiallarini ijodiy o‘zlashtirish motivlarni shakllantirish. O‘quv biluv jarayonida talabalarga ko‘proq mustaqil ishlash uchun sharoit yaratish.

2. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarning ijodiy ishlari ko‘lamini yanada kengaytirish. Talabalar oldiga kreativ fikrlashni talab qiladigan muammolli savollar qo‘yish. Talabalarni ayni bir muammoning bir nechta echimini topishga undash. O‘quv materiallari ustida ijodiy ishlash imkonini beradigan didaktik vaziyatlarni vujudga keltirish. Talabalarning kreativ fikrlash darajalarini hisobga olgan holda ular oldiga individual topshiriqlar qo‘yish.

3. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quv topshiriqlarni echishning bir qancha usullarini taqdim qilish. Talabalarni individual, juftliklarda kichik guruhlarda ishlashlarini tashkil etish orqali kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Talabalarda kreativ fikrlashni shakllantirishning innovatsion usullarini qo‘llash. Talabalarda fikrlash ko‘nikmalarini jadal rivojlantirish imkonini beradigan o‘quv axborotlari va ikkilamchi didaktik loyihalardan foydalanish samarodligini ta’minlash.

4. Talabalarning o‘z ijodiy faoliyatlari mahsulini yaratishlari va namoyish qilishlarini ta’minlash. Talabalarda o‘z fikrlarining mazmun-mohiyatini tushuntirib berish tarjribasini shakllantirish. Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida bahs-munozara, savol-javob, evristik suhbat vaziyatlarini yaratish. Talabalarning o‘z fikrlari, g‘oyalarini guruhdoshlariniki bilan qiyoslashga o‘rgatish.

5. Kreativ fikrlash natijalarini namoyon etish. Talabalarga muammoli topshiriqlarni echish yo‘llarini o‘rgatish.

6. Talabalarning kreativ fikrlash darajalarini tahlil qilish va ushbu yo‘nalishdagi bo‘shliqlarni aniqlash. Talabalarning rang-barang fikrlarini o‘zaro qiyoslash, talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish. Talabalarni kreativ fikrlashga undovchi o‘quv vaziyatlarni tizimlashtirish kabi masalalar o‘z echimini kutmoqda.

7. Talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning nechog‘li zarurligini anglashda amalga oshiriladigan tahlillar muhim o‘rin egallaydi. Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ularning bilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda shakllangan kreativ ko‘nikmalarni baholash uchun ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularda yangi o‘quv materiallarni taqdim etish, muammolarga echim topish layoqatlarini rivojlantirish, muammolarning echimiga ijodiy yondashish usullari bilan qurollantirish taqozo qilinmoqda. Buning uchun talabalarning kreativ tafakkuri, pedagogik hodisalar va muammolarni idrok etish layoqatini rivojlantirish nazarda tutiladi. O‘z-o‘zini rivojlantirish topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajarish kreativ fikrlash mahsuli hisoblanadi. Kreativ fikrlash talabalarni yangiliklar yaratishga undaydi. Uning asosini talabalar tomonidan yaratilgan ijodiy ishlarning namunalari tashkil etadi. Ijodiy ishlar talabalarning kreativ fikrlash layoqati va ijodkorligini namoyon etadi. Aksariyat

hollarda talabalarning kreativ ko‘nikmalari bilan intellektual layoqatlari bir biridan farqlanmaydi. Kreativ fikrlash o‘zining pedagogik-psilogik jihatlariga ko‘ra, intellektdan farq qiladi.

Kreativ fikrlash esa ijodiy fikrlash demakdir.

Intellekt (lot. intellectus – aql, idrok, zehn) – kishining voqea-hodisa mohiyatini to‘laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo‘ladigan faoliyati; insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish, o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqati.

Talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jaryoni murakkab pedagogik xarakterga ega. Shunga ko‘ra talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni o‘quv materiallarining tizimli tarzda taqdim etilishini taqozo qiladi.

Talabalarni intellektual rivojlantirish imokniyatiga ega bo‘lgan o‘quv topshiriqlari yordamida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bir qadar oson kechadi. Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish shaxsning ijodiy layoqatini namoyon qilishi uchun pedagogik asos yaratadi. Kreativ fikrlash talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Kretativ fikrlash natijasida talabalarning ijodiy fikrlash layoqati namoyon bo‘ladi, natijada ularning o‘quv biluv imkoniyatlari kengayadi, o‘z-o‘zini rivojlantirish motivlari hosil bo‘ladi.

Talabalarning axborotlarni izlash, ularni saralash hamda ular ustida ishlash layoqati bevosita kreativ fikrlash bilan bog‘liq. Kreativ fikrlash faoliyatning maqsadi o‘zlashtirilgan o‘quv materiallari va turli darajadagi axborotlarni shakllantirishdan iborat, bu esa ularda hayotiy va kasbiy kompetenesiyalarni hosil qilish bilan bevosita bog‘liq. Pedagogik ta’lim mazmuni talabalarda kreativ fikrlish ko‘nikmalariini rivojlantirish, ular ongiga o‘zbek xalqining ijtimoiy tajribasini singdirishdan iborat. Buning natijasida talabalarda voqelikni ijobiy idrok etish layoqati shakllanadi. Natijada

ularning o‘quv faoliyati barqarorlashib, ijodiy imkoniyatlari kengayadi. Ta’lim jarayonida kognitiv texnologiyalar yordamida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Shunga ko‘ra shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida talabalarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhit vujudga keltiriladi. Ushbu kontekstda o‘quv jarayonining muhim belgisi uning kreativ fikrlashga yo‘naltirilganligidir. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga qay darajada o‘rin ajratish kerak degan xaqli savol tug‘ilmoqda. Kognitiv xarakterdagi pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning mantiqiy kreativ ko‘nikmalarining bosqichma bosqich rivojlantirish nazarda tutiladi. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar talabalarda kreativ fikrlash motivlarini shakllantirish mexanizmlarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratadilar. Pedagogik ta’lim jarayonini loyihalashda professor-o‘qituvchilar talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadiga ustuvor o‘rin ajratadilar. Buning uchun ular o‘quv maqsadlariga erishish mexanizmlari, funksiyalarini takomillashtirishga intiladilar. Ushbu maqsadga erishish uchun zarur o‘quv vositalari, didaktik materiallar, savol va topshiriqlarni tanlaydilar hamda tizimlashtiradilar. Natijada o‘quv jarayoni talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. O‘quv jarayoni esa ta’limning funksional paradigmasidan bir qadar chekinib, kreativ paradigmani tatbiq etishga qaratiladi. Natijada talabalarni kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari kengaytririladi. Pedagogik ta’lim jarayoni maqsadlaridan kelib chiqqan holda uni loyihalash va tashkil etish talabalarning kreativ fikrlash imkoniyatilarini kengaytiradi. Talabalarning kreativ fikrlashga tayyorligi ularda bilish motivlarining rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Ma’lumki, kreativ fikrlash talabalarga refleksiyalash, mustaqil bilim olish, o‘z fikrini erkin bayon etish, ijodiy faollik ko‘rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarining shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalar pedagogik ta’lim mazmunida, shu jumladan o‘quv modullari tarkibida o‘z ifodasini topishi lozim. Natijada talabalarning pedagogika turkumidagi o‘quv predmeti

mazmunini kreativ o‘zlashtirishlari jadallashadi. Chunki, o‘qituvchilik kasbi o‘z xarakteriga ko‘ra muntazam rivojlanishni talab qiladi. Bu esa kasbiy bilimlarni innovatsion usullar yordamida taqdim qilishni taqozo etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy faoliyat sirlarini o‘zlashtirishda intellektual imkoniyatlarini ishga soladilar. Shuning uchun ham ular o‘z o‘zlarini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilar bilan muntazam hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadilar. Bu jarayonda ular muayyan darajadagi intellektual yuklamalarni bajaradilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘qib o‘rganish jarayonida intellektual quvvatlarini ishga solishlari natijasida kasbiy faoliyatidagi zo‘riqish pedagogik hamkorlik jarayonida pasayadi. Oliy pedagogik ta’lim sub’ektlari orasidagi muloqot va hamkorlik talabalarni faollashtirishga xizmat qiladi. Vujudga kelgan turli-tuman nuqtai nazarlarni samarali muvofiqlashtirish va boshqarish uchun ularning har biri muayyan xulq-atvor strategiyalarini qo‘llash orqali echilishi lozim. Buning uchun professor-o‘qituvchilar vujudga kelgan hamkorlik vaziyatlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish tajribasiga ega bo‘lishlari kerak. Shundagina talabalar va professor-o‘qituvchilar qo‘yilgan muammolarga samarali echim topadilar.

Strategiya – bu san’at, reja, qo‘yilgan muayyan maqsadga erishish usuli bo‘lib, u istiqboldagi natijani qisman taqdim etish imkonini beradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da strategiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “strategiya - yunoncha strategiya – stratos-qo‘shin+ago - boshlab boraman degan so‘zlardan olingan bo‘lib: 3. Ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati, shuningdek, umuman, boshqaruvni to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish san’ati”[1] ma’nolarini ifodalaydi. Pedagogik jihatdan o‘quv jarayonini samarali boshqarish san’atini anglatadi.

Insonparvarlik prinsipiga asoslangan kognitiv pedagogikada o‘qituvchi har doim o‘zi qo‘llagan innovatsion usul va metodlarning ijodkori hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o‘quv jarayoni o‘qituvchidan favqulotda ijodkorlikni ham talab qiladi. Bunda kasbiy mahorat ko‘p darajada zaruriyatdan kelib chiqqan holda tanlash ko‘nikmasiga

[1]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- B.573

asoslanadi. Bunday ko‘nikmalarni namoyon qilish uchun o‘qituvchi juda katta pedagogik bilim va mahoratga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘qituvchilar pedagogikada mavjud tajribalar ustida ijodiy fikrlashlari, shubhalarga o‘rin qoldirmasliklari, ilg‘or pedagogik qarashlarni o‘zlashtirishlari va o‘z faoliyatlariga tatbiq eta olishlari, kasbiy faoliyatlarini shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatlarda bo‘lajak o‘qituvchilarga ko‘maklashishga qarata olishlari zarur. Xuddi mana shu tarzda o‘qituvchining o‘quv materiallari va bo‘lajak o‘qituvchilarga nisbatan shaxsiy munosabati, taktikasi tarkib topadi.

Pedagogik hamkorlik strategiyasi o‘qituvchi pedagogik faoliyatining yuqori darajada istiqbolga yo‘naltirilgan shaklidir. U metodologik xarakterdagi kasbiy ko‘nikmalarda namoyon bo‘ladi. Jumladan: mavjud hodisalarni chuqurroq anglash, uning haqiqiy mohiyatini tushunish, aniq va yashirin sabablarini anglab etish, nazariya va amaliyot orasida munosabat o‘rnatish, jarayon maqsadini aniqlash, o‘quv-tarbiya vazifalarini muayyan prinsiplarga asoslangan holda oydinlashtirish, pedagogik hamkorlik shartlari va vositalarini tanlash imkonini beradi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari qo‘llanadigan usullarning samaradorligini ta’minlab, ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar bilan bevosita munosabatlarni o‘rnatish imkonini beradi. Pedagogik hamkorlik strategiyalari o‘qituvchilarning kasb mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan yopiq xarakterdagi bilish jarayonlarida kasbiy ongning faoliyatga asoslanmagan shakllarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari yordamida o‘qituvchilarning pedagogik ongi oddiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tezkor va tashqi tomondan samarali bo‘lgan vositalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilar ongiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday vaziyatda ongning faoliyati qo‘zg‘almaydi, balki hissiy ta’sirlar amalga oshadi. Shuning uchun ham o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishdagi istiqbolli yo‘nalishlardan biri ularning shaxsiy ongini pedagogik hamkorlik strategiyalari bilan boyitishdan iborat. Buning uchun o‘qituvchilarning tanqidiy, yo‘naltiruvchi, fikriy-ijodiy, nazariy-tahliliy ongini

rivojlantirish nazarda tutiladi. Xuddi shunday kasbiy ongga ega bo‘lgan o‘qituvchilar faoliyati orqali pedagogik ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Chunonchi:

a) pedagogik ta’sirning ahamiyatini aniqlash;

b) bo‘lajak o‘qituvchilar bilan munosabatda o‘z mavqeiga ega bo‘lish;

v) dialogning ahamiyatini tushunib etish;

g) bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy o‘ziga xosliklarini anglash kabilar.

Chunki bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchilarga beriladigan ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmuni hamda yo‘nalishlarini oydinlashtirish imkonini beradi.

Hamkorlikdagi pedagogik jarayonning asosiy qadriyati o‘qituvchi tomonidan ta’minlanadigan bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish, rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishdan iborat. O‘qituvchilar hamkorlik strategiyalari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar ongiga ta’sir ko‘rsatish vositalarini tanlaydilar. Yaqin-yaqinlargacha “strategiya” tushunchasi pedagogikada o‘z mohiyatiga ega bo‘lmagan. O‘tgan asrning 90 yillaridan boshlab, psixologiya va falsafada strategiya shaxsning uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturlarni tanlashi, bashorat qilishini tashkil etish maqsadida foydalanila boshlandi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “strategiya” tushunchasi falsafa va psixologiyada shaxsning mustaqil shakllanishini amalga oshirish yo‘nalishi, tashqi ko‘maksiz o‘z-o‘zini tarkib toptirish jarayoni sifatida tahlil etiladi.

Strategiya hayotning mohiyati, u haqidagi aniq fikr, uning rejasi tarzida vujudga kelib, mazkur rejaning amalga oshishi shaxsning ideal hamda real voqelik orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishi natijasida hosil bo‘ladi. Ushbu ko‘nikmalar shaxsning alohida o‘ziga xos sifatlari tarzida namoyon bo‘lib, xarakter va layoqatlardan farqlanadi. Strategiya ular uchun faoliyatni amalga oshish imkonini beradi va qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

O‘zaro kelishish hamkorlikka kirishish istagini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liqdir. Bundan ko‘zlanadigan asosiy maqsad muammoning echimidan to‘liq yoki qisman qoniqish hosil qilishdan iborat. Bu jarayonda talabalar bilan professor-o‘qituvchilar bir-birlarining talablari va qiziqshlarini to‘liq hisobga olishlari lozim.

Mazkur uslub – strategiya - muammoli vaziyatlarda bo‘lajak o‘qituvchi yoki bo‘lajak o‘qituvchilar jamoasining quvvatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Bu jarayonda professor-o‘qituvchi vujudga kelgan turli-tuman nuqtai nazarlarni muvaffaqiyatli yo‘naltira olishi kerak. O‘zaro munosabatlardan qoniqish hosil qilish betaraf yoki ijobiy bo‘lishidan qat’iy nazar har ikkala tomonni ham qanoatlantirishga asoslanadi. Shak-shubhasiz, mazkur strategiya bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlari va guruhdoshlari nimani xohlashlarini bilganlaridagina o‘zaro munosabatlarni barqarorlashtirishga ko‘maklashadi.

Hamkorlik har ikkala tomonning o‘zaro munosabatlari va majburlamaslik prinsipiga asoslanadi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi barcha uchun umumiy bo‘lgan muammolarni birgalikda muhokama yo‘li bilan echishdan iborat. Ushbu strategiyani qo‘llash jarayonida ishtirokchilar jarayon va uning natijalaridan to‘liq qoniqish hosil qiladilar. Mazkur uslub, birinchi navbatda, o‘zaro hurmat hamda munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishdan manfaatdorlikka asoslanadi. Aynan xuddi mana shu strategiyani barcha vaziyatlarda qo‘llash mumkin. Biroq u juda ko‘p vaqtni talab qiladi. Pedagogik vaziyatlarda xulq-atvorning bunday uslubini amalga oshirish muammoli vaziyatlarni to‘laqonli diagnostika qilish natijalariga asoslangan holda amalga oshirilishi kerak. Bunda tashqi omillar bilan bir qatorda ichki, yashirin sabablar ham hisobga olinadi.

Kelishuvchanlik va o‘zaro hamkorlik pedagogik vaziyatlarni samarali tashkil etish imkonini beradi. Ularni innovatsion usullar yordamida tashkil etish orqali dastlabki bosqichidayoq kutilgan natijaga erishish mumkin. Bu jarayonda hamkorlik vaziyatiga barcha talabalar jalb etiladilar va har ikki taraf uchun maqbul bo‘lgan echim topishga erishadilar. Ba’zi hollarda vujudga kelgan muammolar jarayon ishtirokchilari uchun u qadar katta ahamiyat kasb etmaydi. Bunday sharoitda moslashish yoki chekinish strategiyalaridan foydalaniladi. Shuning uchun ham muammolardan uzoqlashish maqsadida moslashish va chekinish strategiyalaridan foydalanish

maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu strategiyalar pedagogik jarayonni muvaffaqiyat sari yo‘naltirish imkoniyatiga ega.

Pedagogik hamkorlik jarayonini rivojlantiruvchi strategiyalar ichida eng samaradorlari o‘zaro kelishuvga asoslangan strategiyalar, hamkorlik strategiyalari, chekinish va moslashish strategiyalaridir. Qo‘llaniladigan strategiyalarning muvaffaqiyati hamkorlik jarayonining muayyan darajada insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda amalga oshirilishiga bog‘liq. Bunda hamkorlik jarayonida ishtirokchilarining qiziqishlari, ehtiyojlari, tayanadigan qadriyatlarini aniq hisobga olish talab etiladi.

Pedagogik hamkorlik g‘oyasi bugungi kunda mutaxassislar e’tiborini o‘ziga jalb qilib, pedagogik sinergetikaning keng ko‘lamda rivojlanishiga asos bo‘lmoqda. Bu bir qator yo‘nalishlar va ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topmoqda. Chunonchi:

1. Oliy pedagogk ta’lim mazmuniga pedagogik hamkorlik nazariyasiga oid yondashuvlarni singdirish.
2. Pedagogik hamkorlikka oid nazariy yondashuvlardan o‘quv modullarini shakllantirishda foydalanish.
3. Hamkorlik strategiyalaridan pedagogik ta’lim jarayonini akmeologik yondashuv asosida tashkil etishda foydalanish kabilar.

Bugungi kunga kelib, sinergetikaga oid nazariy yondashuvlarga murojaat qilinishi va uning pedagogik jarayon modullariga kirib borishi pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi fanlar mazuniga kirib borishini ta’minlashni taqozo etmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik jarayonni to‘liq idrok etishlariga imkoniyat yaratishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

2-BO‘LIM. KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TA’LIM OLUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH FAOLIYATLARINI TIZIMLI TARZDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

2.1. Kognitiv jarayonlarning ta’lim muassasasidagi madaniy muhitda o‘quvchilarni rivojlantirish imkoniyatiga egaligi

Zamonaviy ta’lim siyosati XXI-asr talablariga javob berishi, yangi tipdagi intellektning shakllanishi, yangicha tafakkur qilish va layoqatni namoyon etish, tez o‘zgaradigan atrof-muhitga moslashish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga qaratilishi lozim. Bu masalalar kognitiv Bu masalalar kognitiv pedagogikada yetakchi o‘rin egallaydi. Buning uchun ta’lim oluvchilar ijtimoiy, iqtisodiy sohalar, yangi texnologiyalarga oid bilimlar, axborotlar bilan qurollantirilishlari kerak.

Ta’lim tizimida yangi pedagogik paradigmaga tayangan holda kognitiv hamda rivojlantiruvchi ta’lim metodlari ishlab chiqilishini ta’minlash lozim. Pedagogika ensiklopediyasida “Pedagogik paradigma (grekcha – namuna, etalon) – pedagogikadagi ilmiy muammolarni hal etish namunasi, etaloni sifatida qabul qilingan nazariya”[2] tarzida keltirilgan.

Ta’lim shaxsni kognitiv ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi va uni ijod qilishga undaydi. Bu esa yosh avlodni davlat va jamiyat talablariga mutanosib tarzda kelgusi hayotga tayyorlash imkonini beradi. Ta’limning zamonaviy texnologiyalarini izlash va ishlab chiqishda asosiy e’tiborni ta’lim oluvchilarning individual layoqatlarini hisobga olishga qaratish lozim. Unda ta’lim oluvchilarning intellektual, ijodiy rivojlanishlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, yoshlarni tarbiyalash

[2] Pedagogika: ensiklopediya. III jild. Jamoa // –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b. 94-бет

va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish”[3] kabi ustivor yo‘nalishlar belgilangan.

Bugungi globallashuv jarayonida o‘quvchilarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini izlash, birorta ham iqtidorli bolaning e’tibordan chetda qolmasligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Yuqorida bayon qilingan omillar farazimizning aniqligi, amaliy xarakter kasb etishi va bashoratlovchi qimmatga egaligini tasdiqlaydi. Chunonchi: ta’lim jarayonida birinchi o‘ringa o‘quvchilarni tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan holda shakllantirish, ularda ijodiy layoqatlarni tarkib toptirish, XXI-asr da’vatiga ko‘ra, jamiyatning harakatlantiruvchi va taraqqiyotidagi istiqbolli yo‘nalishlar, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashning asosiy shart-sharoitlari ishlab chiqiladi.

O‘quvchining shaxsiyati uchta asosiy ko‘rsatkichga ega:

1) uning asosiy sifatlari barqaror birlik sifatida, jumladan, xarakteri, temperamenti, layoqati;

2) shaxslararo munosabatlar va hamkorlik subyekti sifatida;

3) boshqa shaxslar hayotiy faoliyatidagi individ, shakllanish uchun ehtiyoj va layoqatga zaruriyat sezuvchi, maktabda o‘qish davomida ijtimoiy faoliyatga ehtiyojmand shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxs yaxlit birlik sifatida – faoliyat ko‘rsatuvchi faol birlik, bu o‘ziga xos faollik dunyosida harakatlanuvchi, o‘zini namoyon qiluvchi ijodkor. Shu bilan bir qatorda shaxs – tarixiy jarayonning sub’ekti, bir butun ijtimoiy birlikda mavjud hodisa.

Shaxs – bu erkin mavjudot bo‘lib, ongli, maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zini jamiyatga qarshi qo‘ymasdan ijtimoiy zaruriyatlar doirasida harakat qiluvchi birlik. Shaxsni shakllanish va rivojlanish jarayoni o‘zida tarixiy-ijtioiy tajribani mujassamlashtiradi. Ma’lumki, ta’lim tizimi orqali mustaqil fuqaroni shakllantirish

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. https://lex.uz

nazarda tutilgan. Bu jarayon uzluksiz tarzda insonni intellektual, ma’naviy-madaniy, jismoniy rivojlantirish bilan bog‘liqdir.

Jahon hamjamiyatining bugungi kundagi taraqqiyoti innovatsion jarayonlarning jadal o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Chunki innovatsiyalar borgan sari ko‘proq tarzda madaniy taraqqiyotning etakchi ko‘rsatkichi vazifasini bajarmoqda. Taraqqiyotning asosiy sharti jamiyat hayotining turli sohalaridagi o‘zgarishlarga ongli tarzda shaxsiy tayyorlik va uni qadriyat sifatida idrok etishdan iboratdir.

Hozirgi taraqqiyot sharoitida ta’lim tizimini isloh qilish dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. YuNESKO ma’lumotlari[4]da ta’kidlanishicha, buning asosiy sabablaridan biri, yangicha yuksak tafakkur egasini shakllantirish zaruriyatidir. Bunday kishilar ijtimoiy-madaniy jarayonlarga faol ishtirok etish layoqatiga ega bo‘lishlari lozim. Inson o‘zi va o‘rab turgan atrof-muhitni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bunday kishilar bilimlar, ko‘nikmalar va munosabatlarning o‘ziga xosligiga asoslangan holda shakllanishlari lozim.

Aynan bilimlar sohasida:

- mahalliy, global aloqadorliklar va munosabatlarga oid bilimlar;
- ulkan tizimlar;
- tizimlarning tabiati va ahamiyati;
- bilimlar sohasi orasidagi aloqalar;
- insonning umumiy ehtiyojlari;
- inson o‘zini yaxlit shaxs sifatida namoyon qilishi, chunonchi, shaxsiy nuqtai-nazarlari, qadriyatlari va dunyoqarashi, etukligi, kamchiliklari, quvvatlarini ko‘rsata olishi;
- shaxslararo va global darajada muammoli, tanqidiy masalalar;
- masalalarga turlicha qarashlar;
- o‘tmish, bugun va kelajak orasidagi o‘zaro aloqalar;

[4] https://www.unesco.org/

- o‘zida imkonyat doirasida ishonchli, taxmin qilingan kelajak tiplarini ifodalashi;
- barqaror rivojlanish kabilar.

Ko‘nikmalar sirasida:

- tizimlar va aloqalarning kiritilishi;
- tizimli tafakkur, tizimdagi tushunishlar, ta’sirlar va o‘zgarishlar;
- shaxslararo aloqalar;
- hamkorlik;
- tadqiq qilish va o‘rganish;
- baholar, axborotlarni tashkil etish va taqdim etish;
- tendensiyalar tahlili;
- individual-shaxsiy hukmlar va qarorlar qabul qilish;
- ijodiy tafakkur qilish va masalaga har tomonlama yondashish;
- muammolarning echimi;
- xususiy tafakkur va tahlil;
- o‘ziga xos rivojlanish, chunonchi, hissiy, intellektual, ma’naviy, jismoniy rivojlanish;
- ta’limdagi moslashuvchanlik;
- turli yo‘llar bilan turli kontekstlarda ta’lim berish.

Munosabatlar sohasida:

- o‘zgarishlarga moslashuvchanlik;
- ta’lim olish va boshqalarni o‘qitish istagi;
- ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlab guruhda ishlash istagi;
- boshqa kishilar va ularning muammolariga nisbatan birdamlik hissi;
- muayyan masalalar, jarayonlar, holatlarga qiziquvchanlik;
- boshqalarning fikrlari va nuqtai nazarlari bilan qiziqish;
- boshqa kishilar va madaniyatlarga hamjihatlik;
- o‘zining shaxsiy layoqati va unga ishonch;

- butun hayot davomida o‘qish zarurligini tan olish;
- o‘zgalarning ishonchini qozonish va tabiiylik kabilar.

Bunday yondashuv o‘quvchilarda olam manzarasini yaxlit tarzda tasavvur qilish ko‘nikmasini tarkib toptirish bilan bir qatorda, uzluksiz ta’lim jarayonida butun hayot davomida ta’lim olish imkonini beradi. Bunday ta’lim olish nafaqat umumo‘quv va intellektual bilimlar tizimini o‘zlashtirish, balki ijtimoiy qadriyatli tushunchalarni ham o‘zlashtirish imkonini beradi.

Qadriyatlar hamda insonning olamga qadriyatli munosabatlar tizimini o‘zlashtirishi bugungi taraqqiyot bosqichida o‘ta dolzarb masalalardan biridir[5]. Jamiyatdagi qadriyatlar negizida bu yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan: falsafiy nuqtai nazarlar, dunyoqarash va ishonch, jamiyat hayotining moddiy-madaniy sohalariga oid qarashlarni qayta tafakkurdan o‘tkazish kabilar. Bugun pedagogika fanida qadriyatlar va yoshlarni qadriyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Bu esa davlat va jamiyatning bugungi kuni va kelajagi uchun nihoyatda zarurdir. Aynan yoshlar ijtimoiy o‘zgarishlar jarayonining sub’ekti hisoblanadi. Yoshlar bugungi kunda butun dunyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham ulkan innovatsion kuch sifatida aholining muhim qatlami hisoblanadi.

Yangicha ijtimoiy-madaniy paradigma asosida faol ijtimoiy subyekt sifatida yoshlar ijtimoiy o‘zgarishlar qilishga layoqatli shaxslar bo‘lib, fanda ma’naviy olamni vujudga keltirmoqdalar. Ular din, madaniyat, axloqiy me’yorlarga tayangan holda ijtimoiy taraqqiyotning yangi yo‘nalishini vujudga keltirmoqdalar. Shu bilan bog‘liq tarzda ijtimoiy rivojlanishda ta’lim muhim o‘rin egallamoqda. Aynan ta’lim inson shaxsiyatini shakllantiruvchi asosiy tizim sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Ta’limning birinchi o‘rindagi vazifasi insonda bir qator sifatlar va layoqatlarni rivojlantirishdan iborat. Bu sifatlar va layoqatlar o‘z navbatida insonning hayot kechirishi uchun qulaylik tug‘diradi. Ular yordamida inson jadal

[5] Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi: umumta’lim maktablari uchun.– T.: O‘qituvchi, 1996.- 192 b.

o‘zgaruvchi ijtimoiy sharoitlarga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, qiyinchiliklarga qarshi kurasha oladi. Bu yangiliklarni idrok etish, sifat jihatdan yangi ijtimoiy makonni vujudga keltirish kabilarda namoyon bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlanganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, zamonaviy ta’lim tizimining asosiy negizi – o‘qitishning muqobil variantlarini rivojlantirishdan iborat. Amalda mamlakatimiz va dunyoning butun taraqqiyotida o‘quvchi faol sub’ektga aylanganligini barcha mutaxassislar tushunib etmoqdalar. Bugun pedagoglarning diqqat markazida an’anaviy ta’limda bo‘lgani kabi o‘qitish emas, balki o‘quvchilarning bilish faoliyati, bilish jarayoni turishi lozim. Shuning uchun ham jamiyatning demokratik qurilishiga asoslangan demokratik paradigma inson – jamiyat – davlat – jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan, ta’lim tizimiga tatbiq etilmoqda. Mazkur omil shu bilan bog‘liq holda muhim ahamiyat kasb etadiki, XXI asrda insoniyat yangi, global muammolarni echishga ehtiyojmand. Bu birinchi navbatda dunyoviy tabiiy manbalarning tugashi, energiya sohasidagi inqiroz, ekologik muammolar, inson uchun zarur bo‘lgan manbalar bilan ta’minlashning zarurligi, inson salomatligi, kishilarning qashshoqligi, sanoatning muhim yo‘nalishlari taraqqiyotining qayta baholanishi, insonlar ijtimoiy hayotining yaxshilanishi, barcha xalqlar uchun tinchlikning ta’minlanishi, aholining rivojlangan mamlakatlar darajasiga etishishga bo‘lgan intilishi, tez o‘zgaruvchan dunyoda insonning echilishi zarur bo‘lgan keng ko‘lamli muammolari kabilar.

Shu bilan bir qatorda, butun dunyo xalqlari iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan bugungi kunda dunyoda barcha: moliyaviy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda ulkan qayta qurish ishlari boshlandi. Shuning uchun ham kishilar o‘z qobiqlariga o‘ralib qolmasliklari kerak. Mavjud steriotiplardan qutilish uchun global ta’lim tizimini vujudga keltirish talab etiladi. Mazkur tizim o‘zaro hamkorlik uchun yo‘l ochishi lozim. Mutaxassislarning fikricha, shunday vaziyatdagina g‘alabaga erishish ta’minlanadi. Aks holda esa qo‘lga kiritilgan barcha natijalar barbod bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun ham aniq faraz shundan iboratki, XXI asrda yuqorida ta’kidlanganlarga erishish kaliti ta’limdir. Aynan ta’lim sohasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi. Ta’lim mamlakatning investitsiyalar va yangi texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishlarini tarkib toptiradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosati jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashshuvini ta’minlashga qaratilgan. Bu siyosatning asosini maqsadga intiluvchan mas’uliyatli shaxsni shakllantirish g‘oyasi tashkil etadi. Shuning uchun ham ta’lim mehnat bozori ehtiyojlariga javob berishi lozim. Chunki O‘zbekiston ta’lim tizimi mamlakat istiqboli uchun xizmat qilishi kerak. Uning rivojlanishi ijtimoiy sohaning boshqa yo‘nalishlarini ham taraqqiy ettirishga yo‘naltiriladi. Chunki, aynan, ta’lim jamiyatni sifat jihatdan taraqqiy ettirish maromini belgilaydi. U milliy kelishuvning harakatlanish makonidir. Ijtimoiy integratsiya, mujassamlashtiruvchi ijtimoiy omil sifatida yoshlar jinoyatchiligini oldini olishga xizmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti va inqirozga qarshi dasturlarning amal qilishi ta’limning voqelik bilan mutanosib bo‘lishini taqozo etadi. Mavjud voqelik shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamonda intellekt va shaxs ijodkorligining mohiyati beqiyosdir. Pedagogika fanining mazkur yo‘nalishlarini rivojlantirish uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlari, shu bilan bir qatorda xususiy metodikaga ham xosdir. Bunday vazifalarni amalga oshirish natijasida uchinchi Renessansning poydevorini yarata oladigan yuksak ijtimoiy-madaniy, axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan yosh avlod va raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish imkoniyati vujudga keladi.

Kognitiv jarayonlarning muhim ko‘rinishlaridan biri kommunikatsiyadir. Agar muayyan millatning birgina vakili ham ona tilida so‘zlashish atrofdagilar bilan muloqot o‘rnatishda davom ettirgan taqdirida ham millatning va mazkur tilda so‘zlashuvchilarning bardavomligi ta’minlanadi. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda o‘zbek tilida muloqot qiluvchilar soni o‘ttiz milliondan ortiqni tashkil etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi hukumati ona tili va davlat tili sifatida o‘zbek tilining ravnaqi, uning sofligini saqlash sohasida tinmay g‘amxo‘rlik qilmoqda. Shunga

ko‘ra ona tili ta’limining pedagogik-metodik asoslari rivojlantirilishi, jamiyat a’zolari, ayniqsa, yosh avlodning so‘z boyligi nutq va kommunikativ madaniyatini rivojlantirish har qachongidan ham dolzarblashmoqda. Muloqotning ijtimoiy, axloqiy aspektlari kommunikatsiyaning sifatini ta’minlashda alohida pedagogik ahamiyatga ega. Til orqali amalga oshadigan har qanday kommunikatsiya shaxsning mantiqiy fikrlashi asosida namoyon bo‘ladi. Insonlar o‘zlari va atrofdagilarning muomalasidan rag‘batlanadilar va xafa bo‘ladilar. Kommunikatsiya jarayonida jamiyat a’zolari bir birlarining fikrlari, nuqtai nazarlarini qiyoslaydilar muomala madaniyati me’yorlarini o‘zlashtiradilar va muloqotdoshlarining muomalasidan ibrat oladilar. Bir birlarining fikrlari, o‘zaro munosabatlarini kuzatib aniq xulosalar chiqaradilar. Insonlar har doim kommunikatsiya jarayonida o‘z o‘zlarini tarbiyalashga muvaffaq bo‘lganlar. Ular o‘zlarining mustaqil, fikrlari xulosalariga tayangan holda kommunikatsiya me’yorlarini o‘zlashtiradilar. Yaxshi muomala ibratli xulq-atvor har doim jamiyat a’zolari orasida targ‘ib qilinadi. U kommunikatsiyaning eng samarali vositasi hisoblanadi. O‘quvchi yoshlarda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun birinchi navbatda ularning so‘z boyligini oshirish, so‘z ma’nolarini anglash imkoniyatlarini kengaytirish, til orqali aloqa o‘rnatishga oid nutqiy faoliyatini rivojlantirish talab qilinadi. Ta’lim muassasalarida mahsuldor, ijodiy izlanishga asoslangan metodlar vositasida o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari kengaytiriladi. O‘quvchilar ona tili, adabiyot darslarida turli o‘quv operatsiyalari yordamida nutq me’yorlarini o‘zlashtiradilar. Tahlil-mutolaa qilish, umumlashtirish, farazlarni ilgari surish voqea-hodisalarning mantiqini anglagan holda asoslash, dalillarga tayanib aniq xulosalar chiqarish, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish, aniq hukmlar chiqarish, gaplar va iboralarni konstruksiyalash, turli muloqot matnlarini yaratish kabi o‘quv harakatlarini bajarish jarayonlarida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya jadal rivojlanadi. O‘quvchilarni tanqidiy hamda mantiqiy fikrlashga o‘rgatish uchun dastlab ularning so‘z boyligi so‘z ma’nolarini anglash va izohlash ko‘nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun o‘quvchilarda til birliklarini o‘zlashtirish motivlari

shakllantiriladi. O‘quvchilarning so‘z ustida ishlash, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini muntazam refleksiyalash ham ularda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ularda analitik tahliliy tafakkurni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Buning uchun o‘quv dasturlari va darsliklarning mazmunini o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash hamda so‘z ma’nolari ustida ishlash ko‘nikmalarini tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladigan matnlar, topshiriqlar va pragmatik topshiriqlar bilan boyitish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim mazmunini kompetensiyali yondashuvga asoslangan holda takomillashtirish unda ijodiy topshiriqlar hajmini ko‘paytirish alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchilarning qalbida yoshlikdan boshlab o‘zbek tili va o‘zbek xalqi, uning madaniy boyliklariga muhabbat uyg‘otish orqali kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish talab etilmoqda. Ma’lumki ona tili milliy madaniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa, o‘quvchilar oldiga ularning so‘z boyligini rivojlantirishga xizmat qiladigan aniq topshiriqlar qo‘yish, ona tiliga oid bilimlarini boyitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ona tili darslarida o‘quvchilarga taqdim etiladigan ilmiy axborotlar matnlar, topshiriqlar va nutq odobiga oid o‘quv matnlarini o‘z ichiga oladi. Ona tili darslarida o‘quvchilar oldiga o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladigan o‘quv materiallarini qo‘yish, ularning milliy madaniy dunyoqarashi, so‘z boyligi, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishni ta’minlaydi. Bunday topshiriqar o‘quvchilarning ona tiliga oid bilimlarini faollashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar oldiga ularni mantiqiy mulohaza qilishga undaydigan savol va topshiriqlar qo‘yish alohida ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning ona tilidan o‘zlashtirgan bilimlarini faollashtirishda pragmatik topshiriqlar alohida o‘rin egallaydi. Ona tili ta’limi natijalarining o‘quvchilar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi xarakter kasb etishini ta’minlash uchun pragmatik topshiriqlarning didaktik ahamiyati beqiyos. Mazkur topshiriqlar

o‘quvchilarning lingvistik hamda umummadaniy bilim, ko‘nikma, malakalari hamda umummadaniy duyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtilgan nutqiy hamda lingvistik bilimlarni faollashtiruvchi asosiy manba hisoblanadi.

O‘quvchilar nutq madaniyatiga oid bilimlarni asosan darsda o‘rganish bilan bir qatorda oilada hamda mustaqil bilim olish jarayonida ham o‘zlashtiradilar. Zarur axborotlar va lingvistik qadriyatlarni ham faollashtirishga erishiladi. Buning uchun o‘quvchilar mustaqil o‘qib o‘rganish, o‘qigan badiiy asarlari, ko‘rgan kinofilmlari, sahna namunalari, tinglagan kuy, qo‘shiqlari, tomosha qilgan tasviriy san’at namunalarini sharhlab, ular asosida sinfdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishadilar. Asosiy lingvistik bilimlar, tushunchalar va axborotlarni ajratish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari zarur hisoblanadi. Buning uchun o‘quvchilarning nutq madaniyatiga oid bilimlarini boyitish, badiiy asarlarini o‘qib o‘rganish, ularning til xususiyatlarini anglash ko‘nikmalari tizimli xarakter kasb etishini ta’minlash lozim. Har bir o‘quvchining muloqotga kirishishi uchun zarur so‘z zahirasiga ega bo‘lishi o‘quv jarayonida amalga oshadi. Ona tilini o‘rganish jarayonini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida tashkil etilishi ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

O‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirishda kitobxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Rang-barang ertaklar, dostonlar, bolalar adabiyoti namunalari, ularga ishlangan rasmlar, illyustratsiyalar yordamida o‘quvchilarda kommunikativ madaniyat tarkib topadi. Nutqiy qadriyatlarni o‘rganish asosida o‘zbek xalqining tarixi, xarakterli xususiyatlari, urf-odat va an’analari haqida aniq bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshadi. Buning uchun tavsiya qilinayotgan tarixiy jarayon haqidagi hikoya va qissalar yordamida o‘quvchilarga o‘zbek xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirlar, xalq qahramonlarining faoliyati, jasorati,

ular tayangan qadriyatlar haqidagi asarlarni o‘qish tavsiya qilinadi. Natijada o‘quvchilar katta so‘z zahirasiga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilarni maktab ta’limining ilk davridan boshlab mustaqil fikrlab, til boyliiklarini o‘rganisha oid amaliy faoliyatni amalga oshirishi uchun ularda lingvistik topshiriqlarni bajarishga nisbatan qiziqish, rag‘bat va moyillik uyg‘otish talab etiladi. So‘z ma’nolarini anglagan holda ularni qo‘llashga o‘rgatish orqali ularda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish samaradorligi oshiriladi. So‘z ma’nolarini anglamagan holda matn o‘qish uni tushunmaslikka olib keladi. O‘quvchi tomonidan qo‘llaniladigan so‘zning o‘z o‘rnida izohlagan holda ularga tushuntirish, so‘z ustida ishlashga o‘quvchilarni o‘rgatishga asos bo‘ladi. O‘quvchilarning nuqtini o‘stirishda so‘z ma’nolari ustida ishlash alohida ahamiyatga ega. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, birinchi navbatda o‘quvchilarda lingvistik topshiriqlarni bajarishga nisbatan rag‘bat xosil qilishlari kerak. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda bosqichma bosqich shaxslararo munosabat, muloqot va dialogga kirishish tajribasini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish traektoriyasiga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘qituvchilar har bir o‘quvchining so‘z ma’nolarini o‘zlashtirganlik darajasi va rivojlanish maromini aniq tasavvur qila olishi talab etiladi.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlardan yana biri oilada ota-onalar bilan muloqot madaniyatining samarali shakllanishida hamkorlik qilishdan iborat. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarda kommuniktiv kompetensiyani shakllantirish uchun ularda dastlab o‘quv modullarini shakllantirish talab etiladi. O‘quvchilarda o‘zining kommunikativ kompetensiyasini namoyon qilish motivlarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ularning atrofdagilari bilan muloqot qilinishini ta’minlash talab etiladi.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ishontirish, tushuntirish, zarur lingvistik ma’lumotlarni ularga taqdim etish, nutqiy

kompetensiyaning shakllanishi uchun qulay didaktik vaziyatlar yaratish, o‘quvchilarning diqqatini faollashtirish kabi usul va metodlardan samarali foydalana olishlari kerak. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun ular bilan qiziqarli mavzularda evristik suhbatlar o‘tkazish, verbal hamda vizual xarakterdagi didaktik vositalardan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ijodiy topshiriqlarni mustaqil bajarishlariga ko‘maklashish, kitobxonlik daqiqalarni muntazam tashkil etish, mutolaa vaziyatlari, so‘z ma’nolari ustida ishlash imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. O‘quvchilarning obrazli hamda mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik materiallar hamda ikkilamchi didaktik loyihalardan samarali foydalanish taqozo qilinmoqda. O‘quvchilarda sinfdoshlari bilan muloqot qilish bir birlarining fikrlarini qiyoslash ko‘nikmasini shakllantirish ham alohida pedagogik ahamiyatga ega. O‘quvchilar bir birlarining yozma ishlarini nazorat qilish va baholash jarayonida ham nutq me’yorlarini o‘zlashtiradilar, kamchiliklarini aniqlab tuzatish yo‘llarini izlashga odatlanadilar. O‘quvchilarga o‘z fikrlarini dalillar yordamida asoslash ko‘nikmasini shakllantirish ham kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ona tili o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlaridan biri o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish, ularni mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish dasturiga ega bo‘lishlaridir. O‘quvchilarning intellektual faolligini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali shakllantirishning vositalari, shakllari, usul va metodlarini innovatsion didaktik instrumentariy bilan uyg‘unlashtirish lozim. O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish maqsadida madaniy, badiiy modellar, ularning lingvistik bilimdonligi va axloqiy taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bunday modellar o‘quvchilarda san’at va adabiyotga oid ma’lumotlar hamda bilimlarni o‘zlashtirish motivatsiyasini hosil qiladi.

Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari o‘quvchilarga badiiy estetik mazmundagi o‘quv materiallari hamda madaniy modellarni taqdim etish, ularni tahlil qilish mazkur asarlar yordamida o‘quvchilarning so‘z boyligi, matn ustida ishlash ko‘nikmlarini rivojlantirishga harakat qilishlari muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki, badiiy asarlar o‘quvchilarning so‘z boyligi, badiiy didi, ruhiyatiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirib lingvistik bilimlari va tasavvurlari, muomala odobi, estetik didini boyitishga xizmat qiladi. She’rlar, illyustratsiyala,r kuy va qo‘shiqlarning matn, tasviriy san’at namunalari turli manzaralarning tasviri, muzeydagi eksponantlar haqidagi hikoyalar ham o‘quvchilarning tasavvurlarini kengaytirib, so‘z boyligini oshiradi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash natijasida o‘quvchilarda lingvistik bilimlar va muloqot vaziyatlariga nisbatan ijobiy motivatsiya hosil bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarning she’riy asarlar, tasviriy san’at namunalarini izohlash, ular ustida fikrlash, ular asosida esselar yaratish ko‘nikmalari takomillashadi. O‘quvchilarda kreativ faollikni ta’minlash orqali ham ularda kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantirish mumkin. O‘quvchilar, birinchi navbatda o‘zlarining og‘zaki hamda yozma nutqlarini rivojlantirishlari, muloqotning ahamiyatini anglab etishlari lozim. Buning uchun o‘qituvchilar mahsuldor (produktiv), kreativ, evristik, refleksiv xarakterdagi topshiriqlarni tanlashlari maqsadga muvofiq. O‘qituvchilar o‘quvchilarning mahsuldor nutqiy faoliyatni amalga oshirish tajribasini egallashlariga alohida e’tibor qaratishlari kerak. Buning uchun o‘quvchilarning emotsional, kognitiv, irodaviy, motivatsion, mohiyatli-operatsion hamda ijtimoiy bilimdonlik sohalarini tizimli tarzda rivojlantirishga e’tibor qaratishlari talab etiladi.

Bugungi kunga kelib yangicha o‘qitish modellari va konsepsiyalariga tayangan holda nazariy-pedagogik, kognitiv yondashuvlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Ta’lim jarayonini tashkil etishda madaniyatshunoslik, tarixiy-madaniy, akseologik va akmeologik yondashuvlarni o‘zida mujassamlashtirgan

integrativ xarakterdagi o‘quv modullari ta’lim oluvchilarning shaxsiy-madaniy rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvini ta’minlashga xizmat qila olishini pedagogik tajribalar yaqqol ko‘rsatmoqda. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim islohotlari kontekstida pedagogika nazariyasini o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladigan yangi modellar va konsepsiyalar bilan boyitish zaruriyati kuchaymoqda.

Bugungi kunda butun dunyoda har bir shaxsning boshqalar bilan muloqot, munosabatga kirishishida madaniyatshunoslik yondashuviga ustuvorlik berilmoqda. Chunki, o‘quvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish har qachongidan ko‘ra dolzarblashmoqda. O‘quvchi yoshlar olamni madaniy kontekstlar orqali idrok etib, voqea-hodisalarga tanqidiy boho berish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Buning uchun o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, shunday ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar begona madaniy modellarni osongina o‘zlashtirishlari kuzatilmoqda. O‘qituvchilar har bir o‘quvchini madaniy rivojlantirish asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish dasturiga ega bo‘lishlari, o‘quv jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini izchil tarzda shakllantirishning yangi metodlarini qo‘llashlari lozim. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish natijasida o‘zlikni anglash, mansublik, dahldorlik sifatlari, turli madaniy modellarni o‘zaro qiyoslash va bir biridan farqlay olish layoqati shakllantiriladi. Tanqidiy fikrlash inson aqliy darajasining namoyon bo‘lishi va aqliy kamolotini ta’minlaydi. Uning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarixiy-madaniy modellar va konsepsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Aql, fikr tarbiyasi bilan tasavvuf ta’limoti namoyondalari va ularning izdoshlari izchil tarzda shug‘ullanganlar. Chunki sog‘lom tafakkurga ega bo‘lgan insongina o‘z o‘zini muntazam rivojlantirish hamda vujudga kelgan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, uni munosib baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish natijasida, ularda ob’ektiv nuqtai nazarni hosil qilish

imkoniyati kengayadi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda nazariy tafakkur muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni refleksiyalashga o‘rgatish ham ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shaxsning eng katta boyligi uning fikrlash faoliyati tafakkur tarzi hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari insonga xos bo‘lgan fikrlash faoliyatining fundamental asoslarini yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash faoliyatining vujudga kelishi dinamik tarzda rivojlanuvchi mantiqiy, tanqidiy yoki kognitiv xarakterga ega bo‘lishida turli omillar; birinchi navbatda, pedagogik omillar, ta’lim-tarbiya jarayonining metodik ta’minlanganligi kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik omillar va shart-sharoitlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash faoliyatini shakllantirish maqsadida dastlab ularning ruhiy jarayonlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Chunki insonning fikrlash faoliyati mutafakkir ajdodlarimiz asoslab berganidek, hissiy, aqliy, hamda ratsional va emperik bilishning mahsuli hisoblanadi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari, ilmiy ommabop, badiiy asarlar, o‘quv materiallari yordamida kengayadi. Shuning uchun ham kitob mutolaasi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini faollashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash faoliyatining rivojlanishida bilish usullari muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash faoliyati o‘zining rivojlanish darajalariga ega. Jumladan, kognitiv fikrlash darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilimlar, axborotlarni izlash, ularni chuqur o‘rganish va tanqidiy baholash motivlariga ega bo‘ladilar. Chunki, tanqidiy fikrlash va axborotlarni tanqidiy baholash jarayonida o‘quvchilarning egallagan bilimlari va ijtimoiy tajribasi ortadi. O‘quvchilarda shakllanadigan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari ularga ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Birinchi navbatda, o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvor, hodisalarni o‘zaro qiyoslash, tahlil qilish va munosib baholash tajribasi tarkib topadi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashning tizimli tarzda shakllanishi yangi pedagogik paradigmalarning ta’siri yordamida faollashadi.

Pedagoglar va psixologlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning o‘ziga xos algoritmini ishlab chiqishga xarakat qilmoqdalar. Jumladan, M.Maxmudova, O.Roziqov, B.Adizov, E.G‘oziev, M.Davletshin, M.Maxmutov, F.O.Xodjieva, L.V.Astaxova, M.Arabova, Ye.V.Bondarevskaya, M.V.Klarin, G.A.Kovalev, I.A.Kolesnikova, N.A.Mitina kabilarning ishlarida o‘quvchilarni fikrlashga undovchi didaktik jarayonning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan kognitiv xarakterdagi didaktik jarayon an’anaviy o‘qitish tizimidan tubdan farq qiladi. Mazkur jarayon o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi, ularni faollashtirish imokniyatlari kengligi, bilimlarni kognitiv qabul qilish algoritmlarini muvaffaqiyatli qo‘llash imkonini berishi bilan innovatsion xarakter kasb etadi.

O‘quvchilarda refleksiv faoliyat tajribasini hosil qilish asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zaruriyati kuchaymoqda. Bu esa o‘quv jarayonining asosiy, oraliq va yakuniy maqsadlarida o‘z ifodasini topishi zarurligi namoyon bo‘lmoqda.

Shaxs har doim ijtimoiy-madaniy mavqega ega bo‘ladi. Shaxs madaniy boyliklarni egallash asosida o‘zining ijtimoiy tajribasini kengaytiradi. Buning natijasida tanqidiy fikrlash funksiyasini amalga oshiradi. Shaxs madaniy boyliklarni o‘zlashtirish asosida olamni estetik idrok etadi, uni muvofiq tarzda baholaydi. Tanqidiy fikrlovchi shaxs o‘zida ijobiy fazilatlarni mujassamlashtiradi. Bunday sifatlar o‘quvchilarda asosan ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashning shakllanishi natijasida hosil bo‘ladi. Tanqidiy fikrlash oilaviy hayot tarzi va ta’lim-tarbiya yordamida shakllanadi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning ijtimoiy, ijodiy faolligini ta’minlashga ko‘maklashadi. Har bir o‘quvchi mustaqil, tanqidiy, kreativ fikrlash natijasida o‘zligini anglay oladi va o‘z o‘zini namoyon qiladi.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarda tizimli pedagogik jarayonlarda shakllantiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar narsa-buyumlar, voqea-hodisalarning tabiatini bilib, ularga

ijodiy yondashish, munosib baholash usullarini egallaydilar. Mazkur vaziyatlarda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash faoliyati ularni muvaffaqiyatga undovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda o‘quvchilarda shakllangan tanqidiy hamda kreativ fikrlash mas’uliyatlilik, ishchanlik, faollik, voqea-hodisalarga ijodiy yondashish, ularni munosib baholash ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kognitiv va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yangi, sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijtimoiy pedagogik vaziyatlarni vujudga keltiradi. Natijada har bir o‘quvchining shaxsiy tajribasi, refleksiyalash faoliyati, tanqidiy fikrlash layoqati va ijodiy faolligini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi ularning o‘quv faolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. O‘quvchilar tanqidiy fikrlash natijasida o‘zlarining voqelikka ob’ektiv munosabat bildirish ko‘nikmalarini namoyon qiladilar. O‘quvchilarning aqliy intellektual rivojlanish darajalarini ko‘plab mutaxassislar pedagogik jihatdan tahlil qilganlar. O‘quvchilarning kreativ rivojlanish darajalari ularning ijodiy harakatlarini mustaqil amalga oshirishlari, atrofdagilar bilan madaniy munosabatga kirishishlari, jamiyat a’zolari va bir birlarining ijtimoiy tajribalarini kognitiv o‘zlashtirishlari hamda o‘zaro boyitishlariga asos bo‘ladi.

O‘quvchining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon o‘z mazmuniga ko‘ra kognitiv xarakterga ega. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarining rivojlanish jarayonlarini muvaffaqiyatli loyihalashtira oladilar. Tanqidiy fikrlash natijasida o‘quvchilarning xulq-atvori va kechinmalarida vujudga keladigan o‘zgarishlar pedagogik jihatdan tahlil qilinmagan. Tanqidiy fikrlashning o‘quvchi taraqqiyotiga ko‘maklashadigan jihatlari

va uning didaktik jarayonlarga ko‘rsatdigan ta’siri etarlicha o‘rganilmagan. O‘quvchilarning rivojlanishi ijtimoiy voqelik bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik jarayonda amalga oshadi. Bu voqelik o‘quv vaziyati sifatida namoyon bo‘lib, o‘zida uzviy jihatdan bog‘langan pedagogik shart-sharoitlarni mujassamlashtiradi. Mazkur pedagogik jarayon o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv pedagogikaning yetakchi masalalaridan biri ta’lim oluvchilarda umumadaniy dunyoqarashni shakllantirish va muntazam rivojlantirishdan iborat. Bugungi kunda ta’lim mazmuniga madaniyatshunoslik yondashuvini tatbiq etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, o‘quvchilarning qalbini yoshlikdan boshlab o‘zbek xalqining madaniy boyliklariga oshno qilish, ularda milliy-madaniy dunyoqarashni shakllantirishda madaniyatshunoslik yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun, birinchi navbatda, o‘quvchilar oldiga ularning madaniyatga oid bilimlarini boyitishga xizmat qiladigan o‘quv axborotlarini o‘z ichiga olgan didaktik materiallar, topshiriqlar qo‘yish, o‘quvchilar ongini madaniyatga oid bilimlar bilan boyitish, ularning milliy-madaniyatga oid mavjud bilimlarini faollashtirishga xizmat qiladigan savol va topshiriqlar qo‘yish lozim.

O‘quvchilarning madaniyatshunoslik bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini faollashtirishda pragmatik topshiriqlar alohida ahamiyatga ega. Ta’lim natijalarining o‘quvchilar uchun rivojlantiruvchi xarakter kasb etishini ta’minlashda kognitiv hamda pragmatik topshiriqlarning o‘rni beqiyos. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning umummadaniy dunyoqarashini boyitishda, madaniyatga oid bilimlarini faollashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar madaniyatga oid bilimlarini darsda o‘rganish bilan bir qatorda mustaqil bilim olish davomida ham o‘zlashtirilgan axborotlar va qadriyatlarni faollashtirishga erishadilar. Buning uchun o‘quvchilar mustaqil o‘qib o‘rgangan badiiy asarlari, ertaklar, ko‘rgan kinofilmlari, sahna asarlari, tinglagan kuy-qo‘shiqlari, tomosha qilgan tasviriy san’at namunalaridan milliy madaniyatga xos bo‘lgan asosiy bilim, tushuncha va ma’lumotlarni ajratib olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari kerak.

Shunga ko‘ra o‘qituvchlari o‘quvchilarning madaniyatga oid bilimlarni o‘qish, o‘rganishning tizimli xarakter kasb etishini ta’minlashlari lozim.

Har bir o‘quvchining madaniy dunyoqarashga ega bo‘lishi uchun o‘quv tarbiya jarayonining madaniyatshunoslik yondashuv asosida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishda kitobxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Rang-barang ertaklar va dostonlar, bolalar adabiyoti namunalari va ularga ishlangan rasmlar, illyustatsiyalar yordamida o‘quvchilar milliy-madaniy qadriyatlar, o‘zbek xalqining tarixiga oid xarakterli jihatlar, urf-odat va an’analarni bilib oladilar. O‘quvchilarga mutolaa uchun tavsiya etiladigan tarixiy janrdagi hikoya va qissalar yordamida ular o‘zbek xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirlar, xalq qahramonlarining ibratli faoliyati, jasorati, ular tayangan qadriyatlar haqidagi aniq bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarni maktab ta’limining ilk davridan boshlab mustaqil faoliyat ko‘rsatishga undash, ularda topshiriqlarni bajarishga nisbatan rag‘bat va motivatsiya uyg‘otish, so‘z ma’nolarini anglagan holda qo‘llashga o‘rgatish, o‘quvchilar ma’nosini anglashga qiynalgan so‘zlarning o‘qituvchi tomonidan o‘z o‘rnida izohlashini ta’minlash, ushbu ma’nolarni o‘quvchilarga tushuntirish, so‘z ustida ishlashga ularni odatlantirish o‘qituvchlar faoliyatida etakchilik qilishi lozim. O‘qituvchilar, birinchi navbatda, o‘quvchilarda topshiirqlarni bajarishga nisbatan ongli munosabat tajribasini hosil qilishlari muhim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda bosqima-bosqich shaxslararo munosabat tajribasini hosil qilish ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning madaniy intelektual rivojlanish troektoriyasini aniq belgilab olishi uchun har bir o‘quvchining rivojlanganlik darajasi va rivojlanish maromini aniq tasavvur qila olishi pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning madaniy rivojlanish troektoriyasini belgilashda, o‘qituvchilar ota-onalar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatishlari talab etiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarda o‘quv-biluv faolligini shakllantirish uchun dastlab ularda o‘quv motivlarini hosil qilish nazarda tutiladi. O‘quvchilarida o‘quv-biluv motivlarini

muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ularda qati’yatlilik, maqsad sari intilish kabi zarur sifatlarni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o‘qituvchilar ishontirish, tushuntirish, zarur ma’lumotlarni o‘quvchilarga taqdim etish, ularni madaniyatshunoslikka oid bilim va axborotlar bilan qurollantirish, o‘quv motivlarining muvaffaqiyatli shakllanishi uchun qulay didaktik vaziyatlar yaratish, ta’lim oluvchilarining diqqatini faollashtirish kabi usul va metodlardan o‘z-o‘zidan samarali foydalana olishlari talab etiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan qiziqarli mavzularda evristik suhbatlar o‘tkazish, verbal hamda vizual xarakterdagi didaktik vositalardan qulay vaziyatlarda foydalanish, ijodiy topshiriqlarni o‘quvchilar mustaqil bajarishlari uchun qulay pedagogik muhitni vujudga keltirish, kitobxonlik daqiqalarni muntazam tashkil etish, mutolaa vaziyatlarda so‘z ma’nolari ustida ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv materiallari hamda ikkilamchi didaktik loyihalardan samarali foydalanish, o‘z harakatlarini sinfdoshlariniki bilan qiyoslashga o‘quvchilarni o‘rgatish, o‘z faoliyatini nazorat qilish va baholashga ularni odatlantirish, o‘z fikrlarini dalillar yordamida himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish kabi pedagogik chora-tadbirlarini amalga oshirishlari nazarada tutiladi.

O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi muhim jihatlardan biri o‘quvchilarni madaniy intellektual rivojlantirish dasturiga egaliklarida o‘z ifodasini topadi. Bunda o‘quvchilarni madaniy intellektual rivojlantirish prinsiplariga tayanish tavsiya etiladi. O‘quvchilarning madaniy intelektual faolligini qo‘llab-quvvvtlash va rag‘batlantirish, ularning taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘quvchilarning aqliy kamolotini ta’minlashning samarali shakl, vosita va usullarini qo‘llash, bunda mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan qo‘llanilgan didaktik usul, vosita metodlarii inovatsion didaktik instrumentariylar bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratishlari kerak. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan madaniy-modellar ularning ma’naviy-axloqiy taraqqiyotiga

xizmat qiladi. Bunday madaniy-modellar o‘quvchilarda san’atga oid bilimlarni o‘zlashtirish motivatsiyasini shakllantiradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga badiiy estetik mazmundagi o‘quv materiallari hamda madaniy-modellarni taqdim etishga harakat qilishlari lozim. Chunki madaniy-modellar o‘quvchilarning ruhiyatiga samarali ta’sir ko‘rsatish ikoniyatiga ega. Shu bilan bir qatorda ularning ruhiyatiga ham ta’sir ko‘rsatib, tasavvurlari, estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. She’rlar, illyustratsiyalar, kuy va qo‘shiqlar, tasviriy san’at namunalari, turli manzaralarning tasviri, muzeylardagi eksponantlar shular jumlasidandir. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarda o‘quv-biluv faoliyatiga nisbatan ijodiy xarakterdagi ijobiy motivatsiya xosil bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarda she’riyat, tasviriy faoliyat, musiqa kabi ijodiy faoliyat turlariga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning iqtidori, qiziqishlarining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash mazkur iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish, ularda kreativ faollikni shakllantirish uchun ta’lim oluvchilarning intelektual, madaniy-axloqiy rivojlanish motivlari va qiziqishlarini rag‘batlantirishlari ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar, birinchi navbatda, o‘z amaliy faoliyatlari mohiyatini anglab etishishlari lozim. O‘quvchilar ta’limning dastlabki kunlaridan boshlab produktiv, kreativ, evristik, refleksiv bilishga asoslangan mahsuldor faoliyat tajribasini egallashlariga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Buning uchun o‘quvchilarning emotsional, kognitiv, irodaviy, motivatsion-mohiyatli, operatsion hamda ijtimoiy bilimdonlik sohalarini tizimli tarzda rivojlantirishga e’tibor qaratilishi muhim pedagogik ahamiyatga ega.

O‘quvchilarda kognitiv faollikni ta’minlashda umumiy o‘rta ta’lim maktablardagi madaniy muhit alohida ahamiyatga ega. Pedagogikadagi madaniyatshunoslikka oid zamonviy yondashuvlarning rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Madaniyatshunoslik yondashuviga bo‘lgan asosiy talablar O‘zbekiston jamiyatida globallashuvning tobora kengroq ko‘lam kasb etayotganligi, “ommaviy hamda morganal madaniyat” hurujlarining rivojlanayotgan shaxs ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi kabi omillar bilan bog‘liq. Yoshlarda milliy madaniyatga bo‘lgan

e’tiborning pasayayotganligi pedagogik jarayonlarni madaniyatshunoslik yondashuvi asosida tashkil etishni dolzarblashtirmoqda.

Madaniyatshunoslik yondashuviga asoslanib tashkil etiladigan jarayonlar ta’limiy, tarbiyaviy hamda madaniy rivojlantiruvchi jarayon hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda madaniy boyliklarni egallashga nisbatan motivatsiyani shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Madaniyatshunoslikni anglashga nisbatan zamonaviy yondashuvlarda uning yagona talqini mavjud emas. Madaniyatshunoslik yondashuvi ta’limni madaniy muhit sifatida tashkil etishni nazarda tutadi.

Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining uch xil talqini mavjud. Bular ta’limiy, tarbiyaviy hamda madaniy muhitning yaxlit madaniy maydon sifatida uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi. Pedagogikadagi madaniyatshunoslikning ikkinchi talqini tashkil etiladigan madaniy-pedagogik jarayonlarning yaxlit birlik sifatida o‘z ichiga nazariy, metodologik, amaliy, tashkiliy pedagogik tadbirlarni mujassamlashtiradi. Bunda madaniy qadriyatlarni o‘quvchilarga izchil tarzda taqdim etish nazarda tutiladi. Madaniyatshunoslik yondashuvi shaxsni o‘rganish demakdir. Bunda o‘quvchi yoki talaba shaxsi madaniy modellar bilan o‘zaro munosabatga kirishadi.

Pedagogikada madaniyatshunoslik quyidagi o‘ziga xos jihatlar bilan farqlanadi:

- O‘quvchi yoki talaba madaniy didaktik xarakterdagi pedagogik jarayonning sub’ekti, muayyan madaniy rollarni ijro etuvchi faol shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday shaxs madaniy jihatdan rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatiga ega;
- madaniyatshunoslikka asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi bilan madaniy model o‘rtasida bog‘lovchi, aloqa o‘rnatuvchi sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi;
- o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘zbek xalqining madaniy o‘ziga xosligi bilan tanishtiradi;

- milliy madaniyatning betakrorligi, o‘ziga xosligi, bitmas-tuganmas qadriyat ekanligi, xalqning milliy turmush tarziga xosligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi o‘quvchi shaxsining nuqtai nazarlarini belgilab, unda madaniy qadriyatlar tizimining shakllanishiga ko‘maklashadi. Ta’lim madaniy jarayon hisoblanib, shaxsning shakllanishida uning madaniy fikrlash darajasi muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining muloqoti o‘quvchilarni madaniy rivojlantirish maqsadini nazarda tutadi. Ta’lim muassasasi esa madaniy muhitni o‘zida ifodalagan tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsatishi lozim. Ta’lim muassasasida voqe’likning madaniy qiyofasi yaratilib, milliy madaniyatning istiqboldagi taraqqiyotini belgilab berishi muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining tarkib topishi milliy hamda kasbiy madaniyatni o‘zida mujassamlashtiruvchi pedagogik tizmni yaratish va tadbiq etishni talab qiladi. Yuqoridagi fikrlar asosida pedagogik jarayonning tashkil etilishi natijasida o‘quvchilarning madaniy identifikatsiyasi amalga oshadi. Ular o‘zlarining qaysi millat va xalqqa mansubliklarini anglab etadilar. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- madaniy modellarni qabul qilish;
- milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish va o‘z faoliyatida qo‘llash;
- ijtimoiy munosabatlarni tushunish asosida shaxslararo munosabat tajribasini egallash.

Ushbu tushunchalarning o‘ziga xos jihatlari milliy madaniyatga oid qarashlar va tushunchalar bilan belgilanadi. Ta’lim va tarbiya jarayoniga madaniyatshunoslik yondashuvini tadbiq etish o‘quv jarayoni haqida tasavvurlarni tubdan o‘zgartiradi. Unda taqdim etiladigan ma’lumotlarni tanlashda madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashiladi. Shu tariqa ta’lim jarayonining madaniy asoslari boyitiladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvini ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishga nisbatan muayyan talablar qo‘yiladi. Ta’lim maqsadidan kelib chiqqan holda milliy madaniyatga oid bilimlarning ko‘lamini kengaytirish maqsadi qo‘yiladi. Natijada

o‘quvchilarda milliy urf-odatlar, an’analar va qadriyatlarni o‘rganishga nisbatan kuchli motivatsiya vujudga keladi. Ushbu o‘rinda ta’lim mazmuni tarkibida madaniyatshunoslikka oid ma’lumotlar ko‘lamini kengaytirish nazarda tutiladi. Buning uchun madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashgan holda o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning madaniy qadriyatlarni tizimli tarzda o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi. Natijada ularda aniq maqsadlar, e’tiqodga oid tushunchalar, urf-odatlarga nisbatan hurmat, ajdodlarimizni qadrlash, ularning beqiyos merosini o‘rganishga nisbatan rag‘bat, xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishga intilish vujudga keladi.

Ta’lim jarayoni uchun madaniy muhitni vujudga keltirish muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish uchun ta’lim muassasasining tashkiliy-korporativ madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayoning madaniyatshunoslik yondashuvi asosida tashkil etish kognitiv jarayon sifatida o‘zining nazariy talqiniga ega bo‘lishi lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit sub’ektlari orasidagi o‘zaro munosabatlar pedagogik jarayon sifatida o‘quvchilarning madaniy, ma’naviy-axloqiy rivojlanishlari uchun qulay hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhitga nisbatan sub’ektiv yondashuv o‘qituvchilarning shaxsiy-madaniy tajribasiga bevosita bog‘liq. O‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda madaniy-ta’limiy muhitda ular bilan ishlash usullari, vositalari, metodlari, texnologiyalari, shakllari va prinsiplari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi. Bunda o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy, diniy, milliy, yosh xususiyatlari bilan bog‘liq o‘ziga xosliklari alohida hisobga olinadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit ta’lim muassasasi hayotidagi o‘ziga xos jihatlarni namoyon etadi. O‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari bilan birgalikda o‘quvchilarning quvvatlari, ruhiy imkoniyatlari maktab hayotiga xos bo‘lgan madaniy muhitni yaratishga ko‘maklashadi. Natijada ta’lim muassasasi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiruvchi madaniy jarayonga aylanadi.

Ta’lim muassasasining muvaffaqiyati jarayon sub’ektlarining shaxsiy qiziqishlari va manfaatlarini o‘zida mujassamlashtirida. Bunda o‘quvchilar ota-onalar va o‘qituvchilarning manfaatlari uyg‘unlashadi va yagona maqsad sari yo‘naltiriladi. Ta’lim muassasasida o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari boshqa barcha ko‘rsatgichlar bilan uyg‘unlashadi va madaniy ta’limiy muhitning samarali kechishiga ko‘maklashadi. Buning natijasida o‘quvchiarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Yuqori darajada tashkil etilgan madaniy ta’limiy muhitda har bir o‘quvchining yutuqqa erishishi kafolatlanadi. Buning uchun o‘quvchilar qulay tarzda uyg‘unlashtirilgan integrativ xarakterdagi o‘quv topshiriqlarni bajarish layoqatiga ega bo‘lishlari lozim. Jumladan:

- maktabdagi madaniy-ta’limiy jarayonda asosiy hamda qo‘shimcha ta’lim uchun qulay sharoitning yaratilishi;
- o‘quv faoliyatining turli-tuman xarakter va shaklga ega bo‘lishi;
- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari va o‘quvchilarning individual layoqatlarining muvofiqlashuvi;
- o‘quvchilar o‘quv faoliyatining hissiy-emotsional hamda psixologik jihatdan qulayligi va o‘quv faoliyati jadalligining ta’minlanganligi kabilar.

Madaniy-ta’limiy muhitning o‘quvchilar uchun jozibador bo‘lishi uning uzluksizligini ta’minlash orqali vujudga keladi. Uzluksiz madaniy rivojlanish jarayonida urf-odatlar va an’analarga sadoqat ruhida o‘quvchilarni tarbiyalash ustuvor o‘rin egallashi lozim. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasida yaratilgan madaniy-ta’limiy muhit pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari uchun qulay va jozibador bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Mazkur muhitning asosini istiqbolga yo‘naltirilganlik, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga ustuvorlik berish, ijodkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, o‘yin faoliyatini amalga oshirish, madaniy rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lish kabi prinsiplar tashkil etadi.

Bunday ta’limiy muhitning asosiy maqsadi o‘quvchilarning madaniy-ma’naviy, axloqiy, huquqiy rivojlanishlari uchun vasiyat yaratishdan iborat. Mazkur muhitda

o‘quvchilar bilimlarni egallashga astoydil intiladilar va sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek har bir o‘qituvchining o‘z pedagogik mahoratini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keladi. Natijada bunday ta’limiy muhitda har bir o‘quvchininng madaniy jihatdan rivojlanishi bilan bir qatorda sinf jamoasidagi barcha o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashi va madaniy, axloqiy, ma’naviy jihatdan rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit yagona kompleks xarakterdagi ta’limiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniy-ta’limiy muhitning barcha tarkibiy qismlari muayyan-mantiqiy asosga ega bo‘lgan pedagogik jarayon sifatida maktab jamoasi tomonidan loyihalashtiriladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit uchun tanlangan strategiyalarning muvaffaqiyatli tadbiq etilishi kundalik pedagogik amaliyotda quyidagi prinsiplarga amal qilish zarurligini ko‘rsatmoqda:

- an’analarning uzvuyligi va aloqadorligini ta’minlash prinsipi;
- o‘quvchilarning madaniy-ta’limiy faoliyatining rivojlanishiga erishish prinsipi;
- o‘quvchilarning layoqatlari qiziqishlari, moyilliklarini hisobga olgan holda madaniy muhitni kengaytirish pirnsipi;
- ta’limning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishda o‘quvchilarning shaxsiy, ta’limiy faoliyati ko‘lamini mustaqil tanlashlarini ta’minlash prinsipi;
- o‘quvchi va o‘qituvchilarni madaniy-ta’limiy muhitga olib kirish prinsipi;
- har bir o‘quvchining o‘z nuqtai nazarini aniqlash va namoyon etishda tengligini ta’minlash prinsipi;
- o‘quv jarayoni bilan bir qatorda maktabdagi madaniy hordiq chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga erishish prinsipi;
- madaniy ta’limiy muhitda sub’ektlarning o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlarida teng huquqlilikni ta’minlash prinsipi;

- madaniy-ta’limiy jarayonda o‘quv maqsadlari, vositalari, usullari, metodlari va texnologiyalari uzviyligining ta’minlanganligi prinsipi;
- har bir o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ta’limiy vositalarning qulayligi ta’minlanganligi prinsipi;
- madaniy-ta’limiy jarayonda reproduktiv topshiriqlarning maksimal darajada kamaytirilganligi prinsipi;
- dars va sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari samaradorligining ta’minlanganligi prinsipi;
- o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalari ob’ektivligining ta’minlanganlini prinsipi.

Ushbu prinsiplarga amal qilish natijasida ta’lim jarayonida madaniy-ta’limiy muhitda hisobga olish zarur bo‘lgan shartlar bajariladi. Aniq madaniy-ta’limiy jaryonda uzluksiz rivojlanish g‘oyasi o‘quvchilarning madaniy rivojlanish va o‘qib-o‘rganish motivlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Maktabdagi madaniy-ta’limiy muhitda xalqning madaniy boyliklarini o‘zlashtirish g‘oyasini amaliyotga tadbiq etish talab qilinmoqda. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish darajasi mavjud.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining asosiy funksiyalaridan biri har bir o‘quvchining o‘ziga xos jihatlarini aniq va ravshan ochib berishdan iborat. Mazkur jarayonda o‘quvchilarni madaniy-axloqiy jihatdan rivojlantirib, ularda fidoyilik, pozitiv dunyoqarashga ega bo‘lish, o‘z-o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilish, bunyodkorlikka intilish kabi sifatlarni tarkib toptirish talab etiladi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xosligi uning rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘zining faoliyat yo‘nalishini aniqlab olish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilar o‘z faoliyatlari natijalarini aniq tasavvur qilib, baholash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Natijada ularda o‘z kuchiga ishonch, yangi yutuqlarga erishishga intilish motivlari shakllanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan madaniy-ta’limiy muhitning shakllantirilishi pedagoglar va o‘quvchilardan vaqt, kuch va sabr-toqatni talab qiladi. Bunda o‘zaro bir-

birini rivojlantiruvchi munosabatlar o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasida vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar, o‘qituvchilar bilan ota-onalar, o‘quvchilar bilan mikrosotsiumning boshqa vakillari orasida ham madaniy-ta’limiy munosabatlar shakllanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy-ta’limiy muhitning shakllanishiga quyidagilar asos bo‘la oladi:

1. O‘quvchi shaxsining o‘zligini namoyon qilish g‘oyasi ta’lim muassasasining madaniy-ta’limiy muhitida amalga oshadi.

2. Yaxlit, ochiq xarakterdagi, o‘z o‘zin rivojlantiruvchi muhitni yaratish g‘oyasi ta’lim muassasasining sub’ektlarini o‘z o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi madaniy-ta’limiy muhitida amalga oshadi.

3. Ta’lim jarayonini yangilash g‘oyasi esa pedagogik amaliyotda uning asosiy tarkibiy qismlarini modernizatsiyalash natijasida amalga oshiriladi. Ushbu qismlar ta’lim mazmuni, usullari, vositalari, shakl, metod va texnologiyalardan iborat.

4. Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini madaniy-ta’limiy muhitga yo‘naltirish g‘oyasi esa ularini qo‘llab-quvvatlash va maqsad sari yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi.

5. O‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetensiyalarini rivojlantirish g‘oyasi madaniy-ta’limiy muhitning etakchi masalalaridan biri hisoblanadi.

6. Ta’lim muassasasida o‘quvchilarning salomatligini muhofaza qilish g‘oyasi madaniy-ta’limiy muhitning tarkibiy qismiga aylantirilishi taqozo qilinmoqda.

Madaniy-ta’limiy muhitning barcha a’zolari o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish funksiyasini amalga oshirishlari zarur. Biz o‘quvchilar, ularning ota-onalari va pedagoglarning ta’lim muassasasidagi madaniy-ta’limiy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatishlari zarurligi haqidagi g‘oyani qo‘lab-quvvatlaymiz va tadbiq etishga harakat qilamiz. Buning uchun madaniy-ta’limiy muhitning barcha sub’ektlari orasida hamkorlikdagi faoliyat amalga oshirilishi zarur.

2.2. Kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayonlarda ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari

Ta’lim jarayonida sub’ektlarining faoliyat ko‘rsatish vositalarini yangilash taqozo qilmoqda. Bunday yangilanish o‘qituvchi-o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatining umumiy xususiyatlarini belgilaydi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi didaktik vositalar sirasiga darsliklar, o‘quv adabiyotlari, raqamli didaktik vositalar, o‘qitishning innovatsion usullarini kiritish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘rsatkichini ta’minlash, uni frontal topshiriqlardan ozod qilish, mustaqil fikrlashi uchun keng yo‘l ochish, yangiliklar yaratishiga imkoniyat berish, o‘zi uchun individual ta’lim yo‘nalishini tanlashiga ko‘maklashishdan iborat.

Shaxsning kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadigan vositalar sirasiga o‘quv materiallari, savol va topshiriqlar, badiiy asarlarni kiritish mumkin. Ta’lim oluvchilarning kreativ ko‘nikmalarini namoyon qilishini har doim pedagoglar, ota-onalar qo‘llab-quvvatlashi, mazkur ko‘nikmalarni rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Kreativlik shaxsning ichki imkoniyatlari namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Mutafakkir ajdodlarimiz yoshlarda kreativ fikrlashning shakllanishiga alohida e’tibor qaratganlar. Kreativlikning ruhiy jarayonlar bilan bog‘liq jihatlarini ilmiy asoslashga harakat qilganlar. Ular aqliy bilish, hissiy bilish, imperik bilish, ratsional bilish jarayonlari bilan bog‘liq holda shaxsning kreativligini asoslashga muvaffaq bo‘lganlar. Inson kreativ fikrlash natijasida o‘z oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadlarga erishadi. Uning qarashlari, e’tiqodlari, farazlari kreativ fikrlash mahsuli hisoblanadi. Kreativ fikrlash o‘z mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli hodisa hisoblanadi. Kreativ fikrlovchi insonlar millat va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xissa qo‘sha oladi. Shaxsning kreativ fikrlash ko‘nikmalari uning turmush tarzini belgilaydi va kundalik ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Yangi ixtirolar, ijod namunalari, kreativ fikrlash mahsuli hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda fikrlash tufayli yangi g‘oyalar va farazlar ilgari suriladi, tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Kreativlik (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va echimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati[1].

Shunga ko‘ra kreativlik ta’lim oluvchilarning maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy xatti-harakatlari ifodasi bo‘lib, u original g‘oyalarni yaratish, jadallik, ishchanlik, atrof-muhitga estetik munosabatda bo‘lish, o‘z-o‘zini anglash, refleksiya kabi shaxsiy sifatlarning majmuini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib shaxsning kreativ fikrlashi tezkorlik, hozirjavoblik, mobillik, ishchanlik bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish orqali ularning layoqatlari, iqtidorlarini namoyon qilish imkoniyati vujudga keladi.

Ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatishda dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatishda barcha boshqa vositalar bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetensiyasi muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayonda evristik topshiriqlardan keng ko‘lamda foydalanish tavsiya etiladi. Evristik topshiriqlar ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarning hosil bo‘lishida muhim o‘rin egallaydi. Chunki ushbu topshiriqlarni bajarish davomida ta’lim oluvchilar ijodiy izlanishga muvaffaq bo‘ladilar. Evristik topshiriqlar ta’lim oluvchilarni o‘quvchilarni ijodiy izlanishga va ijodiy faoliyat natijasini namoyon etishga undaydi. Ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyatlari natijalarning muntazam nazorat qilish va takomillashtirish o‘qituvchidan alohida kasbiy mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Milliy ta’lim dasturida ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatishga ustuvor ahamiyat berilgan. Kreativ fikrlash natijasida ta’lim jarayoni sub’yektlari orasida ishchan muloqot va hamkorlik ta’minlanadi. O‘qituvchilar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida qulay pedagogik vaziyatlarni

[1] Педагогика: энциклопедия. II жилд / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. 376 б. 198-б.

yaratishlari lozim. O‘qituvchilar ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish uchun o‘quv jarayonida bir qator qulay vaziyatlarni yaratishlari va bosqichma bosqich kreativ fikrlashga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlarni ko‘paytirib borishlari talab etiladi.

1. Voqea-hodisalar, ilmiy tushunchalar haqida ta’lim oluvchilarga batafsil ma’lumot beradigan o‘quv vaziyatlarini yaratish. Ta’lim oluvchilarda o‘quv materiallarini ijodiy o‘zlashtirish motivlarni shakllantirish. O‘quv-biluv jarayonida ta’lim oluvchilarga ko‘proq mustaqil ishlash uchun sharoit yaratish.

2. Ijtimoyi gumanitar yo‘nalishdagi o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarning ijodiy ishlari ko‘lamini yanada kengaytirish. Ta’lim oluvchilar oldiga kreativ fikrlashni talab qiladigan muammolli savollar qo‘yish. Ta’lim oluvchilarni ayni bir muammoning bir nechta echimini topishga undash. O‘quv materiallari ustida ijodiy ishlash imkonini beradigan didaktik vaziyatlarni vujudga keltirish. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash darajalarini hisobga olgan holda ular oldiga individual topshiriqlar qo‘yish.

3. O‘quv topshiriqlarni bajarishning bir qancha usullarini taqdim qilish. Ta’lim oluvchilarni individual, juftliklarda kichik guruhlarda ishlashlarini tashkil etish orqali fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlashni rivojlantirishning innovatsion usullarini qo‘llash, fikrlash ko‘nikmalarini jadal rivojlantirish imkonini beradigan o‘quv axborotlari va ikkilamchi didaktik loyihalaridan foydalanish samaradorligini ta’minlash.

4. Ta’lim oluvchilarning o‘z ijodiy faoliyatlari mahsulini yaratishlari va namoyish qilishlarini ta’minlash, o‘z fikrlarining mazmun-mohiyatini tushuntirib berish tarjribasini boyitish, kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida bahs-munozara, savol-javob, evristik suhbat vaziyatlarini yaratish, o‘z fikrlari, g‘oyalarini guruhdoshlariniki bilan qiyoslashga o‘rgatish.

5. Kreativ fikrlash natijalarini namoyon etish. Ta’lim oluvchilarga muammoli topshiriqlarni bajarish yo‘llarini o‘rgatish.

6. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash darajalarini tahlil qilish va ushbu yo‘nalishdagi bo‘shliqlarni aniqlash, rang-barang fikrlarini o‘zaro qiyoslash, ta’lim

oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, kreativ fikrlashga undovchi o‘quv vaziyatlarni tizimlashtirish kabi masalalar o‘z echimini kutmoqda.

7. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojtirishning nechog‘li zarurligini anglashda amalga oshiriladigan tahlillar muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning bilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim oluvchilardagi kreativ ko‘nikmalarining mavjud darajasini baholash uchun ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga yangi o‘quv materiallarni taqdim etish, muammolariga echim topish layoqatlarini rivojlantirish, muammolarning echimiga ijodiy yondashish usullari bilan qurollantirish taqozo qilinmoqda. Buning uchun ta’lim oluvchilarning kreativ tafakkuri, muammolarni idrok etish layoqatini rivojlantirish nazarda tutiladi. O‘z o‘zini rivojlantirish, topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajarish kreativ fikrlash mahsuli hisoblanadi. Kreativ fikrlash ta’lim oluvchilarni yangiliklar yaratishga undaydi. Uning asosini ta’lim oluvchilar tomonidan yaratilgan ijodiy ishlarning namunalari tashkil etadi. Ijodiy ishlar ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash layoqati va ijodkorligini namoyon etadi. Aksariyat hollarda ta’lim oluvchilarning kreativ ko‘nikmalari bilan intellektual layoqatlari bir biridan farqlanmaydi. Kreativ fikrlash o‘zining pedagogik-psixologik jihatlariga ko‘ra, intellektdan farq qiladi. Kreativ fikrlash esa ijobiy fikrlash demakdir.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jaryoni murakkab pedagogik xarakterga ega. Shunga ko‘ra ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni o‘quv materiallarining tizimli tarzda

Ta’lim oluvchilarda intellektual rivojlantirish imokniyatiga ega bo‘lgan o‘quv topshiriqlari yordamida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bir qadar oson kechadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish shaxsning

ijodiy layoqatini namoyon qilishi uchun pedagogik asos yaratadi. Kreativ fikrlash ta’lim oluvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Kretativ fikrlash natijasida ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlash layoqati namoyon bo‘ladi, natijada ularning o‘quv biluv imkoniyatlari kengayadi, o‘z-o‘zini rivojlantirish motivlari hosil bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarning axborotlarni izlash, ularni saralash hamda ular ustida ishlash layoqati bevosita kreativ fikrlash bilan bog‘liq. Kreativ fikrlash faoliyatini ko‘zlangan maqsad, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallari va turli darajadagi axborotlarni tahlil qilish asosida ta’lim oluvchilarda hayotiy kompetenesiyalarni jadal rivojlantirishdan iborat. Ta’lim mazmuni pedagogik jarayon sub’ektlarida kreativ fikrlish ko‘nikmalariini rivojlantirish, ular ongiga o‘zbek xalqining ijtimoiy tajribasini singdirishdan iborat. Buning natijasida ea’lim oluvchilarda voqelikni ijobiy idrok etish layoqati shakllanadi. Natijada ularning o‘quv faoliyati barqarorlashib, ijodiy imkoniyatlari kengayadi. Ta’lim jarayonida kognitiv va evristik texnologiyalar yordamida ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Shunga ko‘ra shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhit vujudga keltiriladi. Ushbu kontekstda o‘quv tarbiya jarayonining muhim belgisi uning kreativ fikrlashga yo‘naltirilganligidir. O‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qay darajada o‘rin ajratish kerak degan xaqli savol tug‘ilmoqda. Innovatsion xarakterdagi o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarning mantiqiy kreativ ko‘nikmalarining bosqichma bosqich rivojlantirish nazarda tutiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash motivlarini shakllantirish mexanizmlarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi. O‘quv jarayonini loyihalashda o‘qituvchi ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadiga ustuvor o‘rin ajratadi. Buning uchun u o‘quv maqsadlariga erishish mexanizmlari, funksiyalarini takomillashtirishga intiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun zarur o‘quv vositalari, didaktik materiallar, savol va topshiriqlarni tanlaydi hamda tizimlashtiradi. Natijada o‘quv jarayoni ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini

rivojlantirishga yo‘naltiriladi. O‘quv jarayoni esa ta’limning funksional paradigmasidan bir qadar chekinib, kognitiv xarakterdagi kreativ paradigmani tatbiq etishga yo‘naltiriladi. Natijada ta’lim oluvchilarni kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari kengaytririladi. O‘quv-biluv jarayoni maqsadlaridan kelib chiqqan holda uni loyihalash va tashkil etish ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashga tayyorligi ularda bilish motivlarining rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Ma’lumki, kreativ fikrlash ta’lim oluvchilarda refleksiyalash, mustaqil bilim olish, o‘z fikrini erkin bayon etish, ijodiy faollik ko‘rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan vositalar ta’lim mazmunida o‘z ifodasini topadi va o‘quv materiali sifatida ta’lim oluvchilarga taqdim etiladi. Bunday vaziyatda ta’lim oluvchilarning o‘quv predmeti mazmunini kreativ o‘zlashtirishlari jadallashadi. Chunki kreativ fikrlash natijasida ta’lim oluvchilarning ijtimoiy tajribasi boyib ijodiy layoqatlari namoyon bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari ularga ko‘plab ijodiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish natijasida ijobiy xulq-atvor tajribasi tarkib topadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning rivojlanishi yangi pedagogik paradigma asosida faollashadi.

Pedagoglar va psixologlar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning o‘ziga xos algoritmini ishlab chiqishga xarakat qilmoqdalar. Jumladan, M.Maxmudov, O.Roziqov, B.Adizov, E.G‘oziev, M.Davletshin, M.Maxmutov, Ye.V.Bondarevskaya, M.V.Klarin, G.A.Kovalev, I.A.Kolesnikova, N.A.Mitina kabilarning ishlarida didaktik jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Ta’lim oluvchi shaxsini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon an’anaviy didaktik jarayonlardan tubdan farq qiladi. Mazkur jarayon Ta’lim oluvchilarni kreativlikka yo‘naltirilganligi? ularni faollashtirish

imokniyatlari kengligi, bilimlarni kognitiv qabul qilish algoritmlarini muvaffaqiyatli qo‘llash imkonini berishi bilan innovatsion xarakter kasb etadi.

Ta’lim oluvchilarda refleksiv faoliyat tajribasini hosil qilish asosida kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zaruriyati kuchaymoqda. Bu esa o‘quv jarayonining asosiy, oraliq va yakuniy maqsadlarida o‘z ifodasini topishi zarurligi namoyon bo‘lmoqda.

Shaxs har doim ijtimoiy madaniy mavqega ega bo‘ladi. Shaxs madaniy boyliklarni egallash asosida o‘zining ijtimoiy tajribasini kengaytiradi. Buning natijasida kreativ fikrlarsh funksiyasini amalga oshiradi. Shaxs madaniy boyliklarni o‘zlashtirish asosida olamni estetik idrok etadi. Kreativ fiklovchi shaxs o‘zida ijobiy fazilatlarni mujassamlashtiradi. Bunday sifatlar ta’lim oluvchilarda asosan ta’lim jarayonida kreativ fikrlashning rivojlanishi natijasida hosil bo‘ladi. Oilaviy hayot tarzi va ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Bu sifatlar ta’lim oluvchilarning ijtimoiy, ijodiy faolligini ta’minlashga ko‘maklashadi. Har bir ta’lim oluvchi mustaqil, tanqidiy, kreativ fikrlash natijasida o‘zligini anglay oladi va o‘z o‘ziini namoyon qiladi.

Kreativ fikrlash ta’lim oluvchilarda tizimli pedagogik jarayonlarda shakllantiriladi Va rivojlantiriladi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilar narsa-buyumlar, voqea-hodisalarning tabiatini bilib, ularga ijodiy yondashish usullarini egallaydilar. Taniqli mutaxassis S.L.Rubinshteynning ta’biri bilan aytganda ta’lim oluvchilarning tahliliy faoliyati ularda kreativ fikrlashning shakllanishiga asos bo‘ladi.[1] Mazkur vaziyatlarda ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash faoliyati ularni muvaffaqiyatga undovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda ta’lim oluvchilarda shakllangan tanqidiy hamda kreativ fikrlash mas’uliyatlilik, ishchanlik, faollik, voqea-hodisalarga ijodiy yondashish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/Рубинштейн,_Сергей_Леонидович

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlash faoliyatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga yordam beradi. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning kognitiv layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Natijada har bir o‘quvchining shaxsiy tajribasi, kreativ fikrlash layoqati va ijodiy faolligini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash layoqatini rivojlantirish muammosini o‘rgangan pedagoglar va psixologlar E.G‘oziev, M.Davletshin, Z.Nishonova, A.Maslou, K.Rodjers, V.Frankl, pedagoglardan B.Adizov, U.Musaev, J.Musaev, G Akramova, D.Murodova, OQoraxonovalar ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatganlar.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash darajasi ularning o‘quv faolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Ta’lim oluvchilar kreativ fikrlash natijasida o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishga muvaffaq bo‘ladilar. Ta’lim oluvchilarning aqliy intellektual rivojlanish darajalarini ko‘plab mutaxassislar pedagogik jihatdan tahlil qilganlar. Ta’lim oluvchilarning kreativ rivojlanish darajalari ularning ijodiy harakatlarini mustaqil amalga oshirishlari, atrofdagilar bilan madaniy munosabatga kirishishlari, jamiyat a’zolari va bir birlarining ijtimoiy tajribalarini kognitiv o‘zlashtirishlari hamda o‘zaro boyitishlariga asos bo‘ladi.

O‘quvchining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon o‘z mazmuniga ko‘ra kognitiv xarakterga ega. Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘zining rivojlanish jarayonlarini loyihalashtira oladi. Kreativ fikrlash natijasida ta’lim oluvchilarning xulq-atvori va kechinmalarida vujudga keladigan o‘zgarishlar pedagogik jihatdan tahlil qilinmagan. Kreativ fikrlashning o‘quvchi taraqqiyotiga ko‘maklashadigan jihatlari va uning didaktik jarayonlarga ko‘rsatadigan ta’siri etarlicha o‘rganilmagan.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash jarayoni ijtimoiy voqelik bilan bevosita bog‘liq holda rivojlanadi. Mazkur voqelik ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga

o‘rgatadigan pedagogik jarayonda xalqning ijtimoy tajribasi sifatida o‘z ifodasini topadi va o‘zaro aloqador bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni taqozo etadi. Mazkur shart-sharoitlar ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilar o‘zlarining his-tuyg‘ulari, kechinmalariga tayangan holda kretiv fikrlaydilar va kreativ faoliyatni amalga oshiradilar. Kreativ faoliyat ko‘rsatish imkoniyati sifatida ta’lim oluvchilarning o‘z qarashlarini ijodiy tarzda bayon qilishlari, his-tuyg‘ulari, kechinmalari, o‘z yondashuvlarini kreativ faoliyat mahsulida aks ettira olishlari, ijod namunalarini yaratishlari kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bunday kreativ fikrlash namunalari ta’lim oluvchilara ijodkorlik sifatlarining takomillashishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari o‘zaro muloqot, dialog va ijodiy faoliyat ko‘rsatish asosida namoyon bo‘ladi. Kreativ ko‘nikmalarining namoyon bo‘lishi uchun ta’lim oluvchilar o‘quv jarayonida ko‘plab axborotlarni ijodiy o‘zlashtirishlari, kognitiv layoqatlarini namoyon etishlari lozim. Ta’lim oluvchilarning o‘quv materiallari va qo‘shimcha axborotlar yordamida shaxslararo muloqot va dialogga kirishishlari ijod namunalarining o‘zlari uchun qadrli ekanligini anglab etishishlariga ko‘maklashadi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini egallashlarida axloqiy-estetik hamda kasbiy mazmundagi o‘quv materiallari etakchi o‘rin egallaydi. Kreativ fikrlash ta’lim oluvchilarda tahliliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ularda o‘zaro dialogga kirishish, tadqiqotchilik, o‘z kechinmalarini bayon qilish, ijod mahsullarini yaratish kabi kognitiv faoliyat tajribasi tarkib topadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini tashkil etish natijasida o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi. Mazkur pedagogik vaziyatlarda ta’lim oluvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ularda shakllangan tahliliy faoliyat tajribasi o‘z harakatlarining mazmun mohiyatini anglashlariga ko‘maklashadi.

Muayyan pedagogik jarayonlarda ta’lim oluvchilarga taqdim etiladigan o‘quv materiallari, ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini tizimli tarzda rivojlanishini ta’minlaydi. Mazkur o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilar puxta o‘zlashtirishlari va kognitiv idrok etishlari natijasidagina kreativ fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv vaziyatlarini tashkil etish natijasida o‘z kechinmalarini va his-tuyg‘ularini bayon qilish imkoniyati vujudga keladi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari shaxsiy tajribalari tanlov, baholash, qarorlar qabul qilish, shaxsiy hissiyotlarni namoyon etish kabi faoliyat usullari yordamida rivojlanadi. Buning uchun o‘quv materiallari mazmuniga ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalar va bilimlarni singdirish talab qilinadi. Shu maqsadda o‘qituvchi ta’lim oluvchilarning bilimlar va ijtimoiy tajribani kognitiv o‘zlashtirish jarayonlarini loyihalashtirishi muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi vositalar sirasiga kognitiv texnologiyalar, madaniy qadriyatlar va badiiy- estetik yo‘nalishdagi bilimlarni kiritish mumkin. Ta’lim oluvchilarni kognitiv faollik ko‘rsatishga undovchi axborotlar, qadriyatlar va badiiy-estetik mazmundagi bilimlar ta’lim mazmunining asosiy qismi, ya’ni makro mazmunini tashkil etishi lozim. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ta’lim mazmuni hamda o‘zbek xalqining madaniy-ijtimoiy tajribasi muhim o‘rin egallaydi.

Fan o‘qituvchilarining ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishidagi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchining ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini kognitiv yondashuv asosida tashkil etishi, ta’lim oluvchilarda kreativlikning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq pedagogik vaziyatlarni muntazam tahlil qilishi va ushbu yo‘nalishdagi bo‘shliqlarni aniqlab muntazam to‘ldirib borishi, o‘quv jarayonida kreativ fikrlashga undovchi vaziyatlarni xosil qilish maqsadida real voqelikni imitatsiyalashga ustivorlik berishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilar bilimlarni kognitiv o‘zlashtirish

natijasida kreativ faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini anglab etishlari muhim ahamiyatga ega. O‘zlari o‘rgangan bilimlarning istiqboldagi taraqqiyotlari uchun muhim ahamiyatga egaligini anglab etishlari zarur. Ta’lim oluvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirish natijasida o‘z kreativ faoliyatlari natijasidan qoniqish xosil qilishlari, ulardan kreativ fikrlash ko‘nikmalirining rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi.

Ta’lim oluvchilarning o‘quv materiallarini kognitiv o‘zlashtirishga intilishlari, o‘qituvchilar esa ularning kreativ fikrlash faoliyatlarini muntazam qo‘llab-quvvatlashlari talab etiladi. Ta’lim oluvchilarda kreativ jarayonlarga nisbatan alohida qiziqishning shakllanishi ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlanishiga asos bo‘ladi. Kreativ fikrlash natijasida ta’lim oluvchilar ijodkorlik, tashabbuskorlik tajribasini o‘zlashtiradilar. Ushbu jarayonda o‘qituvchilar ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish tajribasini egallashlari lozim.

Buning uchun birinchi navbatda, o‘qituvchilar kognitiv texnologiyalar va rivojlantiruvchi ta’lim metodlaridan samarali foydalana olishlari talab etiladi. Mazkur texnologiyalarni qo‘llash natijasida kreativ xarakterdagi rivojlantiruvchi ta’lim muhiti vujudga keladi. Bunday ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan kreativ fikrlash faoliyati o‘qituvchilarda o‘quv materiallarining kognitiv o‘zlashtirish usullarini qo‘llash tajribasini shakllantiradi.

Fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlari ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturiga ega bo‘lishlari lozim. Ta’lim oluvchilar kreativ fikrlash usullarini namoyon eta olishlari, ushbu yo‘nalishda guruhdoshlari va o‘qituvchilar bilan ijodiy hamkorlik qilishlari muhim ahamiyatga ega. Fan o‘qituvchilari ta’lim oluvchilarni muntazam kreativ fikrlashga undashlari, ularda refleksiyalash tajribasini hosil qilishlari talab etiladi. Kreativ fikrlash natijasida ta’lim oluvchilarda ijobiy xulq-atvor tajribasi, nafosat hissi, go‘zallik va yaratuvchanlikka intilish tuyg‘usi tarkib topadi.

Ta’lim oluvchilar kreativ fikrlash natijasida betakror narsalarni yaratishga intiladilar. Bu esa ularda ruhiy osoyishtalik, ishchanlik ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Kognitiv texnologiyalarning asosiy imkoniyatlaridan biri ta’lim oluvchilarda tahliliy faoliyat ko‘rsatish, ijodiy fikrlash, o‘zini ijodiy jarayon sub’ekti sifatida namoyon etish, o‘z-o‘zini muntazam rivojlantirish uchun qulay vaziyatni vujudga keltirishdan iborat. Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar har doim o‘zlarini ijodiy jarayon sub’ekti sifatida namoyon eta oladilar. Kreativ xarakterdagi o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar refleksiyaning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday tahliliy faoliyat yordamida ta’lim oluvchilar hodisani asoslash, zarur usullarni tanlash, natijalarni tekshirish jarayonida amalga oshiradilar.

Ta’lim oluvchilarda shakllangan refleksiya yangi bilimlar va axborotlarni o‘zlashtirish, qo‘llash va ijodiy faoliyat natijalarini namoyon eta olish va tanqidiy fikrlash jarayonlarini amalga oshirishga xizmat qila oladi.

Ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga undaydigan refleksiv jarayonlar o‘zining muayyan shakllariga ega. Taniqli mutaxassis N.Yu.Postalyukning tadqiqotlarida[6] ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashga moyillik, o‘z nuqtai nazarini asoslash, izohlashga intilish, muammolar qo‘ya olish, unga javob izlash, o‘zining imkoniyatlarini munosib tarzda baholay olish, bahs-munozaraga kirisha olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishini ta’minlovchi omil ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Refleksiya o‘quvchidagi kreativ fikrlashning dastlabki ifodasi bo‘lib, undagi psixologik jarayonlar bilan bevosita bog‘liq holda vujudga keladi. Shaxsning tahliliy faoliyati ilk bor tibbiyot va psixologiyada tadqiqot ob’ekti sifatida tan olingan. Bugungi kunda pedagogikada ham shaxsning tahliliy faoliyatiga turli tomondan yondashilgan holda tadqiq etilmoqda. O‘quvchi o‘zida shakllangan refleksiv ko‘nikmalar yordamida ob’ektlarni mustaqil o‘rganish, ular orasidagi sabab-oqibat, bog‘lanishlarni tahlil qilish,

[6] https://vk.com/wall415041562_9886 Н.Ю.Посталюк. Творческий стиль деятельности: педагогический аспект (1989) С.52

izlanish ob’ektlarini aniqlash, qadriyatli yo‘nalishlarga tayangan holda o‘zining kreativ imkoniyatlarini namoyon qilishga intilish, kreativ fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarlarini bayon qilish, o‘z o‘zini baholash, korreksiyalash va o‘z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lish, kreativ layoqatlarini turli shakllarda namoyon etish, o‘z o‘zini rivojlantirish maqsadida mustaqil izlanishlarni amalga oshirish, o‘zini ijtimoiy tajribasini aniqlash, uning ahamiyatlilik darajasini baholash kabi harakatlarni amalga oshiradi. Tahliliy faoliyat – ya’ni refleksiya shaxsni ijodiy fikrlashga undovchi asosiy jarayon bo‘lib, ijod qilish motivlarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Masalan, ta’lim oluvchilar turli badiiy asarlarni o‘qiganda, tasviriy san’at namunalari bilan tanishganda, atrofni kuzatganda, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishganda, ijodiy fikrlashga intilganda tahliliy faoliyatni amalga oshiradilar. Bunday ko‘nikmalar ta’lim oluvchilarda o‘quv jarayonida shakllantirilib, ularning kreativ fikrlashlari uchun etarlicha asos yaratadi. Shunga ko‘ra tahliliy faoliyat kreativ fikrlash jarayonining tarkibiy qismini tashkil etadi. Tahliliy faoliyat ko‘plab mutaxassislar tomonidan kreativ faoliyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan va baholangan. Ta’lim oluvchilarda tahliliy faoliyatni shakllantirish orqali ularda kreativlikni rivojlantirish mumkin. Ta’lim oluvchilarda tahliliy nuqtai nazar, ulardagi his-tuyg‘ular va kechinmalarning ijodiy fikrlashga asos bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday kreativlik natijasida ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning uzluksiz jarayonga aylanishi ta’minlanadi. Mazkur vaziyatlarda o‘qituvchi ta’lim oluvchilardagi tahliliy faollik, nuqtai nazarni qo‘llab quvvatlab, uning kreativ fikrlash jarayoniga aylanishini ta’minlashga qaratilgan didaktik vaziyatlarni yaratishi kerak. Natijada ta’lim oluvchilar ilmiy axborotlarni o‘rganish, to‘plash, baholash bosqichlarini o‘tab, kreativ fikrlashga muvaffaq bo‘ladilar. Ularning kreativ faoliyatga jalb etish orqali o‘qituvchi mavjud iqtidorlari va qiziqishlarini namoyon qilishlari uchun pedagogik imkoniyat yaratadi. Ta’lim oluvchilar uchun o‘rganilayotgan axborotlarning ahamiyatlilik darajasi ortib, kreativ fikrlash manbaiga aylanadi.

Ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribalari ham kreativ fikrlash manbai sifatida xizmat qila oladi. Chunki ijtimoiy tajriba ta’lim oluvchilarning rivojlanishiga asos

bo‘lib, ularning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur jarayonda ta’lim oluvchilar o‘zlari o‘rgangan bilimlar va axborotlarni amaliy-ijodiy faoliyatlari orqali namoyon etadilar. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar ijodiy faoliyatni namoyon etishning qulay usullaridan foydalanadilar, o‘z ichki kechinmalari, kreativlik darajalarini namoyon etadilar, yangiliklarni izlaydilar, ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradilar. Shu bilan bir qatorda o‘z ijodiy faoliyatlari natijalarini baholaydilar, bo‘shliqlarni aniqlab, uni yangi harakat usullari hisobiga to‘ldiradilar.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini faollashtirish natijasida, ularni o‘qib o‘rganishga undash, o‘z ijod namunalarini yaratishga safarbar qilish, fikriy-ijodiy faoliyat usullaridan foydalanish uchun qulay sharoit yaratiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayonining ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi;
- o‘quv jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi hamda o‘quvchi bilan ta’lim oluvchilar orasida dialog vaziyatlarining muntazam tashkil etilishi
- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarning hamkorlikda ishlash imkoniyatlarining kengaytirilishi;
- turli didaktik vositalar yordamida ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga undovchi vaziyatlarning modellashtirilishi va tashkil etilishi;
- ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish natijasida ularning o‘z faoliyatlarini mustaqil boshqarishlari va o‘z o‘zlarini rivojlantirishlari uchun qulay muhitning vujudga keltirilishi.

Bunday yondashuv nitajasida ta’lim oluvchilarda ijodkorlik, o‘zining bilish imkoniyatlarini muntazam kengaytirish, mustaqil bilim olish va rivojlanish motivlari vujudga keladi.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo‘lgan fan o‘qituvchilari o‘quv predmeti doirasida o‘quv materiallarining kreativlikni shakllantira olish darajasini aniq tasavvur eta oladilar, ta’lim oluvchilarning kreativ ko‘nikmalarini muntazam faollashtirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlar va didaktik vositalarni tizimli tarzda qo‘llaydilar, bunday yondashuv natijasida ta’lim oluvchilarda o‘quv materiallarni kognitiv qabul qilish layoqati rivojlanadi;

- kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar bilan fan o‘qituvchilari orasida o‘ziga xos hamkorlik munosabatlari vujudga keladi;

- ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni tanlash, tizimlashtirish va taqdim etish o‘qituvchilardan alohida pedagogik, metodik mahoratni talab qiladi.

O‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilarning kreativ rivojlanish maqsadiga yo‘naltirilgan hamkorlikdagi faoliyati alohida pedagogik ahamiyatga ega. O‘qituvchi ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ular bilan hamkorlik qilishi lozim. Bunda didaktik vositalar yordamida ta’lim oluvchilarning ijtimoiy tajrbasini boyita olishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilar tizimli tarzda o‘qituvchilar bilan hamkorlikka asoslangan munosabatlarga kirishar ekanlar, o‘zlarining ijtimoiy tajribalarni boyitib borishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu, esa o‘z navbatida ularda kreativ fikrlash ko‘nikmasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasida ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish etakchi masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlarni modellashtiradi va tashkil etadi. Bunday vaziyatlarda ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari tzimli tarzda rivojlanadi va ko‘proq amaliy xarakter kasb etadi. Jumladan:

- ta’lim oluvchilarga taqdim qilinayotgan o‘quv materiali mazmunida ularni kreativ fikrlashga undovchi bilimlar va faoliyat usullarini mujassamlashtirilishi;

- ta’lim oluvchilarning hissiy sohasiga ta’sir ko‘rsatadigan o‘quv materiallarini taqdim etish usullarining keng qo‘llanilishi;

- o‘quv jarayonida sub’ekt-sub’ekt munosabatlarning yangi, hamkorlik bosqichiga ko‘tarilishi kabilar.

Ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga undaydigan pedagogik jarayon quyidagilarni o‘z ichiga olishi muhim ahamiyatga ega:

1. Ta’lim oluvchilarga taqdim etiladigan bilimlarning kognitiiv xarakter kasb etishi; shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi vaziyatlar ularni kreativ fikrlashga undovchi o‘quv materiallarini taqdim etish yordamida vujudga keltiriladi.

2. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash darajasini aniqlash maqsadida ular orasida dialog vaziyatlarini tashkil etish; bu esa ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish uchun asos yaratadi. Mazkur jarayonda ta’lim oluvchilar o‘z fikrlarini guruhdoshlariniki bilan qiyoslab, uning kreativ xarakter kasb etadigan jihatlarini aniqlashga erishadilar.

3. Ta’lim oluvchilar orasida imitatsion o‘yinlarni tashkil etish natijasida, ularda vaziyatlarni loyihalash, voqea-hodislarni o‘zaro qiyoslash va baholash, turli hodisalar haqida o‘z qarashlarini bayon qilish kabi kreativ faoliyat usullari shakllanadi. Ma’lumki, imitatsion o‘yinlar ta’lim oluvchilarning kreativligini rivojlantirishga ko‘maklashadi, chunki ular tahliliy faoliyatni amalga oshiradilar, o‘z qarashlarini bayon qiladilar, ijodiy tashabbuskorlik ko‘nikmalarini egallaydilar.

Rivojlantiruvchi ta’lim modeli ta’lim oluvchilarni kreativ rivojlantirish jarayonida ularning faoliyatlarini tizimli tarzda tashkil etish imkonini beradi. Buning uchun o‘qituvchilar ta’lim oluvchilar faoliyatini dolzarblashtirish, unga kreativ jarayon sifatida qarash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantirishda ularning shaxsiy tajribalari bilan taqdim etiladigan bilimlar orasida muvofiqligini ta’minlashdan iborat.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini tizimli tarzda shakllantirishda ularning shaxsiy tajribalariga tayanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim oluvchilarda ruhiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida kreativ fikrlash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Jumladan, muayyan o‘quv predmetiga oid bilimlar va tushunchalarni o‘z ichiga olgan o‘quv materiallari ta’lim oluvchilarning ijtimoiy tajribasiga singadi va kreativ fikrlashning shakllanishiga asos bo‘ladi. Bunday tajribalar ta’lim oluvchilarning kraetiv fikrlash natijasida boyidi. Kreativ fikrlash natijasida ta’lim oluvchilarda hosil bo‘lgan ijtimoiy hamda shaxsiy tajribalar yordamida ulardagi kreativ faoliyat usullari kengayadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim oluvchilardagi ijodkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishiga asos bo‘ladi. Bunday faoliyat natijasida ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribalari ular tomonidan yaratilgan loyihalar, modellarga turli o‘zgartishlar kiritishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, ta’lim oluvchilarda tahliliy nuqtai nazarning tarkib topishi rivojlantiruvchi ta’lim jarayonida amalga oshadi. Kreativ faoliyat jarayonida ta’lim oluvchilarning shaxsiy fikrlari va ijodkorlik sifatlari rivojlanadi.

Ma’lumki, iqtidorli bolalarni o‘qitish va ularni har tomonlama rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani echish uchun ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik-psixologik yo‘nalishlarini tadqiq etish talab qilinmoqda. Chunki ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish muayyan pedagogik jarayonda amalga oshirilib, aniq mazmun, maqsad, vosita, usul va metodlarga ega. Buning uchun birinchi navbatda, ta’lim oluvchilarda shakllanadigan kreativ fikrlash ko‘nikmasi va uning tarkibini xar tomonlama chuqur tushunish lozim.

Ta’lim oluvchilarda shakllangan kreativ fikrlash ko‘nikmasining darajalarini aniqlashda turli tuman diagnostik metodlaridan foydalaniladi. Bunday metodlar sirasiga J.Piaje, G.Ayzenk, Dj.Gilford, Dj.Raven va boshqalar tomonidan ishlab

chiqilgan ta’lim oluvchilarning intellektual taraqqiyoti darajasini aniqlovchi pedagogik hamda psixologik testlarini ko‘rsatish mumkin[7].

O‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab ta’lim oluvchilardagi kreativ fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan. Mazkur davrda ta’lim oluvchilardagi kreativ fikrlash ko‘nikmasi darajasini diagnostik o‘rganishga xizmat qiladigan dastlabki topshiriqlari ishlab chiqilgan. Natijada ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash jarayonlari o‘rganila boshlangan. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirish natijasida ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadigan mavzular o‘quv dasturlari tartibiga kiritilgan. Shu bilan bir qatorda ta’lim oluvchilardagi kreativ fikrlash darajasining o‘ziga xos jihatlari ham aniqlangan: shaxs aql-idrokining faollashuvi va moslashuvchanligi, tafakkurning izchilligi va mustaqilligi, tizimli xarakter kasb etishi, ta’lim oluvchilarning o‘zlari qabul qilgan qarorlar uchun mas’uliyatni his etishlari hamda yo‘l qo‘ygan xatolarning oldini olishga intilishlari.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash darajasini aniqlovchi didagnostik metodikalar ularning umumiy layoqatlarini aniqlashni ham nazarda tutadi. Mazkur layoqatlarni rivojlantirish natijasida ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash darajalari ham rivojlanadi. Natijada ta’lim oluvchilar o‘z oldilariga qo‘yilgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishga erishadilar. Topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash va izlanuvchanlik ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi lozim.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining shakllantirishni rivojlantiruvchi topshiriqlarni tanlashda pedagoglar muayyan qoidalarga amal qilishlari kerak. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun o‘qituvchilar sinfda kreativ muhitni vujudga keltira olishlari kerak. Masalan,

[7] Льюис, Гарет. Как развить креативность за 7 дней. — М.: Издательство "Э", 2018. — 128 с. — ISBN 978-5-04-091600-9.

ta’lim oluvchilarga muayyan vaqt mobaynida bajarilishi nazarda tutiladigan topshiriqlar berish; ta’lim oluvchilar uchun muvaffaqiyat vaziyatlarini vujudga keltirish, ta’lim oluvchilarni o‘zaro musobaqalashishi va biri birining ishini ob’ektiv baholashga o‘rgatish, ta’lim oluvchilarning o‘z ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun qulay vaziyat yaratish kabilar. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘quv jarayonida kreativ muhitni vujudga keltirilishi ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga undaydi. Mazkur vaziyatlarda ta’lim oluvchilarning ijodiy faollik ko‘rsatishlari ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining tizimli tarzda shakllanishiga asos bo‘ladi. Alohida iqtidorga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari jada rivojlanadi va tizimli tarzda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining namoyon bo‘lish imkoniyatlarini aniqlash metodlari orasida E.P.Torrensning ijodiy tafakkur darajasini aniqlovchi testlari mashhurdir. Mazkur testlar ilk bor 1966 yilda ilmiy-pedagogik jamoatchilikka taqdim qilingan. (Torrance Test Creative Thinking - TTST). Ushbu metodika verbal, tasviriy va fonetik jihatdan tasniflangan topshiriqlarni o‘z ichiga oladi.

1. Verbal topshiriqlar o‘quvchi tafakkurining nutq orqali namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Ta’lim oluvchilarning tasviriy faoliyatini aniqlashga hizmat qiladigan testlar ularning kreativligini baholashga yo‘naltiriladi.

3. Fonetik vositalar ta’lim oluvchilarning so‘zlar va tovushlar vositasida namoyon bo‘ladigan kreativ ko‘nikmalirini ifodalashga xizmat qiladi. Buning uchun ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilishlari uchun qulay pedagogik shart-sharoit va didaktik vaziyatlarni yaratish nazarda tutiladi. Aksariyat vaziyatlar o‘yinlar shaklida tashkil etiladi.

E.P.Torrens metodikasi ta’lim oluvchilar orasida bosqichma bosqich tatbiq qilinib, ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini tizimli tarzda shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarni Verbal xarakterdagi kreativ tafakkurini baholovchi topshiriqlar 7 ta subtestlarni o‘z ichiga oladi.

E.P.Torrens kreativ jarayon modelini ifodalovchi test topshiriqlarini loyihalashtirgan[8]. Har bir topshiriq o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarning kreativ layoqatlarining namoyon bo‘lishi uchun imkoniyat yaratadi.

Mutaxassislar insonning turli axborotlarni ijodiy o‘zlashtirish usullarini egallaganliklarini qiziqarli va jozibador, ta’lim oluvchilarni mantiqiy hamda kreativ fikrlashga undovchi topshiriqlar yordamida aniqlashga harakat qilganlar. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarning induktiv fikrlash faoliyati o‘quv materiallarini idrok etish imkoniyatiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kreativ fikrlash ta’lim oluvchilarning ijodiy layoqatlarini namoyon qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ta’lim oluvchilarda shakllangan kreativ fikrlash ko‘nikmalarini o‘rganishda 2 turdagi metodlardan foydalaniladi:

1. Shaxsning kreativ ko‘nikmalarini kam foydalanilgan diagnostik metodlar yordamida aniqlash. Ular sirasiga kuzatish, suhbat, ijodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, refleksiya metodlarini kiritish mumkin.

2. Ta’lim oluvchilarda Kreativ fikrlasha ko‘nikmalarini pedagogika fanida qat’iylashgan diagnostik metodlar yordamida aniqlash.

O‘tgan 20-asrning ikkinchi yarmida Dj.Gilford kreativlikning 16 ta belgisini ajratib ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. Ular quyidagi belgilarega:

1. Shaxsdagi kreativ fikrlash faoliyatining jadalligi – vaqt bilan fikr uyg‘unligi mahsuli bo‘lgan qarashlar, bunda shaxsning kreativ fikrlash natijasida bir g‘oyani rivojlantirib ikkinchi ijodiy g‘oyaga aylantirish layoqatining namoyon bo‘lishi, ya’ni nostandart fkirlarni ilgari sura olish ko‘nikmasining shakllanganligi.

2. Shaxsning farazlarni ilgari surish layoqati va unga turtki bo‘ladigan omillarning vujudga kelishi.

[8] Torrance E. P. The Torrance Test of creative thinking: Technical-norm manual. III, 1974.

3. Kreativ fikrlashning qiziquvchanlik mahsuli ekanligi, atrof-olamdagi o‘zarishlarga sezgirlik bilan munosabatda bo‘lish.

Dj.Gilfordning ta’biricha bularning barchasini divergent tafakkur maxsuli hisoblanadi[9]. Divergent tafakkur muayyan muammolar vujudga kelgandi, yangiliklar kashf etilganda hosil bo‘ladi. Konvergent tafakkur esa, muammoning odatiy mantiqiy echimlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Konveregent tafakkurni shakllantirish maqsadida o‘qituvchi ta’lim oluvchilar oldiga aniq topshiriqlarni qo‘yadi.

Aksariyat mutaxassislar ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari va kretiv layoqatlarini shakllantirish muammolari ustida izlanishlarini amalga oshirganlar. Ta’lim oluvchilarni kretiv ko‘nikmalarini diagnostika qilish tadqiqotlar esa etarli darajala amaga oshirilmagan. Taniqli pedagog D.B.Bogoyavlenskaya ushbu muammoni muayyan daraja o‘rgangan[10]. Mutaxassis ta’lim oluvchilardagi kreativ layoqatning asosiy belgisi sifatida “intellektual tashabbuskorlik”ni ko‘rsatgan. Bogoyavlenskaya intellektual tashabbuskorlikni o‘quvchining aqliy layoqati hamda motivlarga tenglashtirgan. O‘quvchining Intellektual layoqati o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini fikriy operatsiyalar yordamida bajarishida o‘z ifodasini topadi.

Mutaxassislarning izlanishlari mahsuli sifatida ta’lim oluvchilarda kreati fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga oid yondaguvlar vujudga keldi. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarda kretiv fkirlash ko‘nikmalari va ijodiy imkoniyatlarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Kretiv fikrlash g‘oyalarni nazariy jihatdan asoslash uchun qulay sharoit yaratadi.

Bugungi kunga kelib ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ijtimoiy buyurtma darajasida ko‘tarildi. Bu esa o‘z nabaatida ta’lim oluvchilar kreativ ko‘nmukmalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni tizimli tarzda taqdim etishni taqozo qilmoqda .

[9] https://studwood.ru/794088/kulturologiya/kontseptsiya_kreativnosti_gilforda_torransa
[10] Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. М.: «Академия», 2002.

Aksariyat pedagoglar kreativ fikrlash ko‘nikmalarini o‘quvchi shaxsining ijodiy faolligini ta’sinlovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida baholashga muvaffaq bo‘lganlar. Kreativ fikrlash ko‘nikmalari o‘quv materiallari va o‘quv topshiriqlari yoramida shakllanadi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari muayyan tarkibiya qismlarga ega: kreativ tafakkur, kreativ idrok, kreativ faoliyatni tashkil etish metodlarini ko‘rsatish mumkin. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllanishi maxsu tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda amalga oshiriladi. Mazkur pedagogik jarayon ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribasini boyitishga yo‘naltiriladi.

Ta’lim oluvchilarning xis-tuyg‘ular, kechinmalar yordamida o‘z kreativligini namoyon qilishi kreativ tafakkur mahsuli hisoblanadi. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarning intellektual rivojlanishi uchun kreativ faoliyatning ahamiyatliligini ko‘rsatadi. Kreativ fikrlashning ifodasi ta’lim oluvchilar tomnida yaratigan ijodiy mahsulotlar hisoblanadi.

Muaayyan pedagogk shart sharoitlarda ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari samrali rivojlantiriladi:

Mazkur shart sharoitlar qo‘uvchilarning o‘quv materiallari yordamid hamda o‘z o‘zini rivojlantirishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda o‘quchilarni kreativ ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchining pedagogik faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Ijtimoiy harakterga ega bo‘lgan sharoitlar ham ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday shart sharoitlar sirasiga maktabdagi madaniy muhit, oila a’zolarining san’at va madaniyatga bo‘lgan munosabati, ijodkorlikgi, kitob mutolaasi uchun qulay sharoitlarning mavjudgiligi, ta’lim oluvchilarning o‘z o‘zini rivojlantirish uchun qulay sharoitning imkoniyatlarning yaratilganligi kabilarni kiritish mumkin.

Bunday shart-sharoitlarni yaratishda qo‘ituvchlar ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlarini alohida hisobga olishlari lozim.

1. Ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularning ruhiy fiziologik imkoniyatlari, kechinmalari va dunqarashlaarini hisobga olshi.

2. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmlarini rivojlanish jarayonini tashkil etishda ularning tabiiy iqtidorlarini aniqlash.

3. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularning sensitiv bosqichlarini aniqlash.

Ma’lumki, ta’lim oluvchilar tinglash, ko‘rish, anglash, ilg‘ab olish darajalari bilan o‘zaro farqlanadilar. Ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos jihatlari ularning qo‘uv xarakatlarida ham o‘z ifodasini topadi. Maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda ham ushbu xususiyatllrani o‘zgartirish imkonsizdir. Ta’lim oluvchilardagi o‘ziga xos iqtidor ularning borliqni idrok etish imklniyatlarini kengaytiradi. Natijada ta’lim oluvchilar taqdim etilgan o‘quv axborotlari idrok etish, ular ustida o‘ylash, fikrlash, muayayn xulosalar chiqarishdagi o‘ziga xosliklar bilan farqlanadilar. O‘qituvchilar pedagogik jarayon sifati va samaradorligini ta’minlash orqali ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo‘ladilar. Ushbu maqsadda o‘quv jarayonida kreativ muhit yaratish alohida ahamiyatga ega. Kreativ xarakterdagi pedagog muhitda qo‘uvchilar kreativ topshriqlar yordamida kreativ fikrlashga erishadilar. Kreativ texnologiyalar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida ta’lim oluvchilarning iqtidori, ulrda kreativ ko‘nikmalarini shakllanishida o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatishini hhisobga olishi lozim. O‘quvchining iqtidori uning kreativligini namoyon qilib, o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Aynan kreativ texnologiyalar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur faoliyatning rivojlanishini to‘liq ta’minlamaydi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ijtimoiy pedagogik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida individual xususiyatlar bilan bir qatorda ularning yosh xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlikka moyil ta’lim oluvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish alohida o‘rin egallaydi. Ta’lim oluvchilarda verbal xarakterdagi kreativ fikrlash

ko‘nikmalarining shakllanishi natijasida ularda obrazli fikrlash rivojlanadi. Obrazli idrok esa o‘z navbatida aosasatsiv idrokni hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Ta’lim oluvchilarda kreativlik nishonalari juda erta namoyon bo‘ladi. Uni o‘z vaqtida payqab tarbiyalash esa, uning taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Tizimli pedagogik faoliyat natijasidagi kreativ fikrlashga bo‘lgan intilishlar barqarorlashadi. Kreativlik va kreativ fikrlash jarayonlari bevosita o‘quv predmetlari va fan sohalari bilan bog‘liq tarzda rivojlanadi.

O‘quvchi taraqqiyotning senzitiv bosqichida kreativ layoqatlar jadal shakllanadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmlarini shakllanshida pedagogik ta’sirning o‘rni muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘qituvchilar o‘quvchi taraqqiyotining sensitiv davrlariga hos bo‘lgan xususiyatlarini puxta o‘zlashtirishlari lozim.

Qo‘uvchilarni kreativ fikrlashga undaydigan aksariyat shart-sharoitlar aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda tashkil etiladi. Ta’lim oluvchilarni Kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan faoliyatning 2 ta muhim yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Birinchidan, o‘qituvchi tomonidan amalga oshriliadigan pedagogik faoliyat ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantirish natijasida ularda ijodkorlik sifatlarinin namoyog bo‘lishishlarinning ta’minlashidan iyuborat Ikkinchidan, ta’lim oluvchilarda kreativlik fikrlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni metodik jihatdan ta’minlashni nasharda tutati. Bunda o‘quv metodik majmualar va o‘quv jarayonini ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘anlitilgan mazmun bilan boyitish.

Mazkur pedagogik jarayonlarda bir qator pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi talab qilinadi:

1) Pedagogik jarayonning ta’lim oluvchilar uchun rivojllantiruvchi xarakter kasb etishini ta’minlash. Jumladan, ta’lim oluvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik vaziyatlarni tashkil etish, ta’lim oluvchilarning kreativligini ta’minlash uchun qulay ijodiy muhit yaratish.

2) Kreativ xarakterdagi pedagogik jarayonlarda ta’lim oluvchilarning mustaqil

faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlash. O‘zquvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishlari uchun qulay sharoit yaratish.

3) Ta’lim oluvchilar uchun kreativ xarakterdagi ijodiy muhit yaratish. Ushbu maqsadda sinfda ijodiy hamkorlik uchun qulay imkoniyatlar yaratish, ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyatlari natijadorligini ta’minlash, muvaffaqiyat vaziyatlarini hosil qilish kabilar.

Mazkur shart-sharoitlar alohida pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib ularning natijadorligini muntazam tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1) Ta’lim oluvchilar uchun muvaffaqiyatli kreativ muhit yaratish haqida fikr yuritgan mutaxassislar quyigailarda e’tibor qaratganlar: mustaqillik va intizomlilikka ustuvor o‘rin ajratish. Ta’lim oluvchilarda shakllangan kreativ ko‘nikmalari o‘qituvchi tomonidan muntazam rag‘batlantirilishi lozim. Shundagina ular o‘quv faoliyatini amalga oshirishda tashabbuskorlik ko‘rsatadilar. Ta’lim oluvchilar turli ob’ektlar, voqea hodislar haqidagi o‘z qarashlari, fikrlari, nuqtai nazarlarini mustaqil bayon qiladilar. Ular ko‘proq mustaqiq o‘qib o‘rganishga intiladilar, shu bilan bir qatorda jamoaviy fikrlash ko‘nikmalarini egalaydilar. Natija ta’lim oluvchilar o‘zaro bag‘rikenglik, ijodiy hamkorlik, hamfikrlilik sifatlari shakllanadi. Bunday pedagogik vaziyatlar ta’lim oluvchilarning hulq-atvorlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim oluvchilarda madaniy hulq-atvor stereotiplari shakllanib, o‘z o‘zlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. O‘qituvchi bilan qo‘uvchi orasidagi hamkorlik ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun stimul yaratadi.

2) Yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashlari va kreativ imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun qulay vaziyatni vujudga keltiradi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish uchun ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik modellarga tayanish muhim ahamiyatga ega.

3) O‘quvchi o‘quv jarayonida kreativ shaxs sifatida o‘z o‘zini namoyon qiladi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini zqituvchining pedagogik

faoliyati muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘qituvchilar ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida fasilitator funksiyasini bajaradilar. O‘qituvchining ta’lim oluvchilar bilan ijodiy hamkorlikka kirishishi natijasida ularda kreativ ko‘nikmalari shakllanadi.

Ta’lim oluvchilarda kuzatiladigan ijobiy kayfiyat, verbal va verbal layoqatlar, rollarni bajarishga moyillik, o‘yinlarning jarayonidagi xarakatlarning aniqligi va ifodaliligi, estetik did va nafosat hissi, turli mimkalar, atrofdagilarga va guruhdoshlariga bo‘lgan ruxiy yaqinlik va o‘zaro hurmat, tushunish, his qilish, ishonch, hamdardlik tuyg‘usi va ijodiy hamkorlikka tayyorlik kreativ fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishigi samarali ximzmat qiladi. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘z vaqtida har bir o‘quvchining kreativ jihatdan rivojlanishini ta’minlash maqsadida ular oldiga aniq vazifalar qo‘yishlari lozim. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘mklashuvchi, ularning ushbu yo‘nalishlagi harakatlarini qo‘llab quvvatlovchi vaziyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Kreativ fikrlashka undovchi pedagogik jarayonlarda o‘qituvchi ta’lim oluvchilar oldiga rivojlantiriuvchi va evristik izlanishga undovchi topshiriqlar qo‘yishi lozim. Ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zilarni ijodiy namoyon qilish usullarini qo‘llashlarini o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashi lozim. Ta’lim oluvchilar tomonidan yaratilgan barcha ijod namunalari, ularning mazmuni, shakllari, estetik jihozlanishidan qat’iy nazar o‘qllab quvvatlanishi va rag‘batlantirilishi lozim. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida o‘quvchi ularning o‘ziga xosligini tan olishi o‘zaro biri bilrlari qiyoslamasligi va tanqid qimasligi lozim.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish uchun o‘zaro hurmatga asoslangan, pedagogik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchilar bilan bir qatorda ota-onalar ham o‘quvchining kreativ fikrlash ko‘nikmalari va ijodiy faoliyat natijalarini qo‘llab quvvatlashlari, ularga yordam ko‘rsatishlari muhim ahamiyatga ega. Kreativ fikrlash layoqatiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarning san’atga bo‘lgan qiziqishlari, nafosat hissiga egaliklari,

qiziquvchanlikninng yaqqol namoyon bo‘ilishiga o‘qituvchilar va ota-onalar o‘z vaqtida e’tibor qaratishlari lozim. Aks holda ulardai kreativlik vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib uning o‘rnini befarqlik egallaydi. Ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini samarali shakllantirish uchun ular oldiga kognitiv, evristik, pragmatik xarakterdagi topshiriqlar qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagilarni bartaraf etish maqsadga muvofiq.

- Ota-onalarning ularning qiziqishlari, xohish istaklariga e’tiborsizlik bilan munosabatda bo‘lishlarini;
- ta’lim oluvchilar bilan katta yoshlilar orasidagi muloqotning etarli darajada amalga oshirilmasligini;
- shaxslararo munosabatlardagi turli to‘siqlarni;
- ta’lim oluvchilarning intellektual sohalari rivojlanishining o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratmasligini;
- o‘quv materiallari va qo‘uv topshirilarining qo‘uvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishni xizmat qiladigan jihatlarini to‘g‘ri baholay olmaslikni;
- o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilardagi kreativlik sifatlarini o‘z vaqtida anglab etmaslikni.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchilar ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilishlari talab qilinmoqda. Kreativlik xususiyatlari birinchi navbatda ta’lim oluvchilarning ruhiyati xis-tuyg‘ulari kechinmalari va xatti harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ tafakkur va madaniy dunyoqarashni shakllantirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish talab etiladi:

- ta’lim oluvchilar bilan birgalikda turli voqea hodisalar ob’ektlarni o‘zaro qiyoslagan holda tasniflash;
- turli voqea hodislar orasidagi aloqadorlikni tavsiflash;
- insonlar ob’ektlar orasidagi o‘zaro munosabatlarni ko‘ra olish, ulraning

mohiyatlarini anglash;

- ob’ektlar orasidagi rivojlanishning o‘ziga xos jihatlarini ko‘ra olish;
- ob’ektlar, voqea hodisalar orasidagi o‘zaro bir biriga zid keladigan belgilarni farqlay olish;
- badiiy asardagi obrazlarning o‘ziga xos jihatlarini idrok etish va ularga munosabat bildirish;
- turli belgilarning ob’ekt bilan aloqador jihatlarini tavsiflay olish;
- ta’lim oluvchilarning kreativligini namoyon qilish bilan bog‘liq psixologik jarayonlarini rivojlantirish, masalarn, ularning tasavvuri, xis tuhulari, kesinmalarini boyitishga xizmat qiladigan o‘quv materiallarini taqdim etish;
- ta’lim oluvchilar tomonidan qabul qilingan echimlar, tayyorlagan ijod mahsulotlarining kreativlik darajasini baholash;
- ta’lim oluvchilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga undaydigan harakatlarni tizimlashtirish;
- turli hodisalarni shaklda bayon qilish;
- o‘rganilgan mavzu doirasida kreativ fikrlash mahsulini yaratish.

Ko‘rsatib o‘tilgan ko‘nikmalar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda xar qachongilan e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini tizimli tarzda shakllantirish uchun dastlab ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish nazarda tutiladi. uning uchun ularga taqdim etilayotgan o‘quv axborotlari, savol va topshiriqlar, amaliy ish turlari bog‘liq. Yangi avlod darsliklari va o‘quv metodik qo‘llanmalarning tahlili asosida shuni aytish mumkinki, ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga nisbatan tizimli yondashuv majud emas. Aksariyat topshiriqlarga ta’lim oluvchilar o‘z tajribalari va intuitsiyalariga tayangan holda javob izlashga harakat qiladilar. Mavjud vaziyatlardan kelib chiqqan holda echim izlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarga darsliklarda alohida

e’tibor qaratilmagan. O‘qituvchilarning ish tajribasida ham bunday topshiriqlardan foydalanish bilan bog‘liq pedagogik vaziyatlarni uchratmadik. Shu bilan bir qatorda vaziyatlar va ob’ektlarni modellashtirish, muayyan ob’ektlarning loyihasini yaratish, evristik izlanishga undovchi topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirilgan vaziyatlarni tashkil etishga o‘qituvchilar etarlicha e’tibor qaratmayaptilar. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan evristik mashqlar, muammolarni echishga undovchi algoritmlar ham uchramaydi.

Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish uchun ta’lim oluvchilar oldiga evristik topshiriqlar qo‘yish, ularni ijodiy izlanishga undash alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilar o‘zlarining kreativ fikrlash yo‘naltirilgan faoliyatlari mazmun mohiyatini aniq tasavvur qilishlari uchun ular bilan muntazam tarzda refleksiv topshiriqlar ustida ishlash talab etiladi. Refleksiv mashqlarni bajarish jarayonida ta’lim oluvchilar kraetiv xarakterdagi topshiriqlarni bajaradilar, shu bilan bir qatorda shunday tipdagi topshriqlarni bajarish usullarini ham o‘zlashtiradilar. Natijada ta’lim oluvchilarda kreativ tafakkurning qay darajada rivojlanganligini nazorat qilish imkoniyati vujudga keladi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining qay darajada shakllanganligini nazorat qilish va aniqlash maqsadalila fan qo‘ituvchilari ular bajargan ishlarni chuqur tahlil qilishlari va ob’ektiv baholashlari talab etiladi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida muntazam muloqot vaziyatlarini tashkil etish, muammoli topshriqlarni bajartirish, bir birlarining ishlarini baholashga yo‘naltirilgan vaziyatlarni vujudga keltirish zarur hisoblanadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining muvaffaqiyatli shakllanishi uchun ularda ijodiy izlanish, yangiliklar yaratish, motivlarni hosil qilish maqsadga muvofiq hisbolanadi. Ularning ijodkorligi yaratgan ijod mahsulida yaqqol namoyon bo‘lishida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘quv jarayoni va pedagogik faoliyatni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish

jarayonida tizimli tarzda shakllanadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllanishida biologik hamda ijtimoiy pedagogik omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari quyidagi yo‘nalishlarda shakllanishi mumkin:

1) Kreativ fikrlashga ta’lim oluvchilarning umumiy xarakterdagi ijodiy layoqatlarining ta’sir ko‘rsatishni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish asosida. Mazkur yo‘anlish doirasida ta’lim oluvchilarga kreativ fikrlashga undovchi o‘quv materiallari taqdim etiladi. shu bilan bir qatorda ota-onalari va o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish kitob mutolaasi yordamida o‘zlashtirilgan ijtimoiy tajriba ham kretiav ko‘nikmalarining shakllanishi uchun asos yaratadi. Bunda yondashuv kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

2) Ta’lim oluvchilar sinfdan sinfga o‘tgan sari ulardagi qiziqishlar ko‘lami kengayib kreativ fikrlash motivlari hosil bo‘ladi.

Turli variantdagi o‘quv topshriqlari va badiiy estetik mazmundagi o‘quv materiallari yordamida ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Ta’lim oluvchilarda shakllantiriladigan kreativ fikrlash ko‘nikmalari o‘zining didaktik tavsifi va rivojlaish dinamikasisha ega bo‘ladi. Ularning xotiasi idroki, kreativ layoqatlarini namoyon qilishga bo‘lgan intilish kreativ fikrlash uchun zamin hozirlaydi.

Kreativlik shaxsning yuqori darajadagi fikrlash faoliyati bo‘lib, uning shakllanishiga bir qator omillar asos bo‘ladi. Kretiv fikrlash ijtimoiy pedagogik mahsuli hisoblanadi. Kretiv fikrlash ta’lim oluvchilarda ta’lim jarayonida va oilaviy hayotda shakllantiriladi. Buning uchun ta’lim oluvchilardagi iqtidor va layoqatlar o‘qituvchilar hamda ota-onalar tmonidan o‘z vaqtida aniqlanishi lozim.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida shaxslararo munosabatlar va o‘quv dialogi muhim o‘rin egallaydi. Diaolog jarayonida ta’lim

oluvchilarning kreativlik darajadlari orasida shaxslararo munosabatlar va o‘zaro o‘zaro tenglik bo‘lishi lozim.

V.N.Drujininning fikricha, ta’lim oluvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish ularda kretiv fikrlash ko‘nikmalari shallantirish asos bo‘ladi. Shuning uchvun ham mutaxassislar ta’lim oluvchilarning ijod mahsulidan kelib chiqqan holda uning kreativlik darajasini aniqlashga xaratkat qilganlar. Yuqori darajada rivojlangan intellekt ta’lim oluvchilarning aql idroki qanchalik rivojlangan bo‘lsa ularda kreativlik ham shu qadar rivojlanadi. Ta’lim oluvchilardagi kreativ fikrlash ko‘nikmalarining ko‘lami ularda kreativ fikrlash motivlarining shakllanligi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Intellektual jihatdan rivojlanmagan ta’lim oluvchilar esa kreativ faoliyat ko‘rsatishga moyil bo‘lmaydilar. Ulardagi kreativlikni o‘qituvchlar ota onalar qiqtirish, qo‘llab quvvatlash o‘zrao yordam ko‘rsatish oraqali aniqlashlari lozim. Ta’lim-tarbiya va qo‘llab quvvatlash natijasida o‘quvchilrning intellektual jarajalari rivojlanib ularda kretiv fikrlash motivlari hosil bo‘ladi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalari rivojlanib faollashganda esa ta’lim oluvchilarda mazkur faoliyat natijalaridan qoniqish, ijodkorlik, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik, yangiliklar yaratishga rag‘bat kabi sifatlar ortadi. Agar o‘quv materiallari ta’lim oluvchilarning zo‘riqishiga sadhbab bo‘lsa ulardagi kreativlika bo‘lgan intilishi susayib kretiv fikrlash motivlari namoyon bo‘lmaydi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bir qator metodlardan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Ular: kuzatish, dialog, suhbat savol-javob, o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, o‘zi va guruhdoshlarining ijodiy ishlarini baholash, bir birlarining ijodiy ishlarini tahlil qilish, ularning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash va baholash shular jimlasidandir.

Pedagogika, psixologiya, sotsiologiyaga oid manbalarda sezgiga asoslangan tasavvur hamda xayol yoki kreativlikning falsafiy, psixlogoik, pedagogik asoslari haqida fikr yuritiladi. Kreativlikka asoslangan pedagogik jarayonni tashkil etish uchun muammoning ijtimoiy, fasafiy, tarixiy ildizlarini o‘rganish talab qilinadi.

Kreativlik bevosita o‘quvchilarning hissiyotlari, kechinmalari, ichki dunyosi bilan bog‘liq bo’lgan hodisadir. Ta’lim oluvchilarning kechinmalarida esa ularning shaxsiy sifatlari mujassamlashgan bo‘ladi. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarning kreativ jarayon sub’ekti sifatida o‘z o‘zlarini namoyon qilishlarini ta’minlaydi. Kreativ ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxs ijodiy faoliyatning ko‘plab turlarini bajarishga moyil bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarning kreatilikka moyilliklarini ularda mavjud bo‘lgan faoliyat usullari yordamida aniqlash mumkin. D.Murodova, B.G.Ananev, A.G.Kovalev, V.A.Kruteskiy, A.N.Leontev, G.Yusupovalarning tadqiqotlarida ko‘rsatishlaricha, kreativ fikrlash ko‘nikmalari o‘zining didaktik tavsifiga ega. Taniqli mutaxassis B.G.Ananev o‘z izlanishlarida kreativlikning to‘rtta darajasini ko‘rsatgan[11]. Kreativlik haqida o‘z navbatida S.L. Rubinshteyn ham kenga ko‘lamli izlanishlarni ham amalga oshirgan.

Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishga intiladilar. Natijada ular o‘z ijod natijalarni yaratishga intiladilar. Ta’lim muassasalirda ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyatlari natijalari mahsuldor bo‘lishi, shaxsning o‘zi va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi zarurligini ta’lim oluvchilar ongiga etkazish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilarning kreativ faoiyatlari natijasida yaratilgan narsalar ularning rivojlanishiga asos yaratadi. Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan qo‘uvchilar o‘z o‘zlarini xissiy ma’naviy axloqiy, intellektual, jismoniy jihatdan rivojlantirish, ushbu maqsadda izlanishga moyil bo‘ladilar.

Rivojlantiruvchi ta’lim jarayonini tashkil etishdan kzlanadigan asoiy maqsad ta’lim oluvchilarning kreativliklarini ro‘yobga chiqarish, ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini jadal tarzda shakllantirishdan iborat. Ta’lim oluvchilarning mustaqild bilim olishga intilishlari natijasida kreativ fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Natijada

[11] https://ru.wikipedia.org/wiki/Ананьев,_Борис_Герасимович

ularning iqtidorlari kreativ layoqatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish bir qator tadqiotlarning ob’ekti bo‘lgan.

Faoliyatli yondashuv doirasida ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogikaning istiqbolli yo‘nalishlaridan bir hisoblanadi. Kreativ fikrlash natijasida ta’lim oluvchilar bir qator kreativ harakatlarni amalga oshiradilar. kreativ tafakkur yuritish natijasida ta’lim oluvchilarning ruhiy holatlari ham sifat jihatdan o‘zgaradi. Jumladan, ta’lim oluvchilarning motivlari, his-tuyg‘ulari, kechinmalari, kreativ xarakterga ega bo‘ladi. Buning natijasida esa ular kreativ faoliyat usullarini bajaradilar.

Ta’lim oluvchilar kreativ fikrlash natijasida ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo‘ladilar. Ta’lim oluvchilarnnig kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholash ham o‘z echimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Ular kreativ fikrlash natijasida yangi narsalarni yaratishga intiladilar. Kreati jarayonlarning natijasida ta’lim oluvchilar intellektual jihatdan rivojlanishga muvaffaq bo‘ladilar. ushbu masala uzoq yillar mobaynida tadqiotchilarning e’tiborini o‘zgia jalb qilgan. Masalan, V.P.Zinchenkoning perseptiv faoliyatni amalga oshirish mexanizmlari haqidagi qarashlari; V.V.Davыdovning bilimlarni izchil o‘rganish metodikasi; A.N.Leontev va O.K.Tixomirovning o‘quv jarayonini uyg‘unlashtirish nazariyasi, Ya.A.Ponomarevning harakat usullariga oid konseptual qarashlari; A.A.Leontevning fikrni nutq orqali ifodalash usullari; A.M.Matyushkinning bilish motivlari haqidagi didaktik yondashuvlari, M.I.Maxmutovning kreativ xarakterdagi o‘ziga xos jixatlari bunga misol bo‘la oladi.

Ko‘rinib turibdiki ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarning irvojlanishi o‘quv jarayonida kreativ texnologiyalardan unumli foydalanishni talab qiladi. O‘quvchining kreativ fikrlash ko‘nikmasi maxsuldor o‘quv faoliyati natijasi bo‘lib, ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilardagi fikrlash ko‘nikmalari o‘quv topshriqlarini evristik metodlar yordamida bajarish imkonini beradi. Mazur jarayonda ta’lim oluvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilishlari uchun

rivojlantiruvchi xarakterdagi o‘quv materiallari va o‘quv topshrivlari ustida ishlashlari lozim.

Ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish masalasiga dastlab S.L.Rubinshteyn murojaat qilgan. S.L.Rubinshteyn va uning izdoshlari shaxsning kreativlik darajasini tadqiq qilishga xarakat qilganlar. S.L.Rubinshteyin va uning izdoshlari kreativlikni insonga xos faoliyatning asosiy ko‘rinishi sifatida baholagan. Chunki kreativlik insonparvarlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lib shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

D.V.Reutning ta’kidlashicha, kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxsda ijodiy faoliyat tajribasi shakllanadi[12]. Shu bilan bir qatorda kreativ fikrlash ta’lim oluvchilardagi tashabbuskorlikning asosiy manbai hisoblanadi.

O‘quvchining kreativ fikrlash ko‘nikmalari uni atrofdagilar bilan ijodiy hamkorlik qilish va o‘z o‘zini muntazam rivojlantirishga undaydi. Aksariyat hollarda ta’lim oluvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini mustaqil tashkil etish unda amalga oshirilgan faoliyat usullarini o‘zlari erkin tanlashga xarakat qiladilar. Bunday mustaqillik ta’lim oluvchilarda ijodiy faoliyat usullari chuqurroq o‘zlashtirish motivlarini xosil qiladi.

Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z faoliyatlarini mustaqil tashkil etadilar. Ular qo‘lga kiritgan natijadar bilan cheklanib qolmaydilar. O‘z yutuqlarini ko‘paytirishga intiladilar. Qo‘uvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega ekaligi ularning o‘quv jarayoniga va o‘quv topshriqlarini bajarishga bo‘lgan munosabatlari orqali ham namoyon bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari dastlab ularning izlanuvchanligida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar oldiga kreativ topshiriqlar qo‘yilishi, mazkur topshiriqlarni bajarish uchun ular yangi axborotlarni

[12] Реут Д.В. Сладкое проклятие креативности // Когнитивный анализ и управление развитием ситуатsій (CASC’2001). Труды 1-й международной конференции. Москва, 11-12 октября 2001 г. т.3. М.: Институт проблем управления РАН, с. 91-123.

izlab topishga intilishlari muhim ahamiyatga ega. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish natijasida ta’lim oluvchilarda salbiy xulq atvor ko‘rinishlari bartaraf etiladi. Ularda poztiv xatti harakatlar, moddiy borliq va atrfdagi odamlarga nisbatan ijobiy munoasbat tajribasi tarkib topadi. Natijada ular kreativ xarakterdagi mahsuldor faoliyat usullarini bajarishga kirishadilar.

Kreativ fikrlash ko‘nikmalari ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatish motivlari bilan samarali uyg‘unlashadi.

Kreativlikning yorqin namoyon bo‘lishi ta’lim oluvchilarning tasavvurlari va fantaziyalarida ifodalanadi. Ta’lim oluvchilarning xayollari, tasavvurlari yaratuvchi va ijodiy xarakterga ega. Kreativlikka ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarning xayollari, tasavvurlari, yorqinligi, hayotiyligi, o‘ziga xosligi, kutilmaganligi, fantaziyalarga boyligi hamda obrazliligi bilan ajralib turadi. Kreativlik xususiyatiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarning tafakkurlari jadalligi, moslashuvchanligi, betakrorligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Kreativ fikrlash ko‘nikmalari inson tafakkurining muntazam boyib borishini ta’minlaydi. Ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga undaydigan evristik topshiriqlar o‘ziga xos didatktik xususiyatga ega. Ular,

1. Muayyan xodisaning xususiyatlarini o‘rganish, tahlil qilish va unga munosabat bildirishga yo‘anltirilgan topshriqlar. Bunda ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalari ularda mustaqil izlanish motivlarining shakllanishida ko‘maklashadi.

2. Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar kechinmalari va xis tuyg‘ularini ijodiy faoliyat usullari orqali namoyon etadilar. Ushbu jarayonda ularning ijodiy faolliklari, xis tuyg‘ulari, ko‘tarinki kayfiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda sharq mutafakkirlar 9-15 asrlarda o‘ziga xos maktab yaratgan bo‘lsalar, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib rivojlangan G‘arb mamlakatlarida ta’lim oluvchilarning kreativ

ko‘nikmalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshrildi. Ushbu yo‘nalishda Gilford, Teylor, Mednik dastlabki izlanishlarini amalga oshirganlar. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga oid quyidagi yondashuvlar alohida e’tirof etilgan.

1. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash darjalarini rivojlantiruvchi kreativlik. Bu ta’lim oluvchilardagi kreativ axborotlar hamda ijtimoiy tajribasini yangi ma’lumotlar va faoliyat usullari bilan boyitishni anglatadi.

2. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion xarakterdagi kreativlik. bunda ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish natijasida o‘zlashtirilgan kreativlik faoliyati usullaring ijodiy xarakterini baholash mexanizmlari sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmlarini shakllantirishga xizmat qiladigan estetik xarakterdagi kreativlik. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga ko‘maklashadigan badiiy esteik mazmundagi o‘quv topshiriqlardan samarali foydalanish nazarda tutiladi.

4. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga asos bo‘ladigan dinamik xarakterdagi kreativlik. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilarda ijodkorlikning muntazam tarzda rivojlanishi uchun qulay pedagogik shart sharoitlar yaratiladi, samarali didaktik vositalar qo‘llaniladi.

5. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishda muammolli xarakterdagi kreativlik. Bunda bir qator muammoli topshriqlar da didaktik vaziyatlar yordamida ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalari kreativ faoliyat usullari tizimli tarzda shakllanadi.

6. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish natijasida tanlab olingan ob’ektlarni takomillashtiruvchi kreativlik. mazkur jarayonda ta’lim oluvchilar mavjud ob’ektdan ko‘ra, yaxshirog‘ini, mukammalrog‘ini yaratishga harakat qiladilar. Mazkur jarayonda o‘qituvchi ijod qilish uchun qulay bo‘lgan pedagogik vaziyatlarni tashkil

etadi, mavjud ob’ektlarni takomillashtirish ularni jodiy yondashish haqida ko‘rsatmalar beradilar.

Ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini o‘ziga xos jihatlarini farqlash alohida pedagogik imkoniyatlarini taqdim etadi. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlag ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar hamkorlikda kreativ xarakatlarni amalga oshirishlari lozim. Kreativ fikrlash yangicha, ijodiy fikrlash demakdir. Kreativ fikrlash jamiyat hayotini ijodiy yondashgan holda o‘zgartirish rivojlantirishni ham anglatadi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarni shakdllantirish sohasida izlanishlarni amalga oshirgan mutaxassislar, mazkur maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonga o‘ziga xos xodisa sifatida yondashmoqdalar. Ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantrishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

a) kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan didatkik jarayonning o‘ziga xos jihatlarini xisobga olish

b) kreativ faoliyat natijalari baxolash

v) kreativ fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘quvchi shaxsining o‘ziga xosliklarini anglash

g) ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratish kabilar.

Ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularning barchasi alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ularni bir yo‘la bisqichma bosqich amalga oshirish talab qilinadi. Biz quyida ularning o‘ziga xos didaktik imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz.

Kreativlik haqida quyidagilar aniqlangan:

1. kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan didatkik jarayonning o‘ziga xos jihatlarini xisobga olish – ushbu yo‘analishda muvaffaqiyatga erishi uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlash tarzi atrofdagi voqea hodisalarga munosabat bilidirish imkoniyatlarini

kengaytirishga xizmat qiladigan didaktik maqsadlar vazifalar xarakatlar hamda jarayonning metodik ta’minoti amalga oshiriladi. Ushbu didaktik xarakatlar natijasida ta’lim oluvchilarning ijtimoiy tajribasi boyidi, kreativ fikrlash faolligi ortadi. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar o‘zlarining kreativlik fikrlash ko‘nikmalariga oid harakatlarni ongli tarzda amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladilar.

2. kreativ faoliyat natijalari baxolash. Ta’lim oluvchilar kreativ fikrlash natijasida kreativ xarkterga ega bo‘lgan ijodiy faoliyatni amalga oshriadilar. mazkur faoliyat natijasida ijodiy mahsulot yaratiladi. O‘qituvchilar har bir qo‘uvchining kerativ faoliyatn natijalarini munosib baholashlari, ularning istiqboldagi kreativ faoliyatlarini rag‘batlantirishlari va qo‘llab quvvatlashlari muhim ahamiyatga ega. Bunday qo‘llab quvvatlash natijasida ta’lim oluvchilarning ruhiy imkoniyatlari kengayib kreativ faoliyat usullarini mustaqil bajarish, tashabbuskorlik, yartuavchilik ko‘nikmalari takomillashadi.

3. kreativ fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘quvchi shaxsining o‘ziga xosliklarini anglash. Kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan qo‘uvchilar bir qator o‘ziga xos sifatarga ega bo‘lib, maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda qo‘ituvchilar ta’lim oluvchilarda mashxur sifatlarni takomillashtirish, yangi bochsqichga ko‘tarish ustida ishlashlari, diagnostik metodlardan foydalangan holda ushbu sifatlarning darajasini aniqlashlari bo‘shliqlarni to‘ldirish haqida aniq tavsiyalar berishlari lozim.

4. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratish. Mazkur jarayon o‘qituvchi uchun o‘ta ma’uliyatli bo‘lib, ta’lim oluvchilarning mustaqil kreativ faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashga xizmat qiladigan didaktik shart-sharoitlarni yaratish qulay vositalarni qo‘llash kreativ vaziyatlarni shakllantirishni taqozo qiladi. O‘qo‘uvchilar tomonidan yaratilgan kreativ fikrlash mahsuli bo‘lgan ijod namunalari turli-tuman shakllarda bo‘ladi. Masalan, rasmlar, illyuchtratsiyalar, turli buyuimlarning modellari, loyig‘alar , badiiy ijod namunalari ya’ni she’rlar hikoyalar va hokazo.

Kreativ fikrlash natijasida noodatiy ijod namunaalari yaratiladi. O‘qituvchilar ta’lim oluvchilarning ijodkorligini qo‘llab quvvtagalan holda ushbu namunlarni munosib baholagan holda o‘z vaqtida ta’lim oluvchilarni rag‘batlantira olishlari muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi birinchi navbatda ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirshga yo‘anltirilgan pedagogik jarayonlarning ular uchun rivojlantiruvchi mustaqilliklarini qo‘llab quvtlovchi jarayon bo‘lishiga erishishlari muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar kreativ jarayonlarning mustaqillik xarakteriga ega ekanligini ta’kidlaydilar.

P.L.Meytuv va V.I.Butorinlar kreativ jarayonlarga nisbatan ikki xil yondashuvni ilgari surganlar[13]: a) muayyan vaqtda aniq shaxsda hosil bo‘ladigan jarayon; b) ijtimoiy aloqalar bilan bog‘liq jarayon, muammoli sohalar, ijtimoiy-tarixiy sharoitda kreativ mahsulotlarni baholash mezonlari. Bu jarayonda ham kreativlik muayyan shaxs bilan bog‘liqlik mohiyatini yo‘qotmaydi. Biroq, jaryonning tahlili va uning etilishiga nisbatan boshqacha yondashuvni talab qiladi.

F.Barronning ta’biricha, kreativlik jarayonining markaziga xayol va ramzlarni qo‘yadi. Bu o‘z navbatida kreativlik mezoni bo‘lib, uni ichki jarayon sifatida aniqlash imkonini beradi. Mahsulotning bo‘lmasligi kreativlikning mavjud emasligidan dalolat bermaydi[14].

Kreativlik asosida mavjud qoliplardan tashqariga chiqish va keng ko‘lamda faoliyat ko‘rsatish layoqati namoyon bo‘ladi. D.Feldmanning ta’biricha, kreativ jarayonlar uch qismli modeldan iborat bo‘ladi. Bu qismlar o‘zaro uch xil bog‘lanishga ega. Jumladan:

1) tahliliy faoliyat asosiy jarayon sifatida insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi va o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, nutq vositasida amalga oshiradigan ishlarni rejalashtirish, moddiy olamni aks ettirish va tahlil qilish;

[13] Мейтув П.Л., Буторин В.И. Развитие индивидуального творческого мышления. - М.,1994. 163 с.
[14] Barron, F. X. The Creative Process and the Psychedelic Experience. Explorations magazine, Berkeley California, June-July. (1968).

2) insonning o‘z jismi ichida vujudga kelgan holatlarni maqsadga yo‘naltirish va jadallashtirish, buning uchun ishonch bilan muhitni o‘zgartirishga bo‘lgan intilish namoyon bo‘ladi;

3) individual farqlarni taqozo qiladigan bilimlarni bir holatdan ikkinchisiga ko‘chiradigan, amalda tadbiq qiladigan layoqatlarni egallash kabilar[15].

Kreativlikka kreativ jarayonda yaratilgan mahsulotlar nuqtai nazaridan yondashish mumkin. F.Barronning ta’biricha, kreativlik ichki jarayon bo‘lib, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan harakatlarning davom etishi, bu jarayonda mahsulotning yaratilmasligi kreativlikning mavjud emasligidan dalolat bermaydi[16].

Boshqa tomondan bir qator kreativ mahsulotlar kreativ jarayon natijasida vujudga kelmaydi. Bu muayyan shaxs uchun kreativ xarakter kasb etmaydi. Boshqalar uchun esa, kreativ hodisa hisoblanadi. Muayyan tarixiy vaziyatda har bir shaxs uchun jarayonning o‘zi betakror hisoblanadi. Bu muayyan vaziyatda shaxsning muammolari, holati va mavqei bilan bog‘liq. Aksariyat mutaxassislar kreativ jarayon haqida kreativ mahsulotga asoslangan holda xulosa chiqaradilar.

Kreativlikning qanday mezonlari mavjud, degan haqli savol tug‘iladi.

Shunday mezonlardan biri – nostandartlik mezoni. R.Liri[17] kreativ hodisalar va kreativlikni ifodalovchi mahsulotlarni aniqlashning ilgari uyg‘unlashmagan narsalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida baholashni taklif qiladi. Chunki kamdan-kam uchraydigan javoblar va tabiiy javoblar har doim ham mos kelavermaydi. Tushunchalarning asoslanmagan qo‘shilishi haqidagi fikrlar vujudga keladi. Ijod qilishga bo‘lgan layoqat nostandart holatlarga o‘xshatiladi. Nostandartlik tabiiylik bilan mos keladi.

---

[15] Feldman, D. H., Csikszentmihalyi, M., & Gardner, H. (1994), Changing the world: A framework of the study of creativity, Westport (CT), Praeger.

[16] Barron, F. X. The Creative Process and the Psychedelic Experience. Explorations magazine, Berkeley California, June-July. (1968).

[17] *Leary T.* Interpersonal Diagnosis of Personality : A Functional Theory and Methodology for Personality Evaluation / Timothy Leary. — Resource Publications, 2004. — Previously published by John Wiley & Sons, 1957. — ISBN 1-59244-776-7.

Nostandartlik tabiiylikka nisbatan kengroq tushunchadir. Kreativlikning namoyon bo‘lishida har qanday og‘ishni ko‘rsatish mumkin.

P.Torrens kreativlikni tavsiflar ekan, muammolarga sezuvchanlikning vujudga kelishi, bilimlarning etishmasligi, ularning hamohanglikka ega emasligi, anglanmaganligi, mazkur muammolarning qayd etilishi, echimlarning izlanishi, farazlarni ilgari surish, tekshirish, ularning o‘zgarishi, echimlar natijasini shakllanishi va ma’lum qilinishi bilan bog‘liq jarayon sifatida baholaydi. Kreativlikni aniq tavsiflashga xizmat qiladigan o‘nlab qoidalar mavjud. Eng muhimi kreativlik tabiiy jarayon sifatida insonning bosimlarni pasaytirishga nisbatan kuchli ehtiyoji natijasida vujudga keladi. U noaniq yoki yakunlanmagan vaziyatlarda tug‘iladi. Kreativlikni jarayon sifatida baholash uni ijodkorlik layoqati sifatida baholash imkonini beradi. Shuningdek, kreativlik mazkur jarayonni engillashtiruvchi va yo‘naltiruvchi sharoit hamdir. Ushbu jarayonda qo‘lga kiritilgan natijalar ham kreativlik yordamida baholanadi. Kreativlik voqelikni chuqur anglash, yaqindan ko‘ra bilish, xatolarni tuzatish, yangi va noodatiy natijalarni qo‘lga kiritish va xayolot olamida istiqbolga intilish demakdir.

Kreativlik fikrlashning eng qulay o‘lchovi hisoblanadi. So‘z o‘yinlari va she’riyat kreativ natijalar olish imkonini beradi. Shuning uchun ham, olingan natijalar talabga qanchalik javob bersa, u shunchalik kreativ xarakterga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra, kreativlikning ijodiy mahsuldor hamda natija olish imkonini bermaydigan turlarini ajratish mumkin. Ijodiy jarayonda bajariladigan asosiy operatsiyalar qiyoslash operatsiyalaridir. Bunday operatsiyalar yordamida turli qismlar orasida fikriy bog‘lanishlar vujudga keladi. Jumladan, tiklash, fikriy uyg‘unlashtirish, tasodifiy bog‘lanishlar kabi.

Kreativ fikrlash muammosiga turli nuqtai nazardan yondashish mumkin. Ajdodlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur va ularning ko‘plab izdoshlari va zamondoshlari shaxsning ijodkorligi masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Ular yoshlarning ijod qilishlari uchun o‘z

imkoniyatlarini safarbar etganlar. Buning natijasida o‘sha davrda ko‘plab ijodkorlar etishib chiqqanlar. Shuning uchun ham, o‘sha davrdagi ijod mahsuli sifatida ko‘plab umrboqiy asarlar, binolar, tarixiy yodgorliklar va o‘lmas obidalar bizgacha etib kelgan.

Mustaqillik yillarida yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratildi. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev hamda Respublika hukumati keng ko‘lamli chora-tadbirlarni qo‘llab kelmoqda. Yoshlarning ijodiy faoliyatlarini ro‘yobga chiqarish va rag‘batlantirish maqsadida turli tanlovlar va mukofotlar joriy qilindi. Jumladan, “Nihol”, “Zulfiya” mukofotlari, turli ko‘rik-tanlovlar yoshlar ijodini munosib baholashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni, 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Yoshlarning ijodkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev besh muhim tashabbusni ilgari surdi. Unda iqtidorli yoshlarning ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Kreativlik ta’lim oluvchilarning individual fikrlash faolligi bilan bevosita bog‘liq. Ta’lim oluvchilarning mayllaridagi turli-tumanlik va ijtimoiy-madaniy muhit ijodning asosiy manbai hisoblanadi. Ijodkor shaxs o‘zining muayyan jihatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Ta’lim oluvchilarning o‘z kreativ fikrlashlarini namoyon etishlari ularning psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. O‘z-o‘ziga ishonch, jasurlik, erkinlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish, o‘z-o‘zini anglash nafaqat ijodkor kishilarga xos bo‘lgan xususiyat, balki, ularning ijodiy quvvatlarini amalga oshirishni ta’minlaydi. O‘z-o‘zini namoyon qilish ijodkor shaxs uchun uning imkoniyatlarini

ro‘yobga chiqaruvchi quvvat bo‘lib, atrofdagilarning bahosidan qat’i nazar mustaqil tarzda rivojlanadi.

Ijod uchun o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan manbalarning mavjud bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Jumladan: intellektual layoqatlar, bilimlar, fikrlash uslublari, shaxsiy tavsiflar, mayllar va atrof-muhit kabilar.

Ijod jarayoni quyidagi intellektual layoqatlarni taqozo qiladi: a) umumlashtirish layoqati, muammoni yangicha kontekstda ko‘ra olish va dastlabki tafakkur uslubidan voz kechish; b) tahliliy layoqat, qanday g‘oyalar ustida ishlash, qaysilarini inkor eta olish; v) amaliy layoqatlar, o‘z g‘oyasining qimmatliligiga boshqalarni ishontirish hamda ijodiy g‘oya berish kabilar.

Ta’lim oluvchilarning tahliliy layoqatlari ularning tanqidiy tafakkurlarini ham rivojlantiradi. Umumlashtirish layoqati esa, yangi g‘oyalarning vujudga kelishini ta’minlab, mazkur g‘oyalar ta’lim oluvchilarning ijodiy quvvatlari va imkoniyatlarini baholaydi hamda ularni ijod qilishga undaydi. Ta’lim oluvchilarda amaliy layoqatlarning rivojlanishi muayyan g‘oyalarni o‘zaro ayirboshlash imkonini beradi.

O‘quvchi ijodiy faoliyat ko‘rsatayotgan sohani rivojlantirishi uchun etarlicha bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Ta’lim oluvchilarning tafakkur tarzi haqida fikr yuritilar ekan, ijod uchun qonunchilikka asoslangan uslub muhim ahamiyatga ega. Bu yangiliklar haqida o‘ylash, farazlarni ilgari surish, o‘z fikrining harakatlanishini ta’minlovchi shaxsiy prinsiplar va qonuniyatlarni ko‘tarib chiqish imkonini beradi. Yangiliklar haqida o‘ylash ta’lim oluvchilarning ijod qilishlari uchun zamin hozirlaydi.

Ta’lim oluvchilardagi ichki qo‘zg‘atuvchi mayllar topshiriqlarda mujassamlashtirilgan bo‘lib, ijod uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. O‘quvchi o‘zi istagan va sevgan sohada ijod qilishga moyil bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarni o‘rab turgan atrof-muhitdagilar ularning ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirishlari lozim. Ta’lim oluvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun ulardagi barcha ichki imkoniyatlarni safarbar qilish kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, pedagogik

qo‘llab-quvvatlashsiz ta’lim oluvchilarda mavjud bo‘lgan ijodiy imkoniyatlar hech qachon ro‘yobga chiqmasligi mumkin.

Ijod o‘zida bir qator ruhiy holatlarni ham mujassamlashtiradi. Jumladan, kechinmalar, xotira, ixtiyor, layoqatlar kabi. Ijodning tarkibiy qismlarini tahlil qilar ekanmiz, ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlari va ruhiy holatlari bilan bog‘liq holda uning moyillik va harakatlariga oid qismlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda, ijod uchun hissiyotlar, kechinmalar va dunyoqarash ham muhim ahamiyatga ega.

Dunyoqarash ijodiy faoliyat jarayonida kichik yoshdagi ta’lim oluvchilarning nuqtai nazarlarini aniq namoyon qilish imkonini beradi. Ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos dunyoqarashi sifatida o‘quv ijodiy faoliyat ko‘rsatish imkonini beradigan quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) o‘zining ijodiy mavqeini qat’iy himoya qilish;

2) o‘z dunyoqarashining shaxsiy xususiyatlarini anglash kabilar.

Ta’lim oluvchilarning ijodga moyilliklarini ifodalovchi qism uning ongli tarzda faoliyat ko‘rsatish ijod va o‘qishga undaydi. Barcha ruhiy holatlarning uyg‘unlashuvi ta’lim oluvchilarning xulq-atvorlarini yaxlit tarzda aniqlaydi. Buning natijasida o‘quvchi nima uchun faoliyat ko‘rsatayotganligini anglab etadi.

Ta’lim oluvchilarning ijodga moyilligini ifodalovchi qism bilimlarni ijodiy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv materiallarini ijodiy o‘zlashtirish va ko‘nikmalarni ijodiy tarzda egallash mayllarini hosil qiladi. Bu ta’lim oluvchilarda quyidagilarni shakllantirishga ko‘maklashadi:

1) bilishga intilish, qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatga nisbatan qiziqish, bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, faoliyatning yangi usullarini egallash, aqliy sinchkovlik, bilishga havas, kuzatilgan va tahlil qilingan hodisalarni chuqurroq bilishga intilish, savollar qo‘yish;

2) qiziquvchanlik hissi, kashfiyotlardan qoniqish;

3) ijodiy yuuqlarni qo‘lga kiritish, etakchilikka intilish;

4) yuqori baho olishga intilish, o‘quv hamda ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatlarni tan olish kabilar.

Ta’lim mazmuniga oid qism ta’lim oluvchilarni o‘quv hamda kreativ fikrlashka undaydi. Bu ijodiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda intellektual layoqatlilik va shaxsiy ko‘nikmalar asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu ko‘nimalar o‘zida intellektual mantiqiy ko‘nikmalar va intellektual evristik layoqatlarni mujassamlashtiradi. Intellektual mantiqiy ko‘nikmalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) qiyoslash, tahlil qilish;

2) bilish ob’ektlarini qismlarga bo‘lish;

3) asosiy hodisani ajratish, ikkinchi darajali hodisalarni aniqlash;

4) hodisalar, jarayonlarni tasvirlash, o‘z fikrini mantiqiy jihatdan bog‘lagan holda bayon qilish;

5) voqelikka aniqlik kiritish, hodisalar va narsalarning o‘zaro o‘xshash va farqli belgilarini ajratish;

6) tushuntirish, o‘z fikrini bayon qilish, eng muhim, mavjud holatlarni ajratib ko‘rsata olish, asoslash kabilar.

Intellektual evristik layoqatlar esa quyidagilarni qamrab oladi:

1) g‘oyalarning tug‘ilishi;

2) fantaziya qila olish layoqati;

3) ijodiy topshiriqlarning qismlari orasida aloqadorlikni ta’minlash;

4) tafakkurning moslashuvchanligi, bilimlarni bir holatdan ikkinchi holatga ko‘chira olish, yangi vaziyatlarga kirisha olish kabilar.

Ta’lim oluvchilarning kreativ vazifalari o‘z ijodiy maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatidir. Ta’lim oluvchilarning kreativ vazifalari ularning tahliliy faoliyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Tahliliy faoliyat mustaqil bilish, ongning oliy darajada rivojlanishi, insonning o‘zini hayotiy faoliyatidan farqlashi, o‘zi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi, ijtimoiy ahamiyatli hatti-harakatlarni bajarish layoqatini egallashidir.

2.3. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash faoliyatini rivojlantirish parametrlari

Ta’lim oluvchilarga bilim berishga asoslangan an’anaviy ta’lim jarayoni asosida ularga taqdim etiladigan didaktik vositalar majmui o‘z ifodasini topgan. Ular o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari shaklida namoyon bo‘ladi. Madaniyatning qayta ishlab chiqilgan shakllari sifatida o‘quv materiallari o‘quv predmetlari doirasida ta’lim oluvchilarga taqdim etiladi. O‘quv predmeti doirasida DTSlarda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘z ifodasini topgan. Ta’lim oluvchilarda fikrlarni moddiy borliq bilan bog‘liq tarzda hosil qilish mumkin. Shaxs o‘z fikrlarini mustaqil tarzda rivojlantiradi, uni tayyor holda o‘zlashtira olmaydi. Fikrlar intilishlar, kechinmalar, his-hayajonlar yordamida tarkib topadi, bular maxsuldor usullarni qo‘llash yordamida hosil bo‘ladi. Shuningdek, ma’lumotlarni uzatish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik qilishga imkon beradigan materiallar ham ta’lim oluvchilarda ob’ektiv fikrni hosil qilishga ko‘maklashadi. Qadriyatlar va mustaqil fikrlash mexanizmlariga asoslanmagan tashqi talablar ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmaydi. Faqat shaxsiy fikrlargina ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga yordam bera oladi.

Shaxsning shakllanishi – ijtimoiy jihatdan bog‘liq bo‘lgan o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidir. Bu o‘quvchining rivojlanishning past darajasidan yuqori darajasigacha bo‘lgan ichki intilishini ifodalaydi. Bunday sharoitda tashqi sabablar ichki sharoitlar orqali harakatlanadi.

Bir xil sharoitlarda muayyan o‘quvchida kreativ fikrlashning vujudga kelishi kuzatiladi. Boshqa bir guruh ta’lim oluvchilarda esa, bunday holat kuzatilmaydi. Bu jarayonda o‘quvchining o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati muhim ahamiyatga ega. Bu munosabat qanday ko‘rinish kasb etadi, degan savolga faol, sust yoki befarq tarzida javob berish mumkin. Xuddi shu tariqa, ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning rivojlanish istiqbollarini bashorat qilish mumkin. Bunday faollikning taraqqiyoti refleksiyaning turli ko‘rinishlarini boshqarish orqali amalga oshadi. Ular harakatga

asoslangan, predmetli va shaxsiy ko‘rinishlarga ega. Refleksiyaning harakatga asoslangan va predmetli ko‘rinishlarining psixologik mexanizmlari kreativ faoliyatning harakatga va mazmunga asoslangan qismlari shaxsning yangi ehtiyojlari bilan bilim, ko‘nikma va malakalari orasida nomutanosibliklar namoyon bo‘ladi. Shaxsiy ko‘rinishga ega bo‘lgan refleksiyaning shaxsning dunyoqarash va hissiy holatlarga ta’siri qarama-qarshi ziddiyatlarni bartaraf etish, o‘qishga oid ilgarigi fikrlarning yo‘qolishi natijasida hosil bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning vujudga kelishi uning maxsus qismlarini rivojlantirishga oid bilimlarni o‘zlashtirishni taqozo qiladi. Jumladan, maylli, dunyoqarashga oid, hissiy-ixtiyoriy, mazmunli-harakatli hamda refleksiv qismlar bunga misol bo‘la oladi. Ularning o‘zaro ta’siri va aloqadorligi uyg‘unlashgan birliklar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, har bir shaxs uchun xarakterli bo‘lgan odat o‘ziga xos tarzda rivojlanish maromi va shart-sharoitlariga egalikdir. Xarakterli bo‘lgan jihatlardan biri, ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyatlari qismlarining rivojlanish darajalarini aniqlashdan iborat. Bunday yondashuv ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi vositalarni maqsadga muvofiq tarzda tanlash imkonini beradi, ularning ijodiy quvvatlarini muayyan maqsadga yo‘naltirishga ko‘maklashadi.

Shunga ko‘ra ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat ko‘nikmalari rivojlanishining 3 ta darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular quyi daraja, o‘rta daraja hamda yuqori daraja kabilar.

Bunday tizimni modellashtirish natijasida alohida pedagogik vaziyatlarning didaktik izchilligini ta’minlash mumkin. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarning e’tiborlarini o‘rganilayotgan muammoga yo‘naltirish imkonini beradi. Didaktik sharoit tushunchasi ostida biz o‘quv jarayonini boshqarish shart-sharoitlarini tushunamiz. Bu bevosita ta’limning mazmuni va birligi, jarayon uyg‘unligi va bu jarayonda o‘qituvchining boshqaruvchilik nuqtai nazarini anglatadi. Pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishning didaktik shart-sharoitlariga oid bilimlar – bu maqsadlar va ularni

qo‘llash, ularni qurish manbalari, bu jarayonda o‘quv materiallaridan foydalanish yo‘llari, turli turdagi vaziyatlarning vazifalari, o‘quv predmetini o‘rganish jarayonida ularning o‘rni, ularni tashkil etish usullari, natijalarni tekshirish metodlariga oid bilimlardir. O‘quv vaziyati haqida fikr yuritilar ekan, o‘quvchiga bo‘lgan munosabatni ifodalovchi tashqi shart-sharoitlar tushuniladi. Bu shart-sharoitlar o‘quvchining faolligini qo‘zg‘aydi va uni jadal harakatlanishga undaydi. Psixologik nuqtai nazardan o‘quvchining faolligi uning o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabati sifatida talqin etiladi. Faollik ta’lim oluvchilarning uyg‘unlashgan harakatlarining muayyan holatidir. U ishchanlikning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchining faolligi uning o‘quv mehnati, bilimlarni egallash jarayonida ko‘rsatadigan jadalligi, jonbozligi sifatida namoyon bo‘ladi. Faollikning o‘ziga xos jihati ko‘plab mutaxassislar tomonidan ochib berilgan. Ular V.A.Petrovskiy, A.G.Asmolov, R.Safarova, B.Adizov, G.Najmiddinova, E.G‘oziev, M.Davletshin kabilardir. O‘quv vaziyati bilan bog‘liq faollik sifatida beg‘araz, qaltis harakatlarga bog‘liq tarzda boshlang‘ich vaziyatlar doirasida moslashmagan faollik ko‘rsatish asosida o‘quvchi nafaqat o‘z faoliyatini takomillashtirishga intiladi, shu bilan bir qatorda, faoliyatga oid harakatlari, yangi, qiziqarli maqsadlarini loyihalashtiradi va ilgari mavjud bo‘lgan faoliyat tarzidan voz kechadi.

Biz o‘z izlanishlarimiz doirasida o‘quv-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarning fikriy kreativ fikrlashlarini muayyan maqsadga yo‘naltirishning pedagogik imkoniyatlari haqida to‘xtalamiz. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarda refleksiyani rivojlantirish hamda o‘quv jarayoni mantiqini izlash, ularni refleksiyani tarkib toptirishga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlarda faol harakat qilishga yo‘naltirish imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatning nazariy modeli o‘zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- muayyan maqsadga qaratilgan faoliyat mazmuni, bu faoliyat ijtimoiy-madaniy sohaga oid vazifalar va uning echimlarini bajarishni o‘zida mujassamlashtiradi;

- pedagogik hamkorlikka kirishgan ta’lim oluvchilarning tarkibi va ular bajaradigan vazifalar, ularning haqqoniy, tashkiliy munosabatlari va mavqelari;

- ishchan va shaxslararo hamkorlikning shakllari va usullari;

- ta’lim oluvchilarning shaxsiy vazifalari, mazkur vaziyatda ularning muayyan topshiriqlarni bajarishlarini talab qiladigan holatlar;

- vaziyatni rivojlantirish ko‘rinishlari;

- vaziyatni tashkil etuvchi harakatlantiruvchi kuchlar;

- vaziyat ishtirokchilarining mayllari va faoliyat usullari.

Xuddi mana shu didaktik birliklar ta’lim oluvchilarning kreativ vazifalarni bajarish jarayonlarini mos tarzda jihozlash imkonini beradi. Bu birinchi navbatda axborotlar maydonida shaxsning kreativ vazifalari alohida munosabatlari va hayotiy faoliyati ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyati o‘zida ikkita tendensiyaning rivojlanishini mujassamlashtiradi. Tashqi sharoitlarning o‘quvchi shaxsiga ko‘rsatadigan ta’siri, shu bilan bog‘liq tarzda faoliyat tarzining shaxsga ko‘rsatadigan ta’siri, uning shaxsiyatini belgilashi, bir tomondan o‘quvchi shaxsining ichki faol nuqtai nazari, boshqa tomondan esa, o‘z-o‘zi va xulq-atvorini namoyon qilishi jarayonida hosil bo‘ladi. Uchinchidan, o‘quv-biluv vaziyatida o‘qituvchi bilan o‘quvchi shaxsiyati duch keladi va hamkorlikka kirishadi. Bunda o‘quv jarayonining maqsadli, mazmunli, jarayonli jihatlari kelib chiqadi. Shu tariqa, to‘laqonli didaktik jarayonni amalga oshirish uchun qulay sharoit vujudga keladi.

O‘qituvchi tomonidan taklif etilgan o‘quv vaziyatining maqsadi, shaxsga yo‘naltirilgan maqsad sifatida e’tirof etilishi mumkin. O‘quv vaziyatining maqsadi shunday maqsadki, u bevosita vaziyat talabidan kelib chiqmaydi. Uning amaliy tadbiqi qo‘yilgan maqsadga erishishni nazarda tutadi. Shu tariqa, o‘quv vaziyatining maqsadi, o‘quvchi va ta’lim oluvchilarning vaziyatga yo‘naltirilgan aniq maqsadidir. Bunday o‘quv vaziyati natijasida talab qilingan bilim va faoliyat usullarini o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ta’lim oluvchilar o‘zlari uchun yangi bo‘lgan imkoniyatlarga ham ega bo‘ladilar. Shaxsiy individual tajribalarining ortishi, o‘z hayotiy vaziyatlarini tashkil

etish, o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy muhitga qarab o‘zgarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ta’lim oluvchilarda vaziyat doirasida ko‘zda tutilgan vazifalarni hal qilishga kirishish unda faollik ko‘rsatish o‘z oldiga yangi talablar qo‘yish salohiyati kengayadi. Bu ularning vazifalarni echishda mustaqillik ko‘rsatishlarida namoyon bo‘ladi. Natijada o‘quvchi shaxsining bilish faoliyatida jadallashuvining namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan bilish holatlari asosida o‘quvchining bilish mayllari yotadi. O‘quvchi o‘z faoliyatini amalga oshirishda qanday vazifalarni hal qilishi alohida ahamiyatga ega. Uning asosini bilish mayllari tashkil qilarkan, mazkur vazifalarning mohiyatini ularni echish jarayonlarida o‘quvchi o‘zining obrazini tarkib toptiradi, o‘z-o‘zini bilish faoliyatini amalga oshiradi. Bu esa, uning faoliyatga bo‘lgan mustaqil intilishlarida namoyon bo‘ladi. Bunday ichki masalalarni echish o‘zining mazkur vazifalarga qodirligini anglashga ko‘maklashadi. Masalalarni echishdagi muvaffaqiyat o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyati hamdir. Bu o‘quvchi shaxsining o‘z oldiga qanday talablar qo‘yishi bilan ham bog‘liqdir. Biz bilish faoliyatini amalga oshirishning 3 ta bosqichini aniqlashga harakat qilamiz:

Birinchi bosqich – bu o‘zining vaziyat bilan bog‘liq imkoniyatlariga berilgan baho. O‘quvchi bunday vaziyat oldida turgan vazifalarni hal qilish asosida ish ko‘radi. Buning uchun o‘quvchi o‘z oldiga quyidagi savollarni qo‘yib, ularga javob beradi. Men o‘z oldimga qo‘ygan maqsadlarni bajarishga tayyormanmi? Men o‘z oldimga qo‘ygan vazifalarni bajarishga qodirmanmi? Bunday sharoitda o‘z imkoniyatlariga berilgan baho o‘quvchi uchun har doim ham ahamiyatli bo‘lavermaydi. O‘zining vaziyatga bog‘liq imkoniyatlariga berilgan baho uning uchun tasodifiy ahamiyat kasb etishi ham mumkin.

Ikkinchi bosqich – bu o‘z-o‘ziga berilgan baho bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchi bilish imkoniyatlariga ega muayyan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda shaxsning bilish imkoniyatlari baholash ob’ekti bo‘la olmaydi. U mazkur imkoniyatlarni egallovchi sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun ham u

echimlar qabul qilishga intiladi. Bu o‘rinda faoliyat shaxsning o‘ziga xos qirralari bilan ajralib turadi. Masalalarning echilganligi kabi echilmaganligi ham mavjud belgi sifatida namoyon bo‘lib, u o‘quvchi shaxsiyatini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi bosqich – bu o‘quvchining mavjud imkoniyatlari, uning qismlari, chuqurligini baholashdir. Bu jarayonda o‘quvchining o‘z mavqeini aniqlashi nazarda tutiladi. O‘quvchi qandaydir o‘quv vazifasini echar ekan, uni echish imkoniyatlari ustida o‘ylaydi va bu jarayonda o‘zligini namoyon qiladi. Ushbu vaziyatda o‘quvchi shaxsining o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. O‘ziga xos faoliyati haqida o‘quvchi o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni echishda o‘zining bilish, ijodiy imkoniyatlari haqida xulosa chiqaradi. O‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni echish imkoniyati o‘quvchining o‘zligini namoyon qiladi.

O‘quvchida refleksiv ko‘nikmalarning hosil bo‘lishi yuqorida ko‘rsatilgan barcha bosqichlarda amalga oshadi. Bunda:

1) Axborotlashgan jamiyat ichida umumiy munosabatlarga nisbatan to‘g‘ri yo‘nalish ola bilish, bunda kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

2) O‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanish texnologiyasini egallash, bunday foydalanish ko‘nikmalari tarkibiga tushunchalar mohiyatini anglash, masalalarni echish, o‘yin va dialog vaziyatlarida axborotlardan foydalanish ko‘nimalariga ega bo‘lish;

3) Ijodiy tajribalarni to‘planishi, qadriyatli quvvatlarning tahlili, o‘quv predmetlari doirasida o‘rganish usullarining tanlanishi, inson faoliyatining samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini idrok qila olish;

4) O‘z imkoniyatlarini baholash, ularni rivojlantirish yo‘llarini aniqlash, faol shaxsiy nuqtai nazarga ega bo‘lish, o‘quv jarayonini faollashtirish yo‘llarini izlash, o‘qitishning mohiyatini ko‘ra bilish, axborot egallash madaniyatining yangi yutuqlari bilan tanishish. Bu jarayonda asosiy o‘rinni ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim

olishlari, o‘z-o‘zlarini rivojlantirishlari, dasturlashtirilgan vositalardan foydalana olish tajribasi, shaxsiy hayotiy faoliyatlarini oqilona tashkil etish, qiziqishlari, ijodiy layoqatlari, o‘z faoliyatlariga mas’uliyatli munosabatning shakllanishi tashkil etadi.

Ma’lumki, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari refleksiyaning layoqatiga ega bo‘lganda shakllanadi. Bu esa, axborotlarni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi. Shu tariqa, o‘quvchining qiziqishlari bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish jarayonida o‘quvchi o‘ziga xos ichki vazifalarni echishga kirishadi. Ushbu vazifalarning asosiy mohiyati shundaki, o‘quvchi uni o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z faoliyatini amalga oshirish hamda o‘z-o‘zini ichki jihatdan tasdiqlash maqsadida echadi. Bu vazifalar boshlang‘ich shart-sharoitlarning xarakteriga ko‘ra farqlanadi. Refleksiv holatlarning paydo bo‘lish turiga ko‘ra o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan talablari sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan vaziyatlarda ikki turdagi kechinmalar uyg‘unlashadi: a) uning o‘zligini belgilovchi aniq-hissiy nuqtai nazarlari aniqlanadi; b) noaniq-hissiy shubhalar, oldindan sezish, umidlar, anglanganlik hamda identifikatsiyalash(aynan o‘xshatish), bunday o‘xshatishni refleksiv jarayonlar doirasida amalga oshirish mumkin emas. U muloqot va aniq harakatlar jarayonida namoyon bo‘ladi.

Aniq-hissiy kechinmalar an’anaviy ongli holatlarga bog‘liq bo‘ladi, noaniq-hissiy kechinmalar esa, o‘quvchining anglanmagan yoki to‘liq anglab etmagan holatlarida amalga oshadi. Aniq-hissiy kechinmalar o‘xshash holatlarda anglashga xizmat qiladigan kechinmalar sifatida ifodalanadi. Noaniq-hissiy kechinmalar esa, jarayonlarni bevosita anglashda shaxsning o‘z-o‘zini anglashi doirasida yondashishni taqozo qiladi.

O‘quvchining o‘z faolligini namoyon qilishga oid vazifalarni echishga bo‘lgan talablar, noaniq-hissiy kechinmalardan qutilishga bo‘lgan intilishda namoyon bo‘ladi. Va ularning aniq-hissiy kechinmalar sohasiga ko‘chirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, o‘z faolligini namoyon qilish alohida shaxsiy vazifa sifatida o‘zligini ko‘rsatish tarzida talqin etiladi. Undagi aniqlikni boyitadi. Bu vazifalarning o‘ziga xos belgilari sifatida shaxs o‘zligining namoyon bo‘lishi e’tirof etiladi. Amaliy faoliyatini tadbiq etilishi masalalarni echishda o‘quvchi o‘zi va o‘z imkoniyatlari haqidagi tasavurdan kelib chiqqan holda ish ko‘radi. O‘quvchi o‘z quvvatlari faoliyatiga tadbiq etar ekan, o‘zi haqidagi tasavvurlar doirasida harakat qiladi va o‘zini keng ko‘lamda namoyon etadi.

Shaxsning o‘z-o‘zini tasdiqlashi bilan bog‘liq vazifalar tashqi jihatdan o‘zini tasdiqlatish holati sifatida xizmat qiladi. Bunda o‘quvchi atrofdagilar uni etukliligiga ko‘ra baholashlariga intiladi. Buning uchun uning layoqatlari atrofdagilar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lishi lozim. Tashqi o‘z-o‘zini tasdiqlatish o‘z-o‘zini bilish vazifasi sifatida namoyon bo‘la olmaydi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘zining bir qator imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi. U o‘z oldiga ularning o‘xshashligi, tengligi haqida savol qo‘ymaydi va o‘zgartirishga intilmaydi. O‘z-o‘zini tasdiqlatishning boshqa bir shakli – ichki o‘z-o‘zini tasdiqlatishdir.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha, kreativ fikrlashning shakllanishi muntazamlilik xarakteriga ega emas. Uning taraqqiyoti ikkita bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqich 9-10 yoshli ta’lim oluvchilarning ijodiy faolligida ifodalanadi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilar kattalar bilan bevosita muloqot o‘rnatadilar. Ular dastlab o‘z harakatlarini so‘zlar vositasida sharhlaydilar. Bu o‘rinda ta’lim oluvchilarning nutqlari shaxsiy harakatlarining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Xuddi mana shu bosqichda ta’lim oluvchilarda tahliliy faoliyatning dastlabki qismlari ro‘yobga chiqadi. Bu aynan tahliliy faoliyatning dastlabki ko‘rsatkichi bo‘lib, bu 14-16 yoshli ta’lim oluvchilarda uchraydigan tahliliy faoliyat ko‘nikmasiga teng kela olmaydi.

Izlanishlarimizning psixologik yo‘nalishi didaktik maqsadga bo‘ysunadi. Natijada kichik yoshdagi o‘quvchi shaxsining ijodiy shakllanishi uchun qulay sharoitlar aniqlanadi. Didaktik tahlillardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad, quyidagilarni aniqlashdan iborat: a) ta’lim oluvchilarning shaxs sifatida shakllanishi jarayonida ijod

va ta’limning uyg‘unlashuviga erishish; b) ijod qilish uchun xizmat qiladigan o‘quv jarayonining yangi shakllarini ishlab chiqish; v) kreativ fikrlashni boshqarish mexanizmlari, ularning mayllari, maqsadni tarkib topishi, hissiy-ixtiyoriy yo‘nalishlarning ifodalanishini ta’minlash kabilar.

Biz mazkur muammoning echimiga pedagogik nuqtai nazardan yondashamiz. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni shakllanishiga xizmat qiladigan didaktik shart-sharoitlarga insonparvarona pedagogika nuqtai nazaridan yondashish lozim. Bizning pedagogik kuzatishlarimiz erkin tarzda hosil qilingan pedagogik shart-sharoitlar hamda ta’lim oluvchilarni pedagogik-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash natijasida ularda ijodiy layoqatlarning tarkib topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Pedagogik-psixologik jihatdan qulay sharoitni vujudga keltirish natijasida quyidagilarga erishish mumkin:

1) Har bir o‘quvchining o‘ziga xos jihatlarini tan olish; o‘qituvchi ta’lim oluvchilarga ta’lim-tarbiya berish va ularni rivojlantirish jarayonida ularni kreativ fikrlashka undaydi, uning mavjud holati va hatti-harakatlaridan qat’iy nazar kreativ fikrlashlarini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchi har bir o‘quvchiga uning kuchiga ishonishini muntazam ta’kidlab turishi lozim. Buning natijasida, o‘quvchi erkin tarzda faoliyat ko‘rsatadi, o‘ziga xosligini namoyon qiladi va ijod qilishga intiladi.

2) Tashqi bahodan xoli holatni vujudga keltirish; bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan muhitni his qiladilar, qachonki o‘quvchi o‘zi uchun qimmatli bo‘lgan shaxsiy qadriyatlarga tayanmas ekan, bunday muhitda tashqi o‘lchovlarga asoslangan baholash mavjud bo‘ladi. Baholash o‘quvchiga tazyiq sifatida namoyon bo‘lar ekan, himoyalovchi ta’sirlardan foydalanish ehtiyoji vujudga keladi. Biz tashqi baho asosida hukm chiqarar ekanmiz, o‘quvchi o‘zining shaxsiy tajribasini ochiqroq namoyon qiladi. Shunda uning voqelikka nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlari yaqqol ifodalanadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchining munosabati ham aniq ifodalanishi kerak. Baholashning bosh

manbai har bir o‘quvchining ichki xususiyatidir. Bu esa, unga ijod qilish sari yo‘l ochadi.

3) Tuyg‘ularni tushunish; eng muhimi o‘quvchi shaxsini shunchaki qabul qilish emas, uni hamdard, hamkor sifatida anglash, olamga uning ko‘zlari bilan qarash, ichki olamiga kirish, shu bilan bir qatorda uni qabul qilish imkonini beradi. Bunday sharoitda o‘quvchi o‘zligini namoyon qiladi hamda ijodiy jihatdan rivojlanadi.

Ruhiy xavfsizlikdan tashqari ta’lim oluvchilar mustaqillikni ham his qilishlari lozim. Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashlari qiziqarli faoliyat jarayonida vujudga kelishi mumkin. Buning uchun, o‘qituvchi o‘quvchiga o‘z tafakkuridagi qiziqarli, sirli holatlari, hissiyotlari, fikrlarini bayon qilish imkoniyatini yaratishi kerak. O‘quvchi o‘z qarashlarini ifodalashi uchun to‘laqonli tarzda mustaqil bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘quvchining ochiqligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa, kreativlik va kreativ fikrlashning muhim tarkibiy qismidir.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim:

1) Qat’iy topshirilgan va nazorat qilinadigan vaziyatlardan farqli tarzda, shaxsga yo‘naltirilgan erkin didaktik vaziyatlarni vujudga keltirish;

2) O‘quvchining kreativ faoliyatini kengaytirish, faollashtirish va ularni muntazam rag‘batlantirish;

3) Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish va muntazam rivojlantirish usullari, strategiyalari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotida qo‘llash;

4) Kreativ fikrlash ko‘rsatish jarayonida ta’lim oluvchilarni o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashish va erkin bo‘lishlariga undash;

5) Ta’lim oluvchilarning kuzatishlari, umumlashtirishlari, qiyoslashlari va bu jarayondagi hissiyotlarini qo‘llab-quvvatlash;

6) Kattalar va ota-onalarni ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashga undash kabilar.

Shu bilan bir qatorda, ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni shakllanishi va rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan quyidagi omillarni bartaraf etishga o‘qituvchilar alohida ahamiyat qaratishlari lozim:

– tavakkalchilikka asoslangan holda muvaffaqiyat qozonishga intilishlari;

– qarama-qarshilik, layoqatsizlik tufayli boshqalarga bosim o‘tkazishlari;

– fantaziya va tasavvurga asoslangan tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlamaslik;

– qat’iy gender qoliplar, o‘g‘il bolaga mumkin, qizlarga mumkin emas tarzida;

– o‘yin va o‘quv jarayonlarini tabaqalashtirishlari;

– shaxsiy fikri va nuqtai nazarini o‘zgartirishga tayyorliklari;

– mavqe, obro‘-e’tibor oldida bosh egishlari kabilar.

Ruhshunoslar va pedagoglar o‘quvchi ijodiy faoliyatining intellektual hamda shaxsiy yo‘nalishlarini farqlaydilar. Ijodkorlik jarayonida intellektual ko‘nikmalarning paydo bo‘lishi o‘quvchi faoliyatida yangi qirralarning tarkib topishi bilan bog‘liq hodisadir.

Refleksiv faoliyatning muhim jihatlaridan biri, yangi ko‘rinishdagi mustaqil fikrlashga asoslangan o‘ziga xos qadriyatli-fikriy yondashuvlarning uyg‘unlashuvidir. Refleksiv hamkorliksiz ta’lim oluvchilarda shaxsiy nuqtai nazarning ifodalanishi, shaxslararo muloqot jarayonida baholanishi, yangi bilimlarning bosqichma-bosqich idrok etilishi, boshqalarning qarashlari, jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-madaniy, axloqiy me’yorlar, ularning refleksiv faoliyatini to‘laqonli tarzda namoyon qilish mumkin emas.

Yu.N.Kulyutkin va G.S.Suxobskayalar insonning layoqatlilik darajasini o‘rganar ekanlar, o‘ziga refleksiv tarzda munosabatda bo‘lish, shaxs ruhiyati ichki tuzilishining shakllanishi natijasi, kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar ifodasi ekanligini ta’kidlaydilar. Boshqalar bilan hamkorlik qilish natijasidagina inson ularning fikrlari

va harakatlari mohiyatini anglab etadi. Shunda u o‘z faoliyatini boshqalar nuqtai nazarida turib baholaydi.

Ta’lim oluvchilarda refleksiv jihatlarning rivojlanishi uchun o‘quv dialogi va munozaralarining turli ko‘rinishlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilar orasida o‘quv munozaralarini tashkil etishda o‘qituvchi quyidagi prinsiplarga tayanishi lozim:

– o‘qituvchi tomonidan munozaraning to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarilishini ta’lim oluvchilarning mazkur vaziyatni mustaqil boshqarishlari, tashkil etishlari va nazorat qilishlari bilan almashtirish,

– ta’lim oluvchilarning o‘zaro bir-birlariga maqsadga yo‘naltirilgan holda muayyan mazmunga tayanib murojaat qilishlarini ta’minlash, munozara qoidalariga amal qilishlariga erishish;

– o‘z nuqtai nazarini erkin tarzda bayon qilish imkoniyatining ta’minlanishi, o‘zaro bir-birlarining fikrlarini tanqid qilish va inkor etish imkoniyatini ta’minlash;

– ta’lim oluvchilarning o‘zaro bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari, umumiy echimga olib keladigan hamjihatlik yo‘lini izlash;

– bayon etilgan xulosalarni dalillash va asoslash, muhokama qilinayotgan muammo bilan bog‘liq bo‘lgan qarama-qarshiliklarni anglash;

– o‘zini turli rollarda sinab ko‘rish imkoniyatidan foydalanish kabilar.

Bu shuning uchun ham zarurki, munozara jarayoni ta’lim oluvchilarning ichki quvvatlarini yuqori darajada ro‘yobga chiqarish imkoniyatini ta’minlaydi. O‘qituvchi munozara maromini belgilar ekan, o‘z nuqtai nazarini bayon qilishi kerak emas, balki daologik mavqeni egallab, amalga oshiriladigan muhokamaga mos tarzda hissiy-intellektual kayfiyat hosil qilishi lozim. Buning uchun ta’lim oluvchilarni ma’ruza jarayoniga olib kirishning bir qator usullaridan foydalanish talab qilinadi. Jumladan, muammoni bayon qilish, hodisalar va dalillarni asoslash, slaydlar namoyish qilish, muayyan asarlardan lavhalar o‘qib berish kabi.

O‘qituvchi ta’lim oluvchilarga ochiq xarakterdagi baholovchi savollar bilan murojaat qilishi lozim. Savol-javoblar orasidagi oraliq masofa olingan natijalarga ko‘ra turlicha kenglikda bo‘lishi mumkin. Muhim masalalardan biri munozara uchun zarur bo‘lgan bahsli, dolzarb muammoni tanlashdan iborat. Bu masala yagona echimga ega bo‘lmasligi kerak. Munozaralarni o‘tkazish ikki darajada bo‘lishi lozim. Pedagogik quvvatlarni muvofiqlashtirish asosida ta’lim oluvchilarning tahliliy faoliyatlarini rivojlantirish, ularning fikriy qadriyatli muloqotga kirishishlari uchun zamin hozirlash, har bir o‘quvchiga e’tiborli bo‘lib, hurmat bilan murojaat qilishga asos yaratadi.

Ta’lim oluvchilarning tahliliy faoliyatlarini yo‘naltirish uchun ularning e’tiborini quyidagilarga qaratish talab etiladi:

- Ijod nima, sizning rivojlanishingizda ijodkorlik qanday ahamiyatga ega?
- Ajdodlarimiz ijodkorlarga qanday munosabatda bo‘lishgan?
- O‘zbekiston jamiyatida shaxsning erkin ijod qilishi uchun qanday sharoitlar mavjud?

Pedagogika fanida ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashlarini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘qitish metodlari mavjud. Shunday metodlardan biri – ta’lim oluvchilar oldiga muammoli topshiriqlar qo‘yish metodidir. Mazkur metodning o‘ziga xos jihati shundaki, ta’lim oluvchilarga taqdim etiladigan har qanday o‘quv materiallari topshiriqlar tizimini o‘z ichiga olib ularning kreativ fikrlashlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Mazkur metodning muhim xususiyati muayyan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash uchun qulayligidadir. Ushbu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. O‘qituvchining ustunligini ta’minlash.

2. Ta’lim oluvchilarni muammolar qo‘yish jarayoniga jalb etish.

3. O‘qituvchining vazifalarini minimum darajaga olib kelish. Tashkiliy-amaliy hamda bilish xarakteridagi muammoli topshiriqlar ta’lim oluvchilarning ijodiy jarayonlarni mazmun va shakl jihatdan mujassamlashtiradi. Ularning echimi esa, ta’lim oluvchilarga kreativ fikrlashni amalga oshirish imkonini beradi. Bunday

yondashuvning qo‘llanilishi ta’lim oluvchilarga ta’lim mazmunini chuqur o‘zlashtirishlari uchun qulaylik yaratadi.

Darhaqiqat, agar o‘quvchi muntazam tarzda ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarsa, uning ongida bosqichma-bosqich vaziyatlarga kirishishning turli shakllari almashinib boradi. Topshiriqlarni bajara turib ta’lim oluvchilar qadriyatlar, fikrlarning ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglaydilar. Bunday yondashuv topshiriqlarni echish jarayonining qiziqarliligini ta’minlaydi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarning e’tiborlari nafaqat echishlari zarur bo‘lgan muammolarga qaratiladi, balki o‘zlariga ham kreativ faoliyat sub’ekti sifatida qaray boshlaydilar. Bu jarayonda ular vaziyatlarni ongli tarzda tahlil qilib chuqur fikrlagan, maqsadga yo‘naltirgan holda muammoli topshiriqlarni echishga kirishadilar. Vaziyatning tarkibiy qismlari bilan bir qatorda, muammolarni echish jarayonida ham turli tarkibiy qismlardan foydalanadilar. Bu vaziyatning ta’lim oluvchilar tomonidan anglangan tarkibi bo‘lib, ular o‘zlari aniqlagan echimlarning mazmun-mohiyatini ko‘ra oladilar.

O‘quv muammosi ta’lim oluvchilar uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tajribalari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o‘quv materiallarini shakllantirishda ta’lim oluvchilarning mayllari va yosh xususiyatlarini ham hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilar oldiga qo‘yiladigan muammolar har doim dolzarb, jiddiy, ko‘pvariantli echimlarga ega bo‘lishi lozim. Mazkur o‘quv vaziyatlarida o‘qituvchilarning muhim vazifalari – ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashlarini ma’lumotlarning muhim manbalari va intellektual topshiriqlar yordamida yo‘naltirishdan iborat. Axborotlarning muhim manbalarini ko‘rsatish ta’lim oluvchilarning izlanishlarini muayyan nuqtaga yo‘naltirish imkonini beradi. Muammoni shakllantira olish ko‘nikmasi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishning zarur shartidir. Muammoli topshiriqlarga oid asosiy ma’lumotlarni aniqlash, ularni muqobil tarzda qayta shakllantirish, harakat rejasini tuzish, turli farazlarni ishlab chiqish, qo‘lga kiritiladigan natijalarni muhokama qilish muammoli ta’limning asosiy bosqichlaridandir.

O‘quv-biluv topshiriqlarga xos bo‘lgan belgilardan biri – ularning tasnifi turli-tuman yondashuvlar asosida amalga oshirilganligidadir. Stenbergning ta’biricha, topshiriqlar, ularni o‘quvchi oldiga qo‘yish va echish, sub’ektlarning ishtirok etish darajalariga ko‘ra farqlanadi[18]. Mutaxassis topshiriqlarning 4 ta turini ajratib ko‘rsatadi:

1) Ob’ektga yo‘naltirilgan va undan tashqarida muvofiqlashtirilgan;
2) Sub’ektga yo‘naltirilgan va undan tashqarida muvofiqlashtirilgan;
3) Ob’ektga yo‘naltirilgan va sub’ektga moslashtirilgan;
4) Sub’ektga yo‘naltirilgan va uning ichida moslashtirilgan.

Birinchi turdagi topshiriqlar sirasiga dastlabki topshiriqlar kiritilib, mazkur topshiriqlardan an’anaviy ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. O‘qituvchi topshiriqlarni shakllantirib, uning echimida foydalanish mumkin bo‘lgan dastlabki tushuncha va tasavvurlarni bayon qiladi. Bunday topshiriqlarni echishdan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad – rejalashtirilgan natijalarni ko‘lga kiritish va kreativ fikrlashka oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bu turdagi topshiriqlarga o‘qituvchilarning umumiy g‘oya doirasida bergan ma’lumotlari asosida echiladigan vazifalarni kiritish mumkin. Birinchi turdagi vazifalar izlanuvchi topshiriqlar sifatida baholanadi. Bunda ta’lim oluvchilar topshiriqlarni echish usullarini mustaqil tarzda izlashlari nazarda tutiladi. Ta’lim oluvchilardagi amaliy tajribalarning ijodiy faoliyatga aylanishi namunaga qarab bajariladigan va qat’iy tartibga asoslangan trening xarakteridagi topshiriqlardan ko‘pvariantli va izlanuvchi xarakterdagi topshiriqlarga o‘tiladi.

Topshiriqlarning ikkinchi turi shaxslararo muloqot doirasiga kirib ta’lim oluvchilarning o‘quv hamkorligini taqozo qiladi. Bu o‘rinda o‘qituvchi tashabbuskor sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin bunday topshiriqlarning mazmun jihatdan birinchi tur topshiriqlaridan farqi shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) guruhli mahsuldor faoliyat tajribasi; b) mahsuldor faoliyatga rahbarlik qilish tajribasi;

[18] Sternberg (Ed.), The nature of creativity, New York, Cambridge University Press.Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1995), Defying the crowd: Cultivating creativity in a culture of conformity, New York, Free Press.

v) maslahatchi yoki ekspert mavqeini egallash tajribasi kabilar. Bunday topshiriqlardan foydalanib, ta’lim oluvchilarning faoliyatini o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ta’lim oluvchilarni jamoaviy faoliyat jarayonida ijtimoiy moslashtirish, samarali hamkorlikka yo‘naltirish tajribasini o‘zlashtirish lozim.

Topshiriqlarning uchinchi turi predmetli topshiriqlar bo‘lib, ularni ta’lim oluvchilarning o‘zlari mustaqil tarzda shakllantiradilar. Bunday topshiriqlar ta’lim oluvchilarda mustaqillik va maqsadga yo‘naltirilganlik ko‘nikmalarini rivojlantirib, mazkur ko‘nikmalarni amalda tadbiq qilish jarayonida shaxsiy erkinlikning tarkib topishiga ko‘maklashadi. Buning natijasida ularda individual faoliyat uslubi shakllanadi. Bunday topshiriqlar ta’lim oluvchilarda tahliliy faoliyatning shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur turdagi topshiriqlar orasida ta’lim oluvchilarni tadqiqotchilikka undovchi topshiriqlar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu topshiriqlarni echish jarayonida ta’lim oluvchilar yangi bilimlarni izlaydilar va muammoli vaziyatlarni hosil qilish ko‘nikmasini o‘zlashtiradilar. Bunday topshiriqlarni echish jarayonidagi pedagogik hamkorlikning o‘ziga xos jihatlari o‘qituvchi hamda ta’lim oluvchilarning birgalikda tadqiqotchilik harakatlarini amalga oshirishlaridadir.

To‘rtinchi turga mansub bo‘lgan topshiriqlar ta’lim oluvchilar uchun alohida qimmatga ega bo‘lgan vaziyatli topshiriqlardir. Bunday topshiriqlarni bajarishda ta’lim oluvchilar tashabbuskor va echimlarni izlovchi sub’ektlar sifatida namoyon bo‘ladilar. Mazkur topshiriqlar mustaqil bilish topshiriqlari bo‘lib, ta’lim oluvchilar o‘z mayllari va istaklari, xulq-atvorlarining ixtiyoriyligi va barqarorligi, qadriyatlarni anglash va o‘zlashtirish jarayonini tahlil qiladilar. Bunday topshiriqlarning qo‘yilishi va echimi o‘qituvchilardan yashirincha, uning kuzatuvisiz amalga oshiriladi. Bunday topshiriqlar ta’lim oluvchilardan o‘z-o‘ziga tanqidiy qarash, kreativlik, mas’uliyatlilikni talab qiladi va ular uchun shaxsiy xarakter kasb etadi. Bunday yondashuvda asosiy e’tibor ijodiy ishlar, tanlovlarga qaratilib, ular ta’lim oluvchilarning turli-tuman layoqatlarini ro‘yobga chiqarib, bahs-munozaraga chorlaydi.

Ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashka undaydigan muhim vositalardan biri – o‘yinlardir. Mazkur didaktik vositalar katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, boshqa vositalarga nisbatan ular ta’lim uchun ijod qilish, testlashtirish, treninglar o‘tkazishga sharoit yaratadi. Mazkur didaktik vositalar bir qator qulayliklarga ega bo‘lib, shunga ko‘ra ta’lim oluvchilarni ijod qilish va o‘yin jarayonida ishtirok etish ehtiyoji bilan bog‘liqdir. O‘yin faoliyatining asosini uning foydaliligi tashkil qiladi. O‘yin faoliyatining muhim tashkillashtiruvchi tarkibini o‘yin modelidan iborat. Mazkur modelda ob’ektiv borliq o‘ziga xos tarzda aks etadi.

O‘yin jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning ishtirokchilari xulq-atvori va bilish faoliyati ikki tomonlama xarakterga ega: a) o‘quvchi o‘yin jarayonida shunday harakat qiladiki, vaziyatning shartliligini anglab etsa ham unga tabiiy jarayon sifatida yondashadi. Bu ayniqsa, o‘yin vaqti va ko‘lamida yaqqol namoyon bo‘ladi; b) agar, o‘yin jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan ta’lim oluvchilar uning shartliliginigina ko‘ra olsalar, mazkur jarayon muvaffaqiyatli kechmaydi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erisha olmaydi.

Shartli vaziyatlarda aniq harakatlanish o‘yin jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan ta’lim oluvchilarga qo‘shimcha imkoniyatlar beradi. Ular muayyan vaqtda vaziyatni to‘xtatishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayonda ular modellashtirilgan hayotning maromini o‘zgartirish, tezlashtirish, muayyan vaziyatni turlicha modellashtirish, uning uchun turli qoidalar tizimini shakllantirish, o‘zaro mos bo‘lmagan sharoitlarda o‘yin harakatlarini amalga oshirish, haqiqatda erishishi mumkin bo‘lmagan faoliyatning sub’ektiga aylanish imkoniyati mavjud.

O‘yin faoliyatining asosiy o‘ziga xos jihati uning mayllarida ifodalanadi. Bu jihatdan uning asosiy xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1) O‘yin erkin, mustaqil faoliyat bo‘lib, u tashqi mayllardan xoli jarayondir;

2) O‘yin jarayonida ta’lim oluvchilar hayot bilan bevosita munosabatga kirishadilar, bu jarayonda ta’lim oluvchilar faoliyati bir qator amaliy natijalar bera

boshlaydi. O‘yin jarayonida esa, o‘quvchi uchun ahamiyatli bo‘lgan hayotiy jihatlar namoyon bo‘lib, u ichki mayllar bilan bog‘liq faoliyat natijasi hisoblanadi;

3) O‘yin mazkur jarayon ishtirokchilarini qiziqtiruvchi, mayllarning yuqori darajada namoyon bo‘lishiga turtki beruvchi, ishtirokchilar uchun intellektual-hissiy bosimni vujudga keltiruvchi jarayondir. Mustaqilligi va erkinligi bilan o‘yin o‘quv mehnatidan farq qiladi. O‘quv mehnatini o‘quvchi aynan bajarishga majbur, o‘yin jarayonida esa u erkin, kreativ faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Muayyan o‘yin jarayoni uchun yo‘naltiruvchi omil uning mazmuni yoki aniq rollar bo‘lsa, boshqasi uchun o‘yin predmetining notanishligi, o‘yin vaziyatining noaniqligi, uchinchisi uchun faoliyatning musobaqalashish xarakteriga egaligidir. Yana boshqa bir o‘yin vaziyati uchun esa, qoidalar va unga amal qilishning qat’iyligi hisoblanadi. Ta’lim oluvchilarni o‘yin tarkibidagi elementlarning har biri kreativ fikrlashka yo‘naltira olishi mumkin.

O‘yin faoliyatining muhim jihati uning faol ijodiy xarakterga egaligidadir. Ijod va o‘yin faoliyati orasidagi o‘xshashlik asrlar davomida tan olingan hodisadir. O‘yin jarayonida qat’iy holatlar bilan bir qatorda, tasodifiy holatlar ham modellashtiriladi. Shuning uchun ham, o‘yin faoliyati ko‘p jihatdan kreativ xarakterga ega. O‘yin jarayoni ishtirokchilari uchun har doim tanlov imkoniyati mavjud. Ularning harakatlari muqobil xarakterga ega bo‘ladi. Agar ta’lim oluvchilar uchun tanlov imkoniyati qolmasa, o‘yin o‘zining didaktik mohiyatini yo‘qotadi, ya’ni ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni shakllantira olmaydi.

O‘yin faoliyatining ijodiy xarakteri uning yo‘nalishi, maqsadlari, atrof-muhitni ifodalash ehtiyoji, tasavvurlarni uyg‘unlashtirish ko‘nikmasi, vaziyatlarni modellashtirish, fikrni tarkib toptirish va uni amalga oshirish, o‘z harakatlarini sheriklarining harakatlari bilan muvofiqlashtirish, ijodkorlikka undovchi fikrning jadalligi va mustaqilligi, shaxsiy fikrlarni tadbiq qilish jarayonini sinovdan o‘tkazish natijasida vujudga keladi. O‘yin ta’lim oluvchilarning fikrlari, harakatlari bilan bevosita bog‘liq jarayondir. O‘z harakatlarini takomillashtirish maqsadida muayyan

o‘yin jarayonini takrorlash imkoniyati mavjud. O‘yin faoliyatining ijodiy xarakteri hissiyotlar va kechinmalarning samimiyligida namoyon bo‘ladi. Bu bir tomondan fikriy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan voqelikda har doim ham unga erishish imkonsizligidadir.

Ta’lim oluvchilarning aqli va hissiyotlari orasidagi aloqadorlik ularda kreativ fikrlash shakllanishining muhim shartidir. Mazkur sifatlarni asrash va rivojlantirish o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Bunda o‘yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o‘yinlarda ta’lim oluvchilarning umuminsoniy, ijodiy, rivojlanuvchi va yashirin quvvatlari mavjud. O‘yinlar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim vositasi bo‘lib, jarayonli va rivojlantiruvchi xarakterga ega.

O‘yin jarayonida kreativ vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘yinga asoslangan vazifalarni o‘z ichiga olib ular muayyan sharoitda qo‘yilgan maqsadda namoyon bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarda o‘yin faoliyatining rivojlanishi inson jismining izchil taraqqiyotida o‘yin vazifalarini anglash va farqlash ya’ni o‘yinlardagi qoidalarga amal qilish bilan bog‘liq. O‘yin jarayoni uning ishtirokchilarida muntazam rivojlantiruvchi kreativ fikrlashni ro‘yobga chiqaradi. Maqsadlarning shakllanishi ularning harakatlarda amalga oshishi muayyan natijalarni qo‘lga kiritishga asos bo‘lib, o‘yin jarayoni va uning ishtirokchilari uchun ham muhim ahamiyatga ega. O‘yin faoliyatida maqsadni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari fikrlar va maqsadlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, o‘zida ijodiy jarayonlarning mavjud xususiyatlarini namoyon qiladi. Ayniqsa, o‘yin mayllari ichki mayllarning tashqisiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi. Bu o‘z navbatida ijodiy jarayonlarning rivojlanishi va taraqqiy etish omillarining muhim shartidir. Mazkur holat ta’lim oluvchilar ijodkorligining mahsuldorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yin faoliyatining barcha o‘ziga xos xususiyatlari ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashka undash imkonini beradi. Mashg‘ulotlarda imitatsion hamda ishchan o‘yinlarning tashkil etilishi ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni tarkib toptirib, muayyan ehtiyojlar, mayllar, ularning shaxsiy rivojlanishlari uchun zarurligini

anglashlariga ko‘maklashadi. Agar biror-bir o‘quvchi o‘yin jarayonida ishtirok etishni xohlamasa u ijodiy imkoniyatga ega bo‘lmaydi. Buning uchun ta’lim oluvchilarning mayllari va ularga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini aniqlash lozim. O‘yinlarning maqsadi ta’lim oluvchilarning fikriy-kreativ fikrlashlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Ularni quyidagicha shakllantirish mumkin:

1. Ta’lim oluvchilarda bilish mayllarining rivojlanishini ta’minlash;

2. Ta’lim oluvchilardagi ruhiy to‘siqlarni bartaraf etish, o‘yinlar ta’lim oluvchilarda ichki bosimlarning pasayishi va ularda o‘zlariga nisbatan ishonchning paydo bo‘lishini ta’minlaydi;

3. O‘yinlar vositasida ta’lim oluvchilarda o‘quv faoliyatiga nisbatan mavjud bo‘lgan salbiy qarashlar bartaraf etiladi, o‘quv jarayoni haqidagi eski tasavvurlar barham topadi.

Bunday o‘yinlarda ishtirok etish ta’lim oluvchilarda asosiy vazifalardan biri sifatida tahliliy faoliyat tajribasining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ijodiy ongning rivojlanishiga olib keladi. Ongning ijodiy faolligi bu mahsuldor idrok va izlanishga asoslangan faoliyat me’yori bo‘lib, betakror fikrning shakllanishini tabiiy yo‘l bilan aniqlashga asoslangan. Farazlar, yangi g‘oyalar va ideallarning ishlab chiqilishi, amaliy faoliyatni ma’naviy boshqarishda namoyon bo‘ladi.

Kreativ fikrlashning shakllanishi uchun kognitiv, ya’ni mustaqil fikrlash layoqati alohida ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilarning tahliliy faoliyatlarini jadallashtirish maqsadida quyidagi vaziyatlar tashkil etiladi:

1. Baholash va o‘z-o‘zini baholash vaziyati. Bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va tekshirishlarini taqozo etadi. Qabul qilingan qarorlarni himoya qilishda dalillardan foydalanish, o‘zligini anglash, o‘z mohiyatlarini bilish uchun zarur bo‘lgan kechinmalarning vujudga kelishini ta’minlaydi. Bunday vaziyatlarning mohiyati o‘quvchi qandaydir yangilikni yaratib, uning o‘zi uchun betakrorligini his etishi, undan qoniqish hissini tuyishi natijasida

o‘zining qandaydir yangilik yaratganligini ijod qilganligini his etadi. Yangilik yaratish, ijod qilishni o‘rganish uchun ta’lim oluvchilar o‘z nuqtai nazarlariga ega bo‘lishlari, bir qolipdagi tafakkurdan voz kechishlari, uning o‘z kreativ fikrlash ko‘rsatishlari uchun muhimligini anglab etishishlari kerak.

2. «Aqliy hujum» vaziyati. To‘g‘ri tushunish maqsadida muammoli topshiriqlarni jamoa bo‘lib tahlil qilish, mazkur topshiriqlarning muqobil echimlarini topish, bunday echimlarni topgan ta’lim oluvchilarni rag‘batlantirish, ta’lim oluvchilar tomonidan berilgan javoblarning sifatini baholash, g‘oyalarni tanqidiy baholash kabilar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Javoblarning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda to‘g‘ri javoblar ham ko‘payadi.

3. Tanlov vaziyati. Tanlov vaziyatining mazmuni yutuqqa erishish yo‘llarini tahlil qilish, taftishdan o‘tkazish, o‘quv vazifalarini bajarish jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etish tajribasidan foydalanish, bir qolipdagi faoliyat va hatti-harakatdan voz kechish kabilarni o‘z ichiga oladi.

4. Mashqlantirish vaziyati. Bunday vaziyatlarda pedagogik harakatlarning turli variantlari ko‘rib chiqiladi. Ular sirasiga musobaqa vaziyati, o‘yin vaziyatlari, dialoglar, hamkorlik va birgalikda ishlash, vazifalarni teng taqsimlash vaziyatlari, muvaffaqiyat qozonishga undash vaziyati, ijodkor ta’lim oluvchilar bilan hamkorlik qilish vaziyati kabilarni kiritish mumkin.

5. Qadriyatlar olamiga kirish vaziyati. Bu jarayonda ta’lim oluvchilar tarixiy voqelik bilan tanishish asosida o‘zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlari, ajdodlarimizning tajribalari va ijod namunalarini o‘zlashtiradilar, undan ilhom oladilar va o‘zlari ham ijod qilishga kuch-quvvatlarini sarflashga intiladilar.

6. Muammolarga echim izlash vaziyati. Bu jarayonda ta’lim oluvchilar faoliyat sub’ekti sifatida turli qiyinchiliklarga duch keladilar, mazkur muammolarga darhol javob bera olmaydilar va bunday muammolarga javob izlash ta’lim oluvchilardan intellektual kreativ fikrlashni talab qiladi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilardagi qo‘rquv holatlariga chek qo‘yilib xato qilishdan cho‘chimaslik ko‘nikmalari tarkib topadi.

Buning natijasida ular yuqori darajadagi kreativ fikrlashka ega bo‘ladilar. Bunday vaziyatlarning asosiy mohiyati shundaki, ularning mantiqiy bog‘lanishlarni mustaqil tarzda aniqlashlari natijasida bir qator yangiliklar vujudga keladi.

7. Asosiy mantiqni izlash vaziyati. O‘quv jarayoni haqidagi eski tasavvurlarni taftish qilish, mantiqiy izlanish jarayonini jadallashtirish, ichki bosimning vujudga kelishi, o‘quv faoliyati mantiqini izlash ko‘nikmasining shakllanishiga asos bo‘ladi.

O‘quv jarayonida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan birinchi va ikkinchi turdagi o‘quv vaziyatlarini vujudga keltirish, ta’lim oluvchilarning tahliliy faoliyatlarini jadallashtirish maqsadini nazarda tutib, uchinchi va to‘rtinchi turdagi vaziyatlar o‘quv harakatlarini jadallashtirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Beshinchi, oltinchi va ettinchi vaziyatlar esa, ta’lim oluvchilarning shaxsiy tahliliy faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan didaktik vaziyatlarning ajratilishi shartli xarakterga ega. Ta’lim oluvchilarning tahliliy fikriy sohasiga ta’sir ko‘rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ta’sir natijasida ta’lim oluvchilarning ijodiy quvvatlari ro‘yobga chiqadi. Mazkur vaziyatlarni vujudga keltirish mezoni sifatida ta’lim oluvchilarning harakatlari, uni amalga oshirish jarayonida o‘quv faoliyatiga nisbatan shaxsiy munosabatini namoyon qilishiga asoslandik. Jumladan:

- o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan qiziqarli va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatni qabul qilish;
- taqdim etilgan axborotlarga nisbatan baholovchi harakatlarni amalga oshirish;
- to‘siqlarni bartaraf etishda turli darajadagi tahliliy harakatlarni amalga oshirish;
- ijodiy ish jarayoniga qiziqish bilan qarash;
- ta’lim oluvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarining namoyon bo‘lishi kabilar.

Bu jarayonda ta’lim oluvchilar quyidagi harakatlarni bajarishlari lozim:

- o‘z g‘oyalarini muayyan algoritmlar va shaxsiy ish dasturlari tarzida taqdim etish;
- muayyan topshiriqlarni echish usullarini muvofiqlashtirish ko‘nikmasini egallash;
- o‘z ishlarini aniq mezonlar asosida mustaqil baholash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- ta’lim oluvchilarning muammolarni aniqlashga xizmat qiladigan so‘rovlarni to‘g‘ri shakllantirish;
- o‘z hukmlarining mantiqiy asoslarini to‘g‘ri izohlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- o‘z tafakkur tarzlarini aniq ifodalash kabilar.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarining mazmuni shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida o‘quv ijodiy faoliyat jarayonida ularga taqdim etilishi nazarda tutilgan bilimlar, axborotlar, ko‘nikmalar, malakalar, faoliyat tajribasi va ijtimoiy tajribani o‘zida mujassamlashtiradi.

Ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zini baholashi haqida fikr yuritilganda, uning ijodiy faoliyat jarayonida rivojlanish maromini quyidagilar asosida o‘lchash mumkin:

- axborotlarni o‘zlashtirish jarayonida ta’lim oluvchilarning ruhiy jismoniy jihatdan faollik ko‘rsatishlari;
- o‘quv vaziyatida o‘zi bajaradigan rollarni tahlili qilishi;
- ijodiy topshiriqlarni echish jarayonida izlanishga asoslangan tahliliy faoliyat ko‘rsatishi;
- muloqot qilish jarayonida o‘z faoliyatini ijodiy tarzda amaliyotga tadbiq etishi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga asoslangan kreativ faoliyatlarini modellashtirish kabilar.

Bularning barchasi ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Buning uchun birinchi o‘rinda ta’lim oluvchilarning tahliliy faoliyat

koʻnikmalari rivojlantiriladi. Jumladan, vujudga kelgan shart-sharoitlarni tahlil qilish, maqsadlarning tadrijiy tizimini tarkib toptirish, ijodiy topshiriqlarni echish bosqichlarini loyihalash, topshiriqlarni bajarish usullarini bir holatdan ikkinchisiga koʻchirish, ijodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish va tanqidiy baholash kabilar.

Bunday vaziyatlarda ta'lim oluvchilar oʻzlarining kreativ fikrlash koʻnikmalarini namoyon qiladilar va mustaqil rivojlanishlari uchun sharoit yaratadilar. Yangi tipdagi ijodiy topshiriqlarni bajarish yordamida qulay echimlarni izlash koʻnikmasiga ega boʻladilar. Mazkur vaziyatda ta'lim oluvchilarni intellektual, ma'naviy, axloqiy, estetik jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlash koʻnikmalarining keng koʻlamda shakllanishi ularda fikrlash, qayta fikrlash, intellektual jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun ham, shaxsga yoʻnaltirilgan oʻquv vaziyatlari ta'lim oluvchilarning intellektual, kreativ fikrlashlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ta'lim oluvchilarning izlanish va ijod qilishga boʻlgan ehtiyojlari ularda ijodiy vazifalarni bajarish koʻnikmalarini shakllantiradi. Ushbu vaziyatlarda ta'lim oluvchilar oʻz shaxsiy tajribalarini namoyon qiladilar va kengaytiradilar. Muayyan toʻsiqlar vujudga kelganda esa oʻz shaxsiy nuqtai nazarlarini ifodalash imkoniyatiga ega boʻladilar. Bunday ta'lim oluvchilar ijtimoiy jihatdan istiqbolli, obroʻli mavqeni egallaydilar.

Ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish vositalari va tizimini aniqlash bir qator oʻquv vaziyatlarini tashkil etish zarurligini koʻrsatdi. Ta'lim oluvchilarni muayyan vaziyatga olib kirish jarayonida biz, turli oʻquv topshiriqlari va didaktik ish turlaridan foydalandik. Bunday ish turlari quyidagilarni oʻz ichiga oladi: a) muayyan oʻquv predmeti boʻyicha oʻquv materiallarini taqdim etish jarayonida koʻpvariantli topshiriqlardan foydalanish, b) sinf jamoasi orasida oʻquv materiallarini taqsimlash, v) imitatsion xarakterdagi oʻquv-biluv jarayonini tashkil etish kabilar.

Biz mazkur oʻquv materiallarini tanlashda bir qator prinsiplarga tayandik:

1. O‘quv jarayonini individuallashtirish prinsipi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari va kreativ fikrlash ko‘rsatish ko‘nikmalarini hisobga olgan holda ularga topshiriqlar beriladi. Bunda har bir o‘quvchiga individual yondashiladi. Shu asosda ularning individual ta’lim yo‘nalishlarini tanlashlari va rivojlanishlariga imkoniyat yaratiladi. Individual hamda tabaqalashtirilgan yondashuv ta’lim oluvchilarni mustaqil faoliyatga jalb etish orqali amalga oshadi. Ular sirasiga insholar, referatlar yozdirish, rasmlar chizdirish, tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish, o‘zlari yaratgan yangiliklarni sinab ko‘rishga undash, o‘zlarining nazariy-amaliy bilimlarini tahlil qilishga o‘rgatish, individual reja asosida bilim olishlarini rag‘batlantirish kabilar.

O‘quv dasturlarida nazariy-amaliy xarakterdagi o‘quv materiallarini tabaqalashtirish pedagogik jihatdan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu o‘quv materiallarini murakkablik darajasiga qarab savollar va topshirqlarga ajratishda namoyon bo‘lishi kerak. Bunda o‘zlashtiriladigan o‘quv materiallarining ko‘lami va o‘quv faoliyatining turlarini aniq hisobga olish talab qilinadi. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarni ijodiy-intellektual jihatdan rivojlantirishga qaratilgan tizimning vujudga kelishiga asos bo‘lib, ta’lim oluvchilarni turli murakkablik darajasiga ega bo‘lgan o‘quv materiallari bilan ishlashga undab, topshiriqlarni muvofiqlashtirish, ularni ta’lim oluvchilar idroki, diqqati, xotirasi, fikrlash jarayonlari, temperamenti, ixtiyoriy sifatlari, o‘z mayllariga moslashtirishni taqozo qiladi.

2. Ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zlarini mustaqil rivojlantirishlari va mustaqil bilim olishlarini ta’minlash prinsipi. Mazkur prinsip ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘lib, ularning mustaqil bilish, o‘z faoliyatlari ahamiyatini mustaqil tarzda aniqlash, o‘zlarini takomillashtirish, mustaqil rivojlanish, mustaqil bilim olish va mustaqil o‘rganishdan iborat ekanligini namoyon qilish imkonini beradi.

O‘quvchi shaxsining shakllanishi jarayonida echilishi muhim bo‘lgan vazifalardan biri, ularning o‘zligini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratishdan iborat.

Ta’lim oluvchilarning ongli tarzda faollik ko‘rsatishlari ularning ijodiy layoqatlarini rivojlantiradi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratadi va o‘z faoliyatlarini dolzarblashtirish imkonini beradi. O‘z faolliklarini namoyon qilish jarayonida ta’lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishlari va faoliyatlarini takomillashtirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bu esa ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning shakllanishi va ijodiy layoqatlarini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini tashkil etish natijasida ta’lim oluvchilarning o‘quv hamda ijodiy mustaqilliklari ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning rivojlanishi natijasida ularning mustaqil bilim olish, o‘rganish, o‘z-o‘zlarini tarbiyalash, rivojlanish, o‘z faoliyatlarini dolzarblashtirish va ro‘yobga chiqarishlari uchun qulay sharoit yaratiladi. Mazkur pripsipning tatbiq etilishi ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning imkoniyatlarini ochishga ko‘maklashadi. Ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish layoqatining namoyon bo‘lishi mustaqil o‘qish, rivojlanish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z mavqeini aniqlash hamda o‘z faoliyatini amalda tatbiq etish kabilarda namoyon bo‘ladi.

3. Ta’lim oluvchilarning ijodiy imkoniyatlari ko‘lamini kengaytirish prinsipi. Ta’lim oluvchilarning ijtimoiy faollik layoqatlarini rivojlantirish ta’lim olish va rivojlanish mikrosotsium talablariga javob berishi lozim. Ta’lim oluvchilar ijtimoiy layoqatlarining rivojlanish imkoniyatlari darajasi ularning kreativ fikrlashlariga bog‘liq. Chunki ijtimoiy muhit ta’lim oluvchilarning ruhiyati va ijodiy imkoniyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularni o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish haqida o‘ylashga undaydi.

4. Ta’lim oluvchilar tajribasining shaxsiy xarakter kasb etishi prinsipi. Mazkur prinsip ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribalarini hisobga olish asosida ta’limni individuallashtirish va tabaqalashtirish, har bir o‘quvchiga pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarini belgilash imkonini beradi. Har bir o‘quvchi shaxsiy ijtimoiy tajriba sohibi hisoblanadi. Bu tajriba ta’lim jarayonida uzluksiz tarzda boyib boradi. Ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribalari ortishiga quyidagi holatlar sezilarli darajada ta’sir

koʻrsatadi: a) ta’lim oluvchilar intellekti, bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarining rivojlanish darajasi; b) har bir oʻquvchining mayllari, istaklari, oʻziga xos xususiyatlari, oʻziga xos tafakkur tarzi, atrof-muhitni idrok etishi va bilishi, oʻquv materiallari ustida ishlash usullari; v) har bir oʻquvchi erishgan muvaffaqiyatlari darajasi kabilar.

Ta’lim oluvchilarning fikriy darajasiga ta’sir koʻrsatadigan barcha holatlar ular hayotiy tajribasining manbai boʻlib, bilim olishga yoʻnaltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Ta’lim oluvchilar hayotiy tajribalarining manbai sifatida oʻquv materiallari, yangicha metodik yondashuvlar, ularga taqdim etiladigan turli didaktik topshiriqlar boʻlishi mumkin.

Kreativ fikrlash faoliyat koʻnikmalari ta’lim oluvchilarga oʻz faoliyatlarini ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda mavjud bilimlari va oʻquv faoliyati maromi doirasida tashkil etishga koʻmaklashadi. Ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribalariga tayanish ularga aniq yordam koʻrsatish va qoʻllab-quvvatlash imkonini berib, oʻz-oʻzlarini namoyon qilish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

5. Ta’lim oluvchilarning ruhiy fiziologik xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Mazkur prinsipga asoslangan holda ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish ularning layoqatlari, istaklari, mayllari, qiziqishlarini hisobga olishni taqozo qiladi. Ta’limning insoniy paradigmasi oʻquv jarayonida muayyan texnologiyalarni qoʻllashda nafaqat mikrosotsium talablari, balki ta’lim oluvchilarning individual, ruhiy va shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish lozimligini koʻrsatmoqda.

Ta’lim oluvchilarga pedagogik ta’sir koʻrsatishda ularning ruhiy fiziologik xususiyatlari hisobga olingandagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkin. Buning uchun dastlab ta’lim oluvchilarning intellektual darajalarini aniqlash, ular ruhiyati va jismining oʻziga xos jihatlarini hisobga olish talab qilinadi.

Ta’lim oluvchilar oʻz imkoniyatlari, mayllari, xususiyatlari, layoqatlari, kechinmalari, fikrlari, maqsadlari, qoʻlga kiritgan natijalarini hissiy-fikriy jihatdan

to‘g‘ri baholagandagina ijod qilish imkoniyati vujudga keladi. Ijod qilishga moyil bo‘lgan har bir o‘quvchi o‘z faoliyati jarayonida jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy-madaniy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

Mustaqil bilish faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri – o‘z-o‘zini baholashdir. O‘z-o‘zini baholash asosida ta’lim oluvchilarning shaxsiy fikrlari tizimi hamda qadriyatli yo‘nalishlari namoyon bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarda o‘zidan qoniqish darajasining namoyon bo‘lishida o‘z-o‘zini baholash faoliyati davomida erishgan yutuqlari va kamchiliklarini aniq ko‘ra olish imkonini beradi. Barqaror va mustahkam o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari ta’lim oluvchilarning rivojlanishlari va mahsuldor faoliyat ko‘rsatishlari uchun muhimdir.

Ta’lim oluvchilarning tahliliy hamda kreativ faoliyatida dialog muhim o‘rin egallaydi. Tahliliy hamkorliksiz shaxslararo munosabatlarda o‘z faoliyati natijalarini namoyon qilish va unga tuzatishlar kiritish hamda unga boshqalarning nuqtai nazarlari va baholarini hisobga olgan holda egallagan yangi bilim, tajribalarini singdirish uning sifatini ta’minlashga ko‘maklashadi. Jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-madaniy hamda axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq holda tahliliy faoliyat to‘liq bo‘lmaydi.

Ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati jarayonida o‘quv topshiriqlarini echish ko‘nikmalariga quyidagilar xosdir:

a) muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini izlash;

b) o‘quv topshiriqlarini echishga nisbatan tashqi mayllarning vujudga kelishi va ularning o‘sib ichki maylga aylanishi;

v) topshiriqlarni bajarish yo‘llarini izlashda o‘z holati va quvvatlarini baholash;

g) ta’lim oluvchilarning o‘zlari amalga oshirgan bilish va ijodiy faoliyatlaridan qoniqishlari va uni baholashlari;

d) vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘lida o‘zining hissiy kechinmalari, ixtiyoriy qat’iyatliliklari, faoliyatlarini mustaqil nazorat qilishlari, yo‘naltirishlari va faollashtirishlari.

Ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarning tahliliy faoliyatlari uyg‘unlashgan holda rivojlanadi. Bu davrda ta’lim oluvchilar mustaqil bilish faoliyatiga alohida qiziqish bilan intiladilar. Ular uchun o‘z tengdoshlari, o‘qituvchilar va kattalarning fikrlari va baholari alohida qimmatga ega bo‘ladi. Tengdoshlari va o‘qituvchilarini tinglash, tushunish, nutqlarida o‘ziga xoslik va ravonlikning vujudga kelishi jadallashadi. Ular boshqalar uchun alohida ahamiyatli bo‘lishga intiladilar. Ta’lim oluvchilarning tafakkurida tabiiylik, tanqidiylik, o‘zi va atrofdagilarga baho berish, dialog va munozaraga kirishish ustivor tarzda namoyon bo‘la boshlaydi.

Ta’lim oluvchilarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ko‘nikmalarini qanday faollashtirish mumkin, ularning ijodiy faoliyatlarida mazkur ko‘nikmalar qanday namoyon bo‘ladi? degan haqli savol tug‘iladi.

Ijodkor ta’lim oluvchilar uchun mustaqil bilish va rivojlanish xosdir. Jumladan:

- atrof-muhitda o‘zi uchun ahamiyatli, muayyan mantiqqa ega bo‘lgan fikrlarni izlash;

- umuminsoniy qadriyatlar doirasida o‘z faoliyati natijalarini namoyon qilishga intilish;

- o‘z ijodiy layoqatlari, quvvatlari va imkoniyatlarini mos tarzda baholash;

- sifatli echimni ta’minlashi mumkin bo‘lgan maqsadlar va topshiriqlarni tanlash;

- o‘z kuchiga ishonchning namoyon bo‘lishi;

- faoliyat tarzining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda maqsadlarini o‘zgartirish layoqatiga ega bo‘lish;

- xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tanqidiy tafakkurga ega bo‘lish;

- o‘z shaxsiy faoliyatining qimmatli jihatlarini tahlil qila olish;

- muayyan faoliyatga qiziqish bilan qarash, undan manfaatdorlik va uni amalga oshirishga tayyor bo‘lish;

- faoliyatning yangi usullarini idrok eta olish va unga nisbatan ochiq bo‘lish;

- yo‘l qo‘yilgan xatolar, qabul qilinmagan holatlarni tahlil qilish, faoliyatga mos vositalarni tanlashga moyillik, faoliyat natijalarining yangiligini ta’minlash kabilar.

Muloqot va hamkorlik faoliyati jarayonida ta’lim oluvchilarning kreativ vazifalari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- ta’lim oluvchilarning samimiy va ochiq harakatlarida;
- bayon qilingan fikrlarning mustaqilligida;
- berilgan baholarning xolisligida;
- boshqalarni o‘z o‘rnida ko‘ra olish tashabbuskorligi va layoqatliligida;
- o‘ziga xoslik va oldindan loyihalashtirilmaganlik kabilar.

Ta’lim oluvchilarning bu tarzdagi harakatlari va vazifalari shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatlarda, mazkur hodisani o‘rganishning shaxsiy ahamiyati, tajribalarining namoyon bo‘lishi ta’lim oluvchilar va o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining maqsadi nazariy bilimlar va amaliy faoliyat usullarini o‘zlashtirish zaruriyatini inkor qilmaydi. Bu o‘rinda o‘qituvchining muhim vazifasi ta’lim oluvchilar shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatini tashkil etish va uning natijalarini kafolatlashdan iborat. Bunday o‘quv vaziyatlarining asosiy vazifasi ta’lim oluvchilar shaxsiga yo‘naltirilgan, ularning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv vaziyatida ta’lim oluvchilar o‘z farazlarini ilgari surishlari, muqobil topshiriqlarni bajarishlari, o‘z guruhdoshlariga maslahatlar berishlari, taqdim etilgan topshiriqlar to‘plamidan murakkabrog‘ini tanlashlari, didaktik o‘yinlar va tanlovlarda ixtiyoriy tarzda ishtirok etishlari mumkin. O‘quv vaziyatida ta’lim oluvchilarga bu tarzdagi qo‘shimcha imkoniyatlar berish, ularning yangi sharoitlarga o‘zlarini sinab ko‘rishlari uchun qulaylik yaratadi. Ta’lim oluvchilarning bunday o‘quv vaziyatlarida o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishlari, bir qolipdagi tafakkur tarzi, xulq-atvor, namunaga qarab harakatlanishdan voz kechish, yangicha fikrlash layoqatini namoyon qilish imkonini berib, ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlash ko‘rsatishlari uchun sharoit yaratadi.

Ta’lim oluvchilarni ijodiy bilish jarayonining faol sub’ekti sifatida shakllantirish ularning kreativ faoliyatlarini faollashtirish asosida amalga oshiriladi. Jumladan:

- o‘quv mayllarini kuchaytirish, ta’lim oluvchilarni jiddiy, murakkab hamda qiziqarli ijodiy faoliyatga undash;

- ijod qilish, yutuqlarga erishish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantirish;

- abstrakt, mantiqiy, obrazli tafakkurni o‘stirish orqali fikrlashning turli ko‘rinishlarini muayyan maqsadga yo‘naltirish;

- ta’lim oluvchilarning diqqat-e’tiborlarini muhim qonuniyatlar, atamalar va tavsiflarni o‘rganishga qaratish;

- o‘quv faoliyatini unumli tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish;

- faoliyatning muayyan ko‘rinishida har bir o‘quvchining mashqlarni bajarishga oid tasavvurlarini kengaytirish;

- ta’lim oluvchilarning qiziqarli tadqiqotlarni amalga oshirishlari uchun sharoit yaratish.

Ta’lim oluvchilarning idrok etish jarayonlarini boshqarish hissiy bilish mexanizmlarini shakllantirish, obrazli hamda abstrakt-mantiqiy shakllarda fikriy faoliyat ko‘rsatishga undash imkonini beradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashlarini samarali rivojlantirishning har qanday shakli, uni baholash va istiqbollarini bashorat qilish ijodiy faoliyatlarini samarali rivojlantirish uchun nihoyatda zarur hisoblanadi. Ta’lim oluvchilarning idrok etish jarayonlarini boshqarish sub’ektiv xarakterga ega. Buning natijasida ta’lim oluvchilarning ijodiy bilish faoliyatlarini shakllantirish qonuniyatlari ishlab chiqiladi.

Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashning turli jihatlarini tahlil qilishda ijodiy faoliyatni tashxislash mezonlari va o‘lchovlaridan foydalanish talab etiladi. Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini tashkil etish ulardan yangicha ruhiy holatlarni egallashni talab qiladi. Ta’lim oluvchilarning shaxsiy tajribalari bu o‘rinda yangi xarakterdagi o‘zaro munosabatlarni vujudga keltirishni taqozo etadi.

XULOSA

1. Kognitiv pedagogika pedagogikaning nisbatan yosh tarmoqlaridan bo‘lib, kognitiv psixologiya negizida vujudga kelgan.

2. Kognitiv pedagogikaning predmeti ta’lim oluvchilarning bilish strukturasi va uning instrumentidir. Shu ma’noda kognitiv pedagogika o‘zining muayyan yo‘nalishlariga ega. Har bir yo‘nalish ta’lim oluvchilar bilish strukturasi va uning faoliyat ko‘rsatish instrumentini o‘rganishda o‘ziga xos metodologik yondashuvlarga tayanadi.

3. Kognitiv pedagogika shaxs bilish strukturasi va uning insturmentini o‘rganishga yo‘naltirilganligi uchun ham bevosita kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishiga asos yaratdi.

4. Kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayonlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning tayanch hamda kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun birinchi navbatda ularning aqliy bilish usullarini rivojlantirishni nazarda tutish taqozo etiladdi.

5. Kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayonlarda talabalarning kasbiy tafakkuri kognitiv, evristik, pragmatik hamda kreativ texnologiyalar yordamida tizimli tarzda rivojlantiriladi.

6. Kognitiv jarayonlarni bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirish muhim ahamiyatga jga, chunki kasbiy tafakkur o‘qituvchi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pedagogik kreativlik, idrok, intuitsiya, kommunikatsiyani taqozo etadi.

7. Kognitiv texnologiyalar, evristik metodlar, topshiriqlar, savollar, loyiha ta’lim texnologiyalari, ta’lim oluvchilarning izlanish, mustaqil bilim olish, axborotlarni saralab qo’llash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali mantiqiy, mustaqil, tanqidiy hamda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

8. Kognitiv pedagogikaga oid yondashuvlar mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ishlab chqilgan aqliy tarbiya konsepsiyasi, tarixiy madaniy rivojlanish hamda mantiqiylik, kreativlik, mustaqillik, ijod erkinligi modellariga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi” 11.09.2023 yildagi PF–158-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/6600413
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. https://lex.uz
6. 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori.
7. 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmon.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.07.2021 y. PQ-5188-son "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori https://lex.uz/uz/docs/5520855
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2019 y. PQ-4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori https://lex.uz/docs/4320713
11. https://www.unesco.org/
12. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – T. : Toshkent islom universiteti, 2004. -624 b.
13. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy: Sahihi Buxoriy: Al-jome’ as-sahih (2 ta kitob) – T.: O‘zbekiston, 2021. – 1728 b.
14. Aboim S. Gender cultures and the division of labour in contemporary Europe: a cross-national perspective // Portuguese Journal of Social Science. 2010. Vol. 58. № 2. P. 171-196.
15. Avesto. Tarixiy–adabiy yodgorlik. N.Jo‘raev T.: G‘afur G‘ulom, 2015 – 699 b.
16. Akromova G. O’quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent -2023.
17. Arabova M., Berdieva F. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari. Zamonaviy ta’lim / sovremennoe obrazovanie. 7, 2014. 49-54 b.

18. Астахова Л. В., Харлампева Т. В. Критическое мышление как средство обеспечения информatsionно-психологической безопасности личности. Монография. – М.: РАН, 2009. - 136 с.

19. Байденко В. И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионалного образования (методологические и методические вопросы. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – 114 с.

20. Beruniy Abu Rayhon. O‘ylar, hikmatlar, naqllar, she’rlar. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Abdusodiq Irisov. – T.: “Yosh gvardiya”, 1973. – 104 b. 40-b.

21. Beruniy Abu Rayhon. Asarlar / Qadimdan qolgan yodgorliklar. T. 1. Tarjimon A.Rasulov. – T.: «Fan», 1968. – 488 b.

22. Beruniy Abu Rayhon. Asarlar / Hindiston. T. 2. Tarjimon A.Rasulov. – T.: “Fan”, 1968. – 538 b.

23. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. М.: «Академия», 2002.

24. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. — М.,1996;

25. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strateiyalari. Monografiya. – Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy», 2023. – 120 b.

26. Жук О.Л., Сиренко С.Н. Подготовка будущих педагогов к формированию у обучающихся универсалных компетенсий ххи века – Минск, 2021. 191 с.

27. Засыпкин В.П. Регионалная система педагогического образования: сотсиалные императивы и инноватsионные модели // Образование и наука. Известия Уралского отделения РАО. – 2007. - №5(9). – С.11-17

28. Зимняя И. А. Осваиваем социалные компетентности: учебное пособие / Российская академия образования, Московский психолого-социалный институт. – М.: Московского психолого-социалного ин-та, 2011. – 591 с.

29. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: falsafa doktori (PhD) darajasi olish uchun yozilgan diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 25 b.

30. Игнатова В. А. Педагогические аспекты синергетики // Педагогика. - 2001. - № 8. - С. 26-31.

31. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasining rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e’lon qilingan.

32. Исаев И.Ф. Профессионално-педагогическая култура преподавателя: Учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений. – 2-е изд., М.: Издателский центр «Академия», 2004, 208 с.

33. Коломийченко Л. В. Народная культура как средство формирования гендерной толерантности у детей старшего дошколного возраста. – Перм, 2013. – 115 с.

34. Крилова Н. Б. Культурология образования // Новие сенности образования. М. : Народное образование, 2000. Сб. №10. 272 с.

35. Кларин М.В. Развитие критического и творческого мышления. “Школные технологии” № 2, 2004.

36. Лиссабонская конвенция о признании квалификатsiй, относящихся к высшему образованию в Европейском регионе, от 11 апреля 1997 г.

37. Люис, Гарет. Как развит креативност за 7 дней. — М.: Издателство "Э", 2018. — 128 с.

38. Malikova D.M. Theoretical Approaches of Scientists to Dynamic Game

39. Technologies. Procedia of Philosophical and Pedagogical Science. Volume-2 | Issue-2 Available online @https://procedia.online/index.php/philosophy.

40. Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: TDPU, 2009, 25 b

41. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. - 240-b.

42. Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar)// To‘plovchi va mas’ul muxarrir: M. M. Xayrullaev/.—Tuldirilgan k,ayta nashr.— T.: A. Kddiriy nomidagi xalk, merosi nashr., 2001.— 408 b

43. Медвецкая Н. М. Гендерные аспекты подготовки педагогов. Материалы Международного научно-практического семинара. - Витебск, 2010. - Ч. 2. - С. 172-175.

44. Мурадова Д.Дж. Педагогические основы развития креативного мышления учащихся в процессе обучения гуманитарным дисциплинам (7-8 классы) - Т.: дисс. автореф. канд. пед наук, УзНИИПН имени Т.Н.Кары Ниязи, 2006, - 25 с.

45. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi: umumta’lim maktablari uchun.– T.: O‘qituvchi, 1996.- 192 b.

46. Огородова Т. В. Акмеологческие основы деятелности: учеб. пособие. – Ярославл: ЯрГУ, 2010. – 116 с

47. Olimov Q.T. va boshq. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari magistratura talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T. «Fan», 2006. – 150 b.

48. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

49. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – Toshkent, 2015. – 120 bet.

50. Посталюк Н.Ю. Творческий стил деятелности: педагогический аспект. – Казан, 1989. – 204 с.

51. Равен Дж. Компетентност в современном обществе. Выявление, развитие, реализatsiя. – М.: 2002. 258 с.

52. Рахимов Б. Креативные механизмы в процессе формирования элитарности человека. Сб.статей/Под общей редакцией О.В.Красновой и Б.И.Кайгородова. – М.: Издателство Московского психолого-социалного института, 2008.,с. 255-259.

53. Реут Д.В. Сладкое проклятие креативности // Когнитивный анализ и управление развитием ситуatsiй (CASC'2001). Труды 1-й международной конференции. Москва, 11-12 октября 2001 г. т.3. М.: Институт проблем управления РАН, с. 91-123

54. Safarova R., Musaev U.Q., Musaev P. va boshq. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. –T.: Fan, 2005. – 255 b.

55. Сериков В.В., Данилчук В.И. и др. Личностно ориентированное образование: феномен, концепция, технологии: Монография. - Волгоград: Перемена. 2000. – 148 с.

56. Слободчиков В.И. Методы изучения синтезирующей функции сознания, м., 1975.

57. Tilakova M. A., Eshmuradov O. E. Kreativ kobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal: 2021, Volume: 1, ISSUE: 6

58. Tilavova M.M. O'quvchilarda gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2008. – 130 b.

59. Tojiboeva X.M. Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari: pedagogika fanlari doktori diss. – T.: TDPU, 2022. – 222 b.

60. Tojiev M., Tolipov U. va b. Pedagogik texnologiya (1-kism). - T.: Ishonch, 2008. 38 b.

61. Tolipov U., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbikiy asoslari. – T.: Fan, 2006. 79 b.

62. Torrance E. P. The Torrance Test of creative thinking: Technical-norm manual. III, 1974

63. To'raqulov S., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. – T.: "O'qituvchi", 1992. – 57 b.

64. Фадел Ч., Бялик М., Триллинг Б. Четырехмерное образование: Компетенсии, необходимые для успеха / Чарлз Фадел, Майя Бялик, Берни Триллинг: Пер. с англ. – М.: Издателская группа «Точка», 2018. – 240 с.

65. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shaxri. – T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 224 b.

66. Xodjieva F.O. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish. / Monografiya. - T.: «Fan», 2008. – 140 b.

67. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научнометодическое пособие. – М.: Эйдос, 2013. – 73 с.

68. Shomurodov J. Ўқувчиларнинг бадиий-эстетик мазмундаги ўқув материалларини когнитив қабул қилиш лаёқатини ривожлантириш механизмлари. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Chirchiq – 2023.

69. Erkaboeva N. Sh. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Qo‘qon: Qo‘qon DPI, 2020. – 143 b.

70. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. Zebinoso-Konigul. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 273-274-betlar.

71. Юзликаев Ф. Р. Теория и практика интенсификатсии дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Дис. докт. пед. наук. – Ташкент, 2005. – 303 с.

72. O’zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. – T.: “O’zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nas’hriyoti, 2006.- 649-bet.

73. Yusupova G. Z. Boshlang‘ich sinf o’quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish tizimi. Ped.fan. bo’yicha fal.dok. (PhD) diss.... avtoreferati – Nukus, 2022. – 52 b.

MUNDARIJA

	MUQADDIMA ……..	9
I	**KOGNITIV PEDAGOGIKANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA MAZMUN MOHIYATI …….**	11
1.1.	Kognitiv pedagogika: uning funksiyalari va prinsiplari ……	11
1.2.	Bo‘lajak o‘qituvchilar bilish jarayonlari va uning instrumentariysini rivojlantirishda kognitiv pedagogikaning imkoniyatlari …….	23
1.3.	Kognitiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish parametrlari ……	53
II	**KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TA’LIM OLUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH FAOLIYATLARINI TIZIMLI TARZDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI .....**	76
2.1.	Kognitiv jarayonlarning ta’lim muassasasidagi madaniy muhitda o‘quvchilarni rivojlantirish imkoniyatiga egaligi	76
2.2.	Kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayonlarda ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari	104
2.3.	Ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash faoliyatini rivojlantirish parametrlari	149
	XULOSA ……..	180
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI ……..	181

Safarova Roxat Gaybillayevna

1958-yil 7-oktyabrda Buxoro viloyati Romitan tumanida tavallud topgan. Pedagogika fanlari doktori, professor, xalqaro pedagogika fanlari akademiyasi akademigi. 1988-yil oktyabrdan boshlab T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. "Xalq ta'limi a'lochisi" (1990-, 2008-yy), "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil" (2011-y.), "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 25 yil" (2016 y.) hamda "Xalq ta'limi fidoyisi" (2021- y). 600 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, jumladan 18 ta monografiya, 20 ta qo'llanma, o'quv dasturlari, boshlang'ich ta'lim va ona tili ta'limi konsepsiyasi, davlat ta'lim standartlari, Alifbe darligining 21 ta nashri, "Kreativ pedagogika" hamda "Kompramistik pedagogika" darsliklari, pedagogik atamalar lug'ati, 3 tomlik "Pedagogika ensiklopediyasi", "Tarbiya ensiklopediyasi"ning asosiy muallifi. Professor R.Safarova rahbarligida 5 ta p.f.d. (DSc), 13 pedagogika fanlari nomzodlari, 23 ta pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorlari (PhD), jami 41 nafar mutaxassislar dissertatsiya ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilganlar. Professor R.Safarova didaktika, pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, modulli o'qitish texnologiyasi, akmeologik, kognitiv, kompetensiyaviy, gender yondashuvlar nazariyasi, pedagogik madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish muammolari, sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlari, tahlili va tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlarining muallifi.

Сафарова Рохат Гайбиллаевна

Сафарова Рохат Гайбиллаевна родилась 7 октября 1958 года в Ромитанском районе Бухарской области. Доктор педагогических наук, профессор, академик Международной академии педагогических наук. С октября 1988 года работает в Научно-исследовательском институте педагогических наук Узбекистана имени Т. Н. Кори Ниёзи. Обладательница орденов “Халқ таълими аълочиси” («Отличник народного образования») (1990, 2008 гг.), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil” («20 лет Независимости Республики Узбекистан») (2011 г.), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 25 yil” («25 лет Независимости Республики Узбекистан») (2016 г.), “Xalq ta’limi fidoyisi” («Самоотверженец народного образования») (2021 г.). Автор более 600 научных работ, в том числе 18 монографий, 20 пособий, образовательных программ, главный автор «Концепции начального образования и обучения родному языку», государственных образовательных стандартов, 21 издания учебника «Азбука», учебников «Креативная педагогика» и «Компромиссная педагогика», Словаря педагогических терминов, 3-х томной «Энциклопедии педагогики», «Энциклопедии воспитания». Под руководством профессора Р.Сафаровой успешно защитили диссертации 5 докторов педагогических наук (DSc), 13 кандидатов педагогических наук, 23 доктора философии (PhD) педагогических наук, всего 41 специалист. Профессор Р.Сафарова - автор многочисленных научных трудов, посвященных дидактике, теории педагогики, истории педагогики, личностно-ориентированным технологиям, модульной технологии обучения, теории акмеологического, когнитивного, компетентностного, гендерного подходов, проблемам организации образовательного процесса на основе подходов педагогической культурологии, анализу и исследованию педагогических учений мыслителей Востока.

Safarova Rokhat Gaibillaevna

Safarova Rokhat Gaibillaevna was born on October 7, 1958 in the Romitan district of Bukhara region. Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the International Academy of Pedagogical Sciences. Since October 1988, she has been working at the Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan named after T. N. Kori Niyozi. Recipient of "Халқ таълими аълочиси" («Excellence in Public Education») (1990, 2008 yy.), "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil" («20 years of Independence of the Republic of Uzbekistan ») (2011 y.), "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 25 yil" («25 years of Independence of the Republic of Uzbekistan ») (2016 y.), "Xalq ta'limi fidoyisi" («Selfless for public education ») (2021 y.). Author of more than 600 scientific works, including 18 monographs, 20 manuals, educational programs, main author of the "Concept of primary education and teaching the native language", state educational standards, 21 editions of the textbook "ABC", textbooks "Creative Pedagogy" and "Compromise Pedagogy" ", Dictionary of pedagogical terms, 3-volume "Encyclopedia of Pedagogy", "Encyclopedia of Education". Under the leadership of Professor R. Safarova, 5 Doctors of Pedagogical Sciences (DSc), 13 Candidates of Pedagogical Sciences, 23 Philosophy Doctors (PhD) on Pedagogical Sciences, a total of 41 specialists, successfully defended their dissertations. Professor R. Safarova is the author of numerous scientific works devoted to didactics, the theory of pedagogy, the history of pedagogy, student-oriented technologies, modular teaching technology, the theory of acmeological, cognitive, competency-based, gender approaches, problems of organizing the educational process based on the approaches of pedagogical cultural studies, analysis and research into the pedagogical teachings of Eastern thinkers.

R.G.Safarova

Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar

Bosmaxonaga berildi: 10.12.2023. Bosishga ruxsat etildi: 12.12.2023.
“Times New Roman” garniturasi, Ofset bosma. Adadi: 50 dona.

“Science and innovation” MCHJ
Litsenziya №:038864 15.09.2022
Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654